
Jahon adabiyoti kutubxonasi

ARTUR KONAN DOYL






Yours very truly
A Conan Doyle

Jahon adabiyoti kutubxonasi

ARTUR KONAN DOYL

DENGIZ QAROQCHISI SHARKINING QISMATI

Sarguzasht-detektiv qissa va hikoyalar



Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2016

UO'K 398.21(575.1)
KBK 84(50')7
A 12

Tarjimon:
Hoshimjon MURODOV

Mas'ul muharrir:
Muhiddin OMON

Doyl, Artur Konan


A 12 Dengiz qaroqchisi Sharkining qismati: sarguzasht-detektiv qissa va hikoyalar /A.K. Doyl – Tarjimon H. Murodov. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016. – 160 b.
ISBN 978-9943-05-784-5

Ser Artur Konan Doyl – ingliz yozuvchisi, mutafakkir va publitsist, tibbiyot va huquq fanlari doktori, jahon adabiyotida detektiv va sarguzasht janrlarning benazir bilimdoni sifatida tanilgan mashhur adib.

Ijodini «Sesassa vodiysining siri» (1879) hikoyasi bilan boshlagan. Konan Doylga bosh qahramoni izquvar Sherlok Xolms bo'lgan detektiv janrdagi «Baskervillar iti», «Dahshatlar vodiysi» sarguzasht qissalari va «Sherlok Xolms sarguzashtlari» hikoyalar to'plamlari beqiyos shuhrat keltirgan.

Konan Doylning e'tiboringizga havola etilayotgan qissa va hikoyalar to'plami sarguzasht, detektiv va tarixiy janrlarda qalam tebratuvchi adiblar orasida chindan ham ustoz maqomida ekanligining isbotidir.

UO'K 398.21(575.1)
KBK 84(50')7



DENGIZ QAROQCHISI SHARKINING QISMATI

(*Sarguzasht qissa*)

BIRINCHI QISM

Muqaddas Kitts oroli gubernatorining Londonga safari

1713-yili Fransiya va Angliya o'rtasida imzolangan Utrext sulhi¹ Ispaniya toj-taxti uchun kechgan o'n uch yillik ayovsiz urushga nihoyat yakun yasadi. Tinchlik sulhining imzolanishi oqibatida harbiy xizmat evaziga risq-ro'zini topib yurgan minglab sobiq askarlar biryo'la ham ish-yumushsiz, ham boshpanasiz qolib, hayot taqozosi ila yo'qsillar

¹ *Utrext sulhi* — Fransiyaning Ispaniya taxti uchun urushda xususan Angliya bilan bo'lgan jang harakatlarini to'xtatish borasida Gollandiya shahri Utrextida tuzilgan sulh (Bu va keyingi izohlar tarjimonniki).



qatoridan o'rin olishga majbur bo'ldilar. Garchi ularning aksariyati tirikchilik g'amida shaharlarda qo'nim topgan bo'lsa-da, ba'zilar baliqchi kemalarga qora ishchi bo'lib yollanib, amal-taqal qilib g'aribona kun kechirardi.

Ammo iste'foga chiqarilgan harbiylar orasida qabihlikka ruju qo'ygan, tabiatan badkirdorlikka moyil odamlar ham talaygina edi. Hayotini urushsiz tasavvur qila olmaydigan, hech qanday razillikdan tap tortmas murdor kimsalarni shubhasiz, oldinda mudhish qismat kutardi.

O'sha alg'ov-dalg'ov yillari taqdirga tavakkal qilib, o'z hayotini qaroqchilikka tikkanlar hisobiga qabih ishlarga qo'l uruvchi yovuzlar safi yanada kengaygan edi. Shu tariqa zamonaning zayli bilan turli millat va elat vakillaridan iborat bo'lgan qaroqchi kemalar soni ko'paygandan ko'payib, ulkan va bepoyon ummonda vahshiylik va razolat qutqusi tobora alanga ola boshladi.

O'sha kezlari o'zlarini «dengiz hukmdorlari» deb atagan qaroqchilar qurbonini izlayotgan yirtqich kalxatlarday dengizma-dengiz tinimsiz kezib yurardi. Odatda, qaroqchilar biror-bir savdo kemasini shafqatsizlarcha talagach, adog'i ko'rinmas dengiz ichra g'oyib bo'lib, bir muddat qoralarini ham ko'rsatmasdilar. Ba'zida esa, behisob o'lja bilan hech kimdan hayiqmay bandargohlardagi mayxonalarda paydo bo'lib qolishardi. Maishatga o'ch qaroqchilar kayf-safo uchun oltin-u javohirlarni ham ayamay sarflashar va ularning aql bovar qilmas darajadagi anvoyi taomlar bilan to'lib toshgan dasturxonni eng badavlat odamlarni ham lol qoldira olardi. Badqahr talonchilar ko'z ko'rib, quloq eshitmagan shafqatsizlik borasida, ayniqsa, yomon nom chiqargan bo'lib, ular o'z yo'lida duch kelgan har qanday odamni, yosh-u qari demay, berahmlarcha qilichdan o'tkazaverardi.

Qaroqchilar Hindistonning Koromandel qirg'oqlari, Bangol ko'rfazi, Madagaskar, Afrika, Karib orollari va ayniqsa, Amerika qit'asi atrofidagi dengizlarda talonchilikda benihoya haddilaridan oshib ketgan bo'lib, savdogar ahlining boshiga bitgan baloi ofat edi. «Dengiz hukmronlari»,



odatda, qish faslida endigina kashf etilgan mahobatli Amerika qit'asining janubiy qismida bo'riday izg'ib yursalar, yoz faslini Yangi Angliya¹ qirg'oqlarida savdo kemalarini talash bilan o'tkazardilar. Dengiz talonchilari bandargohlarga qo'qqisdan hujum qilib, ularni vayron qilish, tinch aholining mol-mulkini zo'rlik bilan tortib olish, qarshilik ko'rsatganlarni esa ayamay o'ldirish yo'li bilan topgan boyliklarini aysh-ishrat, kayf-safoga sarflar edilar.

Tarixnavis solnomachilarning qayd etishicha, o'tmishda ham ba'zi bukanyerlar² dengizda hammaga dahshat solsalar-da, shafqatsizlikdan o'zlarini tiya bilgan va insoniylik aqidalariga mumkin qadar rioya qilib, kezi kelganda asirlarga nisbatan oliyjanoblarcha munosabatda bo'lishgan ham ekan. Ammo yangi paydo bo'lgan qaroqchilar shu qadar yovuz edilarki, ularda odamgarchilikdan asar ham yo'q edi. Yangi qaroqchilar bandilarni behudaga qiynoq azobiga solar, vahshiylarcha o'ldirar, hattoki ayol va norasidalarini ham ayab o'tirmas edilar. Yangi bukanyerlar uchun inson hayoti sariq chaqadek gap bo'lib, qo'llariga tushgan odamlarni o'ylab-netib o'tirmay narigi dunyoga jo'natish oddiy bir holga aylanib qolgan edi.

O'lguday ichib mast bo'lgan dengiz bosqinchilari o'z qurbonlarini ermak uchun ham berahmlarcha halok qilaverardilar. Qaroqchilarning o'z asirlarini hazil-mazax yo'sinida kalaka qilishlari o'taketgan yovuzlik namunasi edi. Masalan, aytishlariga qaraganda, bir gal qaroqchilar savdo kemasini qo'lga tushirib, oldiniga kema darg'asini beayov tahqirlashgan, so'ng bu ham yetmagandek, avval sho'rlikning burnini, keyin quloqlarini kesib, ularni o'ziga yedirishgan ekan. Qaroqchlarga yo'liqqan har qanday kema ummonga g'arq bo'lmay qolmasdi. O'sha davrlarda faqat o'ta yovqur dengizchilar va arslondek dovyurak kema darg'alarigina Karib dengizida suzishga jur'at eta olar edi, xolos.

¹ *Yangi Angliya* — AQSH shimoli-sharqidagi hudud.

² *Bukanyerlar* — XVII asrning ikkinchi yarmida Karib dengizida Ispaniya floti kemalariga muttasil hujum uyushtirgan talonchilar, ya'ni qaroqchilar.



Ana shunday abjir va har qanday xavf-xatardan tap tortmaydigan jasur dengizchilardan biri «Tong Yulduzi» kemasining mard va tanti darg'asi Jon Skarrou edi. Ammo hatto Skarroudek azm-u shijoatli kapitan ham har gal dengiz safaridan omon qaytib, so'nggi manzil yaqinida, ya'ni Muqaddas Kitts orolidagi qudratli va o'ta mustahkam Basseter harbiy qal'asidan yuz yardcha¹ narida langar tashlagandan keyingina o'zini yelkasidan tog' ag'darilgandek his qilardi. Shundagina Skarrou yengil nafas olib, qaroqchilar qo'liga tushmay eson-omon qaytgani uchun Tangriga shukronalar aytardi.

Bu safar ham «Tong Yulduzi» kemasi, odatdagidek, Muqaddas Kitts oroliga kelib, shakar va qizil qalampirdan iborat yuk olib ketishi kerak edi. Orolga yetib kelgunga qadar qaroqchilarga yo'liqib qolishdan nihoyatda cho'chigan Skarrou tropik ummonining nafarmon ufqida yelkani elas-elas ko'zga tashlangan har bir kemani ko'rganda yurak hovuchlab qolardi. U qaysi bandargohda to'xtab o'tmasin, deyarli har birida qaroqchilarning yovuz bosqinlari va savdo kemalariga hujum qilish paytida ishlatgan hiyla-nayranglari haqidagi vahimali gaplarga diqqat bilan quloq solib, kemani muqarrar halokatdan asrash va manzilga bexatar olib borish maqsadida o'ziga tegishli xulosalar qilar va rejalar tuzardi.

Aynan bu safar ham «Tong Yulduzi» kemasi kelishidan sal avval qaroqchilarning yigirma zambarakli bir kemasi sohil yoqalab suzib o'tgan edi. Kemaning nomi «Omadli Xaloskor» bo'lib, unga Jon Sharki ismli so'xtasi sovuq kapitan boshchilik qilardi. Qilichidan qon tomgan Sharki uchiga chiqqan yaramas bo'lib, bu nusxa qisqagina vaqt ichida son-sanoqsiz kemalarni dengiz tubiga g'arq qilgan va yuzlab begunoh odamlarning boshiga yetgandi. El orasida uning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vahshiyliklari haqida turli mish-mishlar yurardi. Aytishlariga qaraganda, yovuz Sharkining qo'liga tushgan odamning holiga voy bo'l-

¹ Yard — (ingl. yard), uzunlik o'lchov birligi, 1 yard 91.44 sm. teng.



gan ekan. Chunki u odamlarni yosh-qari demay berahmlarcha o'ldirish bilan birga qurbonlarini xo'rlashni nihoyatda yoqtirardi. Jon Sharki bandi qilinganlarga shu qadar qattiq azob berar ediki, kishi tug'ilganiga ming pushaymon bo'lardi. Uning hazillari shu darajada qaltis va yaramas ediki, eshitgan odamning tepa sochi tik bo'lib ketardi.

Jon Sharkining qora tusli va kesatiq ma'nodagi «Omadli Xaloskor» nomi bilan atalgan kemasi Bagam orollaridan tortib, to Atlantika ummonining qoq o'rtasigacha bo'lgan oraliqda duch kelgan kemaga och arvohday tashlanar va undagi odamlarni vabo balosidek qiyratib yuborardi. Shu sababli «Tong Yulduzi» kemasining darg'asi Skarrou ham shafqatsiz Sharkining qo'liga tushmaslik uchun bor tajribasini ishga solishga va hamma ehtiyot choralari ko'rishga majbur edi. Bu safar u kemani qaroqchilar hujumidan asrash va ular bilan ummonda tasodifan ham uchrashib qolmaslik maqsadida odam oyog'i yetmagan orollar orasidan suzib o'tishni ma'qul ko'rdi. Biroq qaroqchilarning vajohatidan it ham hurkadigan sardori Jon Sharki, odatda, shu pana-pastqam dengiz yo'llaridan ham birorta kemani omon qo'yib yubormasligini bilgan kema darg'alari undan ajaldan qo'rqqanday qo'rqishardi.

Kunlardan bir kun «Tong Yulduzi» kemasi Karib dengizi bo'ylab suzib keta turib, yo'lida tasodifan to'rt eshkakli qayiqni uchratib qoldi. Sokin dengizning qoq o'rtasida pista po'chog'iday chayqalib turgan qayiqda bir matros behush yotar va tinmay alahlardi. Sho'rikni kemaga olib chiqishayotganda u jon holatda bexosdan xirillab yubordi. Chunki uning tili suvsizlikdan burishgan qo'ziqorindek qorayib ketgandi. Matrosni hushiga keltirishganda, uning yangi angliyalik yigit ekanligi ma'lum bo'ldi. Yigitning aytishicha, u asli Marbl-Ged port-shahrida tug'ilib o'sgan ekan. U ketayotgan shxuna¹ qarg'ish tegib, Sharkining to'dasiga duch kelib qolgan va natijada shxunadagilarning hammasi qilichdan o'tkazilib, faqat ugina omon qolgan ekan.

¹ Shxuna — ikki yoki uch machtali ke ma.



Matros yigitning ismi Xayrem Evanson edi. U qayiqda yakka o'zi bir qultum ichimlik suvisiz, ovqatsiz, tropik quyoshining otashdek tig'i ostida naq bir hafta suzishga majbur bo'lgan edi. Jon Sharki Evansonni kalaka qilib, unga shxuna kapitanining qilich tig'idan iltahateshik bo'lib ketgan jasadini yemish sifatida qo'shib bergan ekan. Ammo matrosning aytishiga qaraganda, u ochlik azobiga chiday olmay o'likni yeb qo'yishdan qo'rqib, uni dengizga tashlab yuboribdi. Yigit ko'rinishidan juda zabardast bo'lishiga qaramay, nihoyatda holdan toyib, ochlikdan aqlidan ozay deb turgan paytda baxtli tasodif tufayli «Tong Yulduzi» kemasiga duch kelib, muqarrar o'limdan qutilib qolgandi.

Kema darg'asi Skarrou matros Hayrem Evansonni topib olganidan mamnun bo'ldi, zero, kemada matroslar oz bo'lib, ularning qurol-yarog'lari ham o'ziga yarasha edi. Shu sababdan ham darg'a yangi angliyalik norg'ul yigitni o'z kemasida ko'rganidan o'zida yo'q xursand bo'lib, o'zicha: «Xoynahoy qaroqchi Jon Sharkiga rahmat aytish uchun qarzdor bo'lgan dunyodagi yagona inson men bo'lsam kerak», — deb miyig'ida kulib ham qo'ydi.

Bari xavf-xatar ortda qolgach, har safargidek kapitan Skarrou qudratli Basseter qal'asining ajal zambaraklari himoyasida bo'lgandan so'nggina bosqinchi qaroqchilardan o'zini birmuncha bexavotir his qila boshladi. Ammo harbiy qal'aning bojxona joylashgan tomonidan chiqqan qayiq to'g'ri «Tong Yulduzi» kemasi tomon suzib kelayotganini ko'rib, go'yo qandaydir bir mudhish yovuzlik yuz berishini payqagandek, yuragi birdan orqaga tortib ketdi.

— Garov o'ynayman, Morgan, — dedi u katta shturmanga qarab, — bojxona mulozimining bizga aytadigan birinchi so'zi kapitan Jon Sharki to'g'risida bo'ladi.

— Nima ham derdim, kapitan, siz bilan bir kumush dollarga garov boylashga roziman, — javob berdi miqti gavdali bristollik¹ keksa shturman.

¹ Bristol — (inglizcha Bristol) — Angliyadagi shahar.





Qal'adan chiqqan qayiqni metindek baquvvat qora tanli eshkakchilar tezda kema yoniga yetkazib kelishdi va ko'z ochib yumguncha «Tong Yulduzi» kemasi sahnida oq kamzul kiyib olgan olifta zobit hozir bo'ldi.

— Salomatmisiz, kapitan Skarrou?! Mabodo, qaroqchilar sardori Sharki haqida hech qanday gap-so'z eshitmadingizmi? — dedi u.

Kapitan Skarrou kekxa shturmanga qarab ma'noli jilmayib qo'ydi.

— Bu Sharki degan iblis sizlarni ham qaqshatdimi, deyman? — so'radi u bojxona zobitidan.

— Qaqshatdimi, dedingizmi?! Demak, siz o'sha razil nusxa haqida hech narsa eshitmabsiz? Jon Sharki qo'lga olindi, men sizga aytsam. Hozir u Basseter qal'asi qamoqxonasida o'tiribdi. Shu chorshanba kuni mal'un qaroqchi sud qilindi, ertaga tong-saharda esa dorga tortiladi.

Bu xabarni eshitgan kapitan Skarrou va shturmanning hayratdan og'zi lang ochilib qoldi, ular bu kutilmagan voqeadan hatto xursand bo'lishni ham unutgandek edilar. Matroslar esa quvonchlarini ichiga sig'dira olmay, hayqirgancha kema sahni o'rtasiga yig'ilib o'yinga tushib ketishdi. Gazandalar to'daboshisining dorga osilishidan hammadan ko'proq suyungan Hayrem Evanson bo'ldi. U xudojo'y bo'lgani uchun iltijoli ko'zlarini ko'kka tikkancha, bir nimalardir deb shivirlab, Tangriga shukronalar aytardi.

— Sharki dorga osiladi! — deb xitob qildi Evanson. — Janob zobit, ayta olmaysizmi, qal'angizga, mabodo, jallod kerak emasmikan?

— Hamma o'z joy-joyini egallasin! — deb baqirdi qaroqchining qatl etilishini eshitib, xursandlikdan intizomni buzgan matroslardan jahli chiqqan shturman.

So'ng u kapitanga yuzlanib, dedi:

— Men bugun o'z hayotimda birinchi bor yutqazgan garovim uchun mamnuniyat bilan pul to'layapman, bilsangiz agar. Sizga bajonidil ushbu kumush dollarni berishga roziman, kapitan Skarrou...

Kapitan Skarrou qal'a zobitiga tavoze bilan murojaat qilib so'radi:



— Marhamat qilib ayting-chi, janob, bu iblis Sharkini qanday qilib qo'lga tushirdingiz?

— Bilasizmi, o'sha siz iblis deb atagan qaroqchi shu darajada shafqatsiz va o'zboshimcha bo'lib ketgandiki, hatto uning sheriklari ham o'z sardorining bu qadar berahmligidan nafratlana boshlabdi. Oxiri pichoq borib suyakka yetgach, uni kemadan haydab, Sirli Ko'rfaz janubidagi kichik bir Littl Penglz nomli orolga tashlab ketishibdi. Bu yerdan Sharkini portobellolik¹ savdogar topib olib, Muqaddas Kitts qal'asiga olib keldi. Avvaliga qaroqchini Yamaykaga sud qilish uchun yuborishmoqchi bo'lishdi. Ammo bizning marhamatli gubernatorimiz ser Charlz Evan bu haqda eshitishni ham istamadi. «Yo'q, — dedi zoti oliylari, ser Evan, — bu o'lja meniki, demak, uning taqdiri ham mening qo'limda!» Agar ertaga soat o'nlargacha shu yerda qolsangiz, qonxo'r qaroqchining dorga osilishiga shaxsan guvoh bo'lardingiz. Qanchadan-qancha begunohlarning uvoliga qoldi bu mal'un Sharki! — deb gapiga qo'shib qo'ydi zobit jahl bilan.

— Bu juda ma'qul taklifku-ya, — dedi kapitan g'amgin ohangda, — ammo shundoq ham manzilga kech qolayapman. O'zingiz tushunasiz, janob, yo'l olis, shuning uchun bugun kechqurunoq yo'lga chiqmoqchi edim.

— Kechqurun yo'lga chiqmoqchiman, deysizmi? Yo'q, kapitan, buning hech iloji yo'q, — dedi qal'a zobiti qat'iy ohangda. — Muqaddas Kitts gubernatori sizning kemangizda Londonga jo'nab ketishi kerakligidan nahotki xabaringiz bo'lmasa?

— Gubernator, dedingizmi?

— Xuddi shunday, kapitan. Yaqinda u Londonga shoshilinch ravishda yetib kelish haqida hukumatning maxsus buyrug'ini oldi. Buyruqni olib kelgan kema allaqachon Virginiyaga² jo'nab ketgan. Men gubernatorga «Tong Yulduzi» kemasi yomg'ir mavsumi

¹ *Portobello* — Irlandiyaning Dublin grafligi tarkibidagi shahar nomi.

² *Virginiya* — Shimoliy Amerika sharqida joylashgan shahar.



boshlanishidan avval kelishi haqida aytgan edim. Ser Charlz sizdek oliyhimmat kapitanning kemasi kelishini kutib turgandi.

— Shundaylikka shundayku-ya! — shosha-pisha ilova qildi kapitan tashvishlanib. — Men oddiy bir dengizchi bo'lsam, gubernator va baronet¹ kabi oliy rutbadagi aslzodalarga teng kelishga menga yo'l bo'lsin. Shu desangiz, ularni hayotimda hatto bir marotaba ham ko'rmaganman. Biroq shunday bo'lsa-da, men Buyuk Britaniya qiroli Georg on hazratlarining sodiq fuqarosiman. Basharti muhtaram janobi oliylari «Tong Yulduzi» kemasida Londonga jo'nab ketishni ixtiyor etgan ekanlar, bosh ustiga. Men ul zoti oliyga hatto o'zimning shaxsiy kayutamni ham bo'shatib berishga tayyorman. Gubernator janoblari marhamat qilsinlar! Ovqat masalasiga kelganda shuni aytishim kerakki, biz, odatda, qiyma go'sht, sabzavot dimlangan ovqatlarni xush ko'ramiz. Basharti oliymaqom zotga bizning ovqatimiz yoqmasa, unda kemaga o'z oshpazlarini olib chiqishlari mumkin.

— Xijolat tortmang, kapitan Skarrou, — deya javob berdi zobit. — To'g'risini aytsam, hozir ser Charlzning sal tobi yo'g'roq, shu sababli, xoynahoy, u safar davomida kayutadan chiqmasa ham kerak. Doktor Laruss gubernatorning umri oz qoldi, degan edi, chunki u surunkali bezgak kasaliga chalingan.

Ammo gubernatorimiz Sharkining qo'lga tushgani daragini eshitiboq, kasalini ham unutib yubordi. Shu desangiz, hozir ser Charlz soppa-sog'. O! Nimasini aytasiz, kapitan Skarrou, gubernatorimiz aql-zakovat va xulq-atvor bobida bequsurdir. Lekin aytib qo'yay, u juda kamgap, behuda gaplarni jini suymaydi. Shuning uchun tag'in undan xafa bo'lib yurmang.

— Mayli, ser Charlz nimani xohlasa shuni qilsin. Uning ta'biga qarab ish tutamiz, albatta. Faqat o'z vazifamni ado etishimga xalal bermasa bas. Zoti oliylari Muqaddas Kitts orolining gubernatori

¹ *Baronet* — Angliyada aslzodalarga beriladigan unvon va shu unvondagi kishi.

bo'lsa, men — «Tong Yulduzi» kemasining gubernatoriman. Muhtaram ser Charlz Evanning ijozati ila men bugun oqshom yo'lga chiqsam, degandim. Axir gubernatorning qirol on hazratlari Georg oldida o'z burchi bo'lganidek, qolaversa, mening ham gubernator oldida mas'uliyatli vazifam bor, shunday emasmi?

— Gaplaringizga qo'shilaman-u, biroq gubernatorimiz oqshomgacha safarga tayyor bo'la olmasalar kerak, chunki davlat xizmati yuzasidan qiladigan talaygina yumushlari bor.

— Nima ham derdim, mayli, unda ertalab tong-saharda jo'nay qolamiz.

— Juda soz, unda kelishdik. Gubernatorning shaxsiy yuklarini bugun kechqurun yuboraman, o'zi esa ertaga ertalab keladi, agarda men uni shunga ko'ndira olsam, albatta. Chunki ser Charlz qaroqchi Sharkini qatl etilishida shaxsan ishtirok etish istagini bildirgandi. O'ylashimcha, janobi oliylarini siz bilan saharda birga yo'lga tushishga ko'ndira olsam kerak. Negaki gubernator buyuk qirollikning zudlik bilan yetib kelish haqidagi buyrug'iga albatta itoat etishi va shoshilinch ravishda yo'lga tushishi lozim. Ehtimol doktor Larussni ham o'zi bilan birga olib ketsa kerak.

Bojxona zobiti kemani tark etgach, kapitan va shturman oliy mansabli zotning kelishiga hozirlik ko'ra boshlashdi. U uchun eng qulay va keng kayuta yaxshilab tozalanib, tartibga keltirildi. Muqaddas Kittsga odam yuborilib, eng totli mevalar va oliy navli o'tkir musallaslardan ham keltirib qo'yildi.

Kechqurun kemaga gubernatorning shaxsiy anjomlaridan iborat bo'lgan yuklarni olib kelishdi. Matroslar kemaga mis bilan qoplangan katta-katta sandiqlar, rasmiy hujjatlar va uchburchakli shlyapa va shpaga solingan bir necha qutilarni olib chiqishdi. Shundan so'ng Skarrouning qo'liga maxsus maktub tutqazildi. Xatjildga oliy zotning oltin tusli shaxsiy gerbi tushirilgan bo'lib, katta muhr bilan tamg'alangandi. Ser Charlz o'z xatida «Tong Yulduzi» kapitani Skarrouni duoyi salom





ila shaxsan qutlab, unga ertaga tong-saharda kemada bo'lishini ma'lum qilgandi.

Gubernator haqiqatan so'zida turdi. U o'tirgan qayiq tong g'irashirasidayoq, ya'ni quyoshning qirmizi rang nurlari ufqda endi-endi ko'rinay deb turgan mahalda, kema yoniga kelib bo'lgandi. Gubernator Charlz Evan kemandagi arqonli narvoniga chaqqon tirmashib, palubaga bemalol chiqib oldi.

Kapitan avvallari ham gubernatorni qiziq tabiatli zot deb eshitgan edi-ku, ammo u shu darajadagi g'alati odamni ko'raman, deb hech kutmagandi. Ser Charlz Evan qo'lidagi yo'g'on bambuk yog'ochidan qilingan hassaga tayanib, sal oqsoqlangancha kema sahnini bo'ylab yura boshladi.

Uning boshida eskicha parik¹ bo'lib, uzun jingalak sochlari yuzining tepa qismini berkitib turardi. Ko'ziga ko'k tusdagi katta ko'zoynak taqib olgan gubernatorning burni ingichka va uzun, yuzida go'yo g'alati bir vahshiylik alomati bordek ko'rinardi. Ser Charlz Evan haligacha to'liq sog'ayib ketmaganligi uchun tomog'ini qalin sharf bilan o'rab olgan va kiyimining ustidan ipak kimxobdan tikilgan kamzul kiyib, beliga chilvir bog'lagandi. Kema sahnida gubernator gerdayib ketaturib, burnini tepaga ko'targancha, xira ko'zlari bilan atrofidagi odamlarni ko'rishga harakat qilardi.

U yurib ketayotgan joyida taqqa to'xtab, jahldor ohangda baqirgancha, kapitanni chaqirdi. Kapitan yugurib kelib, uning qarshisida g'oz turdi.

- Siz mening anjomlarimni qabul qilib oldingizmi?
- Xuddi shunday, shavkatli ser Charlz.
- Sizlarda musallas bormi?
- Besh yashik keltirib qo'yganman, ser.
- Tamaki-chi?

¹ Parik — Yevropada oliy zotlar kiyib yurishi udum bo'lgan uzun yasama soch.



— Tolaligidan bor, juda o'tkir, naq Trinidadning¹ o'zidan keltirilgan.
— Piket² o'yiniga qalaysiz?
— Qarta o'yinida chakki emasman, ser.
— Unday bo'lsa, langarni ko'taring, jo'nadik. Xudo bizga yor bo'lsin!

Ko'z ilg'amas moviy dengiz uzra musaffo g'arb shamoli esa boshladi va ertalabki quyuq tuman ichidan asta quyosh ko'rindi. Tong shafag'i ufqni olovrang tusga bo'yay boshlagan hamono kapitan vaqtni zoye ketkazmay, yelkanlarni ko'tarishga buyruq berdi.

Qartayib, kuch-quvvatdan qolgan gubernator bir qo'li bilan kema chetiga tortilgan sim arqonni ushlagancha oqsoqlanib yurishda davom etdi.

— Endi kapitan, biling-ki, siz davlat xizmatidasiz, — dedi u bo'g'iq ovozda Skarrouga murojaat qilarkan. — Qirol hukumati meni azim Londonda intiqlik bilan kutayapti, bilsangiz agar. Shamol bizni boshqa yo'nalishga olib ketmasligi uchun kemandi bari yelkanlarini ko'tarishni buyurganmidingiz?

— Xuddi shunday, barcha yelkanlar ko'tarilgan. Xavotir bo'lmang, shavkatli ser.

— Unda juda soz. Faqat meni ma'zur tutgaysiz, tobora ko'zdan qolib borayotgan va kasalmand kekxa odam bo'lganim bois men bilan ham-suhbat bo'lishingiz sizga zavq bag'ishlay olmasligidan ming afsusdaman.

— Aslo unday demang, janob oliylari. Sizdek ulug' zotning muborak huzurida bo'lishni o'zim uchun yuksak sharaf deb bilgayman. Ko'zingiz og'riyotganidan benihoya afsusdaman, so'rasangiz.

— Ha, ha! Buning hammasiga mana shu jin urgur ko'zni qamashtiradigan la'nati janub quyoshi va Basseterning oq g'ishtin ko'chalari sababchi.

¹ *Trinidad* — Karib dengizi havzasiga kiruvchi orol, hozirgi Venesuelaning shimoli-sharqiy tomonida joylashgan.

² *Piket* — XVIII asrda Yevropada mashhur bo'lgan qarta o'yinining nomi.



— Eshitishimcha, surunkali bezgak sizni juda qiynab yuborgan ekan-a?

— Ha, to'g'ri eshitibsiz. Shu bezgak oxiri boshimga yetmasa go'rga edi, jin ursin uni.

— Sizning shifokoringiz uchun ham alohida bir shinam kayuta ajratib qo'yganmiz.

— Yaxshi qilibsiz-ku, ammo bu mug'ombir men bilan birga ketmasa kerak, deb o'ylaman. Sababi, shifokorim badavlat savdogarlarni davolab, hamyonini mo'may pul bilan to'ldirishga odatlanib qolgan. Shuning uchun ham turli bahonalarni vaj qilib ko'rsatib, siz bilan birga keta olmayman, deb oyog'ini tirab oldi, bu dog'uli.

To'satdan gubernator uzuk to'la barmoqli qo'lini boshi uzra baland ko'tardi. Shu chog'da sohildan otilgan zambarak o'qining bo'g'iq ovozi eshitildi.

Kapitan hayron bo'ldi:

— Qal'adan kelgan zambarak ovozi, mabodo, kemamizning orqaga qaytishiga ishora emasmikan?

Gubernator kulib qo'ydi:

— Bugun ertalab qaroqchi Sharkini dorga osishlari kerak edi, nahotki eshitmagan bo'lsangiz? Men qal'adagi yordamchimga o'sha yaramas dorga tortilganda zambarakdan o'q otib menga xabar berishlarini buyurgandim. Mana, nihoyat Sharki o'z ajalini topdi, undan qutildik.

— Qonxo'r Sharkidan qutilganimiz rost bo'lsin! — dedi kapitan gubernatorga qo'shilib.

Hamma o'zida yo'q xursand edi. Kema sahnida to'p-to'p bo'lib turib olib, sekin-asta ortda qolayotgan qizg'ish tusdagi orolga tikilib turgan matroslar ham kapitanga qo'shilib, «Yaramas Sharki o'ldi!» deb baralla ovoz bilan qiyqirdilar.

Ob-havo ham safarga chiqqanlarga baxtli alomat namoyon qilayotgandek edi. «Tong Yulduzi» kemasi hamroh shamol ko'magida g'arbiy ummon uzra suza boshladi. Kasalmand gubernator kemadagilarga

yoqib qoldi. Dengizchilar yovuz Sharkidan xalos bo'lganliklari uchun undan cheksiz minnatdor edilar. Basharti gubernator Sharkini shaxsan jazolashda qat'iylik qilmaganida edi, bu xudobezorini Yamaykaga jo'natib yuborishgan va u sudya hamda politsiyani sotib olib, u yerdan allaqachon juftakni rostlagan bo'lar edi.



Tushlik vaqtida gubernator qatl etilgan Jon Sharki haqida juda ko'p ichakuzdi latifalar aytib, atrofida o'tirganlarni rosa kuldirdi. Qariya o'ta xushmuomala va seriltifot odam bo'lib chiqdi. Nima bo'lganda ham u o'zining yuksak mavqeyiga qaramay, oddiy dengizchilar bilan tez til topisha oldi. Kapitan va shturman gubernatorning muomalasidan bag'oyat mamnun edilar. Ular Charlz Evanning qoshida o'zlarini juda erkin, ya'ni oliy mansabdor shaxs bilan emas, go'yo qadrdon oshnasi bilan suhbatlashib o'tirganday his qilardilar.

— Bu Sharki degan betavfiq o'zini sudda qanday tutdi? — deb so'radi kapitan.

— Asti so'ramang, nima bo'lganda ham sudda u o'zini yo'qotmay dadil tuta bildi. Jon Sharki — basavlat, kelishgan erkak.

— Uning nimasi basavlat ekan? Eshitishimga qaraganda, u turqi xunukdan-xunuk, tishi so'yloq bir tasqara ekan, — deya gapga qo'shildi shturman.

— Ha, gohida u juda xunuk bo'lib ketardi, — deya bosh silkidi keksa gubernator.

— Bir kun Nyu-Bedfordlik kit ovlovchisi menga Sharki haqida gapirib bera turib, uning allaqanday yirtqichning qarashini eslatuvchi nigohini bir marotaba ko'riboq umrbod eslab qolganini aytgan edi. Uning gapiga qaraganda, o'sha qaroqchining ko'zlari och moviy tusda, ko'z kosasi qizil va qat-qat taxli ekan-a? Shu gap rostmi, ser Charlz? — so'radi shturman.

— Ming afsuslar bo'lsinki, ko'zlarim shu darajada ojizki, begona odamning ko'zlari qanaqaligini umuman ko'ra olmayman. Ammo shu narsa esimdaki, bosh adyutantim ham menga qaroqchining ko'zlarini



xuddi siz ta'riflaganday tasvirlab bergandi. Shu bilan birga adyutantimning aytishiga ko'ra, sudlanuvchi sud majlisida ishtirok etgan kaltafahm maslahatchilarga har xo'mrayib qaraganda bechoralar qo'rqqanlaridan dovdirab, o'zlarini yo'qotib qo'yishgan ekan. Sud maslahatchilari Sharki o'lganini eshitib, xursand bo'lganidan jonliq so'ysalar ham kam. Ammo shuni ham aytishim lozimki, Jon Sharkini xafa qilgan birorta ham inson zoti haligacha intiqomdan qochib qutilgan emas. Agar u tirik qolganda va sud maslahatchilaridan birortasi uning qo'liga tushganda bormi, bilasizmi o'sha odamni nima qilgan bo'lardi? Albatta terisiga somon tiqqan bo'lardi, bilsangiz agar.

Gubernator shu gaplarni aytib, bexosdan qah-qah otib kuldi. Uning kulgisi ingichka, xuddi otning kishnashiga o'xshash quloqni teshgudek kuchli edi. Dengizchilar ham unga qo'shilishib xandon tashlab kulishdi. Shu onda ularning ko'zlari mubham bir nuqtaga tikildi va xayollaridan «Jon Sharki g'arbiy dengizlarda izg'ib yurgan yagona qaroqchi emas va agar u tirik bo'lganida sud maslahatchilarini qanday shafqatsiz jazo kutayotgan bo'lsa, xuddi shunday dahshat bizning ham boshimizga tushishi mumkin», degan fikr o'tdi.

Safarning birinchi kuniyoq gubernatorning kayutasida mayxo'rlik avjiga chiqdi. Bir shisha musallas tugatilib, ikkinchisi ochildi, so'ng gubernator hisobga to'g'ri bo'lsin, deb uchinchi shishani ochtirdi. Shundan keyingina kapitan o'z vazifasini ado etish uchun turib ketdi, shturman esa kayutasiga zo'rg'a gandarab kirib olib, o'zini to'shakka tashladi.

Chamasi to'rt soatdan keyin shturman yana kayutaga qaytib kelib, hayratdan anqayib qoldi. Chunki gubernator yana uch shisha musallasni ko'rdim demay, tagigacha bo'shatib, shirakayf holda trubkasini buruqsatib o'tirgandi.

«E.., yaxshiyam Muqaddas Kitts gubernatori bilan birga u betobligi paytida sharobxo'rlik qilibmiz, — deb o'yladi ichida shturman. Xudo asrasin, sog' bo'lganida u bilan ulfat bo'lib qolsak bormi, bo'ladiganimiz bo'larkan».

«Tong Yulduzi» kemasining safari ko'ngildagidek bexavotir davom etdi va uch haftadan so'ng kema Britaniya kanali etagiga yetib keldi. Kasalmand gubernator safarning birinchi kuniyoq sog'aya boshlagan va kuchga to'lib, jonlanib ketgandi. Ya'ni, bir so'z bilan aytganda, inson salomatligiga ichkilikning shifobaxsh ta'siri bor, deb ta'kidlovchilar aynan gubernatorni misol qilib ko'rsatishlari mumkin edi. Chunki ser Charlz safarning birinchi kuni qanday sharobxo'rlik qilgan bo'lsa, qolgan uch hafta davomida xuddi shuncha ichib, kayf-safo qilgandi. Ammo ko'p ichganiga qaramay, u doim barvaqt turar va quyoshning ilk nurlari taralishi bilan oq kema sahniga chiqib, matroslar bilan gurunglashib turgan bo'lardi. Suhbat chog'ida u kemani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarga nihoyatda qiziqardi. Gubernatorning ko'zi xira bo'lmaganida edi, kema chambaragini boshqarishda unga hech kim bas kela olmagan bo'lardi. Ammo bu o'ng'aysizlik ham bartaraf etildi, kapitanning shaxsiy buyrug'iga ko'ra, dengizdan majolsiz bir ahvolda qutqarib qolingani yangi angliyalik matros Xayrem Evanson hurmatli gubernatorga yordamchi qilib qo'yildi. Bu kelishgan va baquvvat dengizchi ser Charlzni kema palubasida yetaklab olib yurar va qarta o'yini mahallarida doim uning yonida o'tirardi. Negaki birovning yordamisiz gubernator yutug'ini sanay olmas yoki qartadagi zotlarni bir-biridan ajrata olmasdi.

Evanson deganlari gubernatorga bajonidil xizmat qilardi. Bu esa o'z-o'zidan juda tabiiy edi. Sababi, Evanson yaramas Sharkidan ming azob tortgan, u tufayli ochiq dengizda yakka o'zi qolib, o'lay deganda, «Tong Yulduzi» kemasi tasodifan duch kelib tirik qolgan bo'lsa, gubernator bu vahshiy qaroqchini dorga torttirgandi. Amerikalik matros gubernatorga ming iltifot ko'rsatib, kunduzlari kemada unga hamroh bo'lib yurdi, kechalari bo'ladigan qimor o'yinlarida esa uning orqasidagi stulga o'tirib olib, xaloskoriga qo'shimcha qarta olishga bajonidil ko'maklashib turdi.





Gubernator qarta o'yinida deyarli har safar yutardi va «Tong Yul-duzi» kemasi Angliya qirg'oqlariga yaqinlashay deb qolganida kapitan va shturmanning hamyoni deyarli bo'sh bo'lardi.

Ko'p o'tmay dengizchilar ser Charlz Evanning fe'li odamning nafратini qo'zg'aydigan darajada xunuk ekanini tushunib qolishdi. Gap qaytarganlarni uning mutlaqo jini suymasdi. Salgina ters gapni sezsa bormi, darrov jazavaga tushib, bambukdan yasalgan hassasini ko'tarib, kurakda turmaydigan so'zlar bilan so'kinishga tushardi. Bir kun duradgor kerna sahnida ketaturib bilmasdan uni sal turtib yubordi. Gubernator buni haqoratday qabul qilib, sho'rlikni hassasi bilan chunonam savaladiki, uni zo'rg'a ajratib olishdi.

Undan tashqari yana bir voqea yuz berdi: dengizchilar ovqat kam berilayotganidan norozi bo'lib, janjal ko'tarishdi. Kapitan Skarrou «tag'in arzimas mojaro isyonga aylanib ketmasmikan», deya xavotirga tusha boshladi. Bu mashmashadan xabar topgan gubernatorning qoni qaynab, «bu itlar bilan adi-badi aytishib o'tirmay, o'lasi qilib kaltaklab, popugini pasaytirib qo'yish kerak», — deb do'q ura ketdi.

— Menga xanjar bilan to'qmoq bering, — deb baqirdi u, — bu g'alamislar to'daboshisini bir zumda narigi dunyoga ravona qilaman!

Kapitan Skarrou gubernatorni bu shaxtidan zo'r-bazo'r qaytara oldi. U qariya Charlzga dengizda sodir etilgan qotillik quruqlikdagiga qaraganda o'ta qattiqqo'llik bilan jazolanishini eslatgandan keyingina u sal hovuridan tushganday bo'ldi.

Gubernator siyosat sohasida ham birkesar odam edi. U Buyuk Britaniyaning sobiq qiroli Vilgelm sulolasi vakillarining sha'niga yomon so'z aytgan har qanday kimsani o'z qo'li bilan shartta otib tashlashga ham tayyor edi.

Ammo ser Charlz Evan nechog'lik qiziqqon va jahldor bo'lmasin, baribir o'ta dilkash odam edi. U gapga chechan va turli mavzularda suhbatlasha olish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan birga bir dunyo ichakuzar



latifalarni ham bilardi. Skarrou va Morgan umrida biron martaba ham vaqtini bu qadar ko'ngilli o'tkazmagan edilar.



Nihoyat safarning so'nggi kuni ham yetib keldi. «Tong Yulduzi» kemasi Angliyaning janubiy qirg'og'idagi Bichi-Xed yaqinida langar tashlaganda kun oxirlab, qosh qoraygandi. Kema Vinchelsdan bir necha mil narida sokin dengizda asta chayqalar, uzoqda esa Donjenes portining sharpasi elas-elas ko'rinib turardi. Ertasiga ertalab Forland-gacha suzib borish uchun yo'l boshlovchi — shturman olinishi, kech-qurun esa ser Charlz Londonning qoq o'rtasida joylashgan Vestminster saroyida¹ qirol vazirlari qabulida hozir bo'lishi kerak edi. Kemada botsman soqchilik qilayotgan, uch og'aynilar esa kayutada so'nggi bor qarta o'ynash uchun yig'ilishgandi. Har galgidek amerikalik matros gubernatorning kursisi orqasida turib, uning xizmatida hozir-u nozir edi. Stol ustida bir uyum pul yotgandi, chunki dengizchilar oxirgi marotaba o'z omadlarini sinab, yutqizig'ini qaytarib olish ilinjida «Ol, qo'lim!» deya o'yinga hamma pullarini tikishgandi. Gubernator birdan qo'lidagi qartalarni irg'itib yuborib, hech narsadan hech narsa yo'q, stol ustidagi bir uyum pulni etagi uzun kamzulining cho'ntagiga solib oldi.

— O'yinni men yutdim! — dedi u kerilgancha qoshini chimirib.

— Shoshmang, og'irroq bo'ling, ser Charlz, o'yin tugaganicha yo'q! — deb xitob qildi Skarrou. — Biz yutqazganimiz yo'q, o'yin hali oldinda.

— Ovozingizni o'chiring, g'irromlik qilmang! — dedi gubernator.

— Men o'yinni boy berdingiz dedimmi, bas.

Shunday dedi-yu boshidagi parigi va ko'zoynagini shartta olib tashladi.

Dengizchilar ro'parasida burni qayroqday ingichka va uzun, boshi kal, qarashi yeb yuborguday, moviy ko'zli va ko'z kosasi iskovuch

¹ Vestminster saroyi — Buyuk Britaniya parlamentining majlislar saroyi.



itnikidek qizil odam paydo bo'ldi. Qimor stoli atrofida o'tirganlar ko'zining paxtasi chiqib ketdi.

— Jin ursin, axir bu Sharki-ku! — deb baqirib yubordi shturman.

Dengizchilar o'tirgan joylaridan irg'ib turishdi, ammo daroz bo'yli amerikalik matros chaqqonlik bilan yonidan ikkita to'pponchasini chiqarib, ularni kapitan va shturmanga qarata o'qtaldi. Soxta gubernator ham to'pponchasini chiqarib, stol ustida yoyilib yotgan qartalar ustiga qo'ydi-da, ot kishnashiga o'xshash quloqni teshgudek darajada qah-qah urdi.

— Jentlmenlar, qarshingizda turgan kapitan Jon Sharkining shaxsan o'zi, — deb hayqirdi u. — Yonimdagi esa, e'tiboringiz uchun, «Baqiroq» laqabli Ned Gallovei — «Omadli Xaloskor» kemasining kvartirmeysteri¹. Biz kemadagi birtalay ablalar bilan janjallashib qoldik, tagi pastlar bizni kemadan quvib yuborishdi. Meni qirg'oqda qoldirib, Nedni eshkaksiz qayiqqa o'tqazib, ochiq dengizga tashlab ketishdi. Bilib qo'ylaring, hammang jirkanch, pastkash va yuragi yo'q ko'ppak itsanlar! Axiyri qo'limga tushdilaring-ku!

— Bizni otib tashlashing mumkin! — deb o'shqirdi Skarro, ko'ksi-ga mushti bilan urarkan. Mayli jonimni olsang ol, ammo senga rostini aytaman, bilib qo'y, Sharki, sen qonxo'r qotilsan, jahannamda yonmasang, rozi emasman.

Qaroqchilar sardori qo'llarini bir-biriga ishqab, dedi:

— E, ha, bu juda dovyurak odam ekan-ku! Xuddi menga o'xshar ekan! Uning jon berishini bajonidil tomosha qilgan bo'lardim. Mayli, u sal damini ola tursin. Ayt-chi, Ned, katta qayiq jo'nab ketishimiz uchun tayyormi?

— Xuddi shunday, kapitanim.

— Kemadagi qayiqning tagini parmalab qo'ydingmi?

— Har bir qayiqda uchmadan teshik ochildi.

¹ *Kvartirmeyster* — kemada tartib-intizom va oziq-ovqat ta'minotiga javob beruvchi odam.

— Unday bo'lsa, biz kemangizni tark etishimiz lozim, kapitan Skarrou. Avzoying g'alati-ya, haligacha xushingga kelmaganga o'xshaysan. Menga biror-bir iltimosing yo'qmidi?

— Sen iblissan! — deb baqirdi kapitan. — Muqaddas Kitts gubernatorining o'zi qayerda?

— Men sen aytgan janobi oliyni so'nggi bor ko'rganimda, u o'z to'shagida bo'g'izlangan holda yotgan edi. Qamoqdan qochib, do'stlarimdan gubernator Yevropaga jo'nab ketishini va uni olib ketmoqchi bo'lgan kema kapitani to'nka qariyaning betini hatto bir marotaba bo'lsa ham ko'rmaganligini bilib oldim. Shundan so'ng boloxona orqali janob gubernatorning yotoqxonasiga kirib, arzimagan qarzimni to'lab, orani ochiq qildim. So'ng uning shaxsiy anjomlari, ko'zimni yashirish uchun bir juft ko'zoynagini oldim-da, huzuringga kelaverdim. Ko'rib turganingdek, gubernator rolini qoyilmaqom qilib o'ynadim... Xo'sh, qalay!? Ana endi, Ned, manavi go'rso'xtalarni gumdon qilish vaqti keldi.

— Yordam bering! Yordam! Soqchi, bu yoqqa kel! — deya ovozi boricha baqira boshladi shturman.

Sharki unga to'pponchasini o'qtalib, tepkini bosdi: gumbirlab o'q otildi, soniya o'tmay shturman gursillab chalqanchasiga yerga yiqildi.

Skarrou o'zini eshikka qarab urdi, ammo Ned Gallovey o'ljasiga hamla qilgan yirtqichdek bir qo'li bilan uning yelkasidan ushlab qoldi va ikkinchisi bilan og'zini mahkam yopdi.

— Behudaga, to'g'risi, behudaga urinayapsan, Skarrou, — dedi Sharki xotirjamlik bilan. — Ming chiranma, foyda yo'q. Joningdan umiding bo'lsa, tiz cho'kib, mendan shafqat so'raganing ma'qul.

— Jin ursin seni! — deb baqirdi Skarrou, Nedning qo'lidan chiqib ketishga harakat qilib.

— Qani, uning qo'lini qayir-chi, Ned. Xo'sh, endi tiz cho'kasanmi?





— Hech qachon, qo'limni sug'urib olib tashlasang ham, sen itga yalinmayman.

— Endi xanjarni biqiniga bir dyuym¹ tiqib boq-chi.

— Menga desa olti dyuym tiqmaysanmi? Baribir shafqat so'ramayman, muruvvatingga zor emasman.

Sharkining ingichka lablarida zaharli istehzo paydo bo'ldi:

— Jin ursin, yolg'on gapirsam dengizga cho'kib o'lay, u menga yoqayapti! — deya xitob qildi u. — Qaysarliging boshingga yetmasa go'rga edi. Ned, mayli, xanjaringni qiniga tiqib qo'y. Joningni qutqarib qolding, kapitan Skarrou, quvonaver. Ammo to'g'risini aytsam, jasur inson bo'la turib, mening yo'limni tutmaganingga achinaman. Bizning zamonimizda vijdonli odamlar faqat qaroqchilik bilangina shug'ullanishlari mumkin, xolos. Men senga aytsam, Skarrou, chamasi, oddiy o'lim topish taqdiringga yozilmagan ko'rinadi. Qo'linga tushib ham tirik qolding, bunda o'ziga yarasha hikmat bor, bilsang. Ned, qani, kapitanning qo'l-oyog'ini bog'la-chi.

— Keyin uni o'choqqa tashlaymi?

— Ey, Ned, axmoqona hazillaringni yig'ishtir. Nima deb valdirayapsan, galvars, ko'rmayapsanmi, o'choqda o't yonib turibdi. Betgachoparlikni bas qil, yoki jilovingni tortib qo'yaymi? Shu gapimni qulog'ingga quyib ol, agar yana bir marotaba tilingga erk bergudek bo'lsang bormi, bilib qo'y, darhol ikkimizdan qay birimiz kapitan-u qay birimiz kvartirmeyster ekanini esingga solib qo'yaman. Uni mahkam bog'lab, stol ustiga yotqiz, deyapman.

— Afsus, men uni olovda kabob qilmoqchisiz, deb o'ylabman, — javob berdi Ned. — Nima, siz rostdan ham uni tirik qoldirmoqchimisiz?

— Ned, tilim bor deb valdirayverma! Ikki qulog'ing bilan eshitib ol, agar ikkimizni kemadan birga quvib yuborishgan bo'lsa, bu endi men bilan istagan tarzda gaplashishing mumkin, degani emas. Shu

¹ Dyuym — 2.5 sm.

qadar ablahsanki, hech naryog'i yo'q. Menga so'zsiz itoat etishing kerak, bo'lmasa, ko'radiganingni ko'rasan. Agar kallang og'irlik qilayotgan bo'lsa, unda ayt!

— Qo'ysangiz-chi, kapitan Sharki, jahlingiz chiqmasin, — deya Ned Skarrouni yosh boladek qo'lida ko'tarib, stol ustiga yotqizib qo'ydi.

Chaqqonlik bilan uning oyoq-qo'lini bog'lab, og'ziga shu choqqacha Muqaddas Kitts gubernatorining bo'ynini bezab kelgan sharfni tiqib qo'ydi.

— Xo'sh, kapitan Skarrou, mana endi xayrlashish vaqti ham keldi. Basharti yonimda dovyurak shovvozlarimdan hech bo'lmaganda yana besh-oltitasi bo'lganda bormidi, kemang bor-budi bilan meniki bo'lardi. Ammo, afsuski, «Bo'kiroq» Ned kemangdagi qalang'i-qasang'ilar ichidan men tomonga yollash uchun arzigulik birorta matrosni topa olmadi. Yaqin atrofda bir necha baliqchilar kemasi suzib yuribdi, ulardan birini qo'lga kiritamiz. Shuni bilki, kapitan, Sharki uchun birgina qayiq bo'lsa bas, u bermalol baliqchilar kemasini qo'lga ola oladi, baliqchilar kemasi bo'lsa, u brigni¹ egallaydi, brigi bo'lgan Sharki albatta barkani², barka bilan esa zambarak bilan jihozlangan haybatli kemani ham qo'lga kiritadi. Kapitan, vaqtni boy bermay Londonga shoshil, aks holda qaytib kelib, «Tong Yulduzi»ni zo'rlik bilan tortib olishim mumkin. Bilib qo'y, Jon Sharki lafzida turadiganlardan.

Qaroqchilar chiqib ketgach, Kapitan Skarrou kayuta eshigi zulfining ilgagi qadalgani va sal vaqtdan keyin palubada ularning oyoq tovushlarini eshitib turdi. Sharki va Ned kemanding quyruq qismiga kelib, qayiqlardan birini suvga tushira boshlashdi. Skarrou arqondan bo'shalishga jon-jahdi bilan urindi.

Qayiq suvga shaloplab tushgani eshitildi. U yanada jig'ibiyron bo'lib arqonni yechishga harakat qildi. Nihoyat u arqonni tishi bilan g'ajib tashladi va stol ustidan shturmanning jasadi yoniga gursillab

¹ Brig — ikki machtali dengiz kemasi.

² Barka — yuk tashiydigan katta dengiz kemasi.





yiqli. U o'rnidan irg'ib tura solib, eshikni bir tepib ochdi va yugurgancha kema sahniga chiqdi.

— Hamma yonimga kelsin! Peterson, Ermitaj, Vilson, yonimga kelinglar! O'zingiz bilan xanjar va mushketlarni¹ olinglar! Kema qayiqlarini suvga tushirilsin! Huv anavi qayiqni ko'rayapsizlarmi? Unda qaroqchi Sharki suzib ketayapti! Hamma qayiq'larga o'tirsin! Qanday bo'lmasin, gazandani qo'lga olishimiz kerak.


Qayiqlar suvga tushirilishi bilanoq cho'ka boshladi.

— Qayiqlarimizni kimdir parmalab qo'yibdi! — deb qichqirishdi matroslar.

Kapitan jahl bilan qattiq so'kindi. U mutlaq mag'lub bo'lgandi... Musaffo osmonda yulduzlar charaqlab turar, qilt etgan shamol yo'q edi. Oy yorug'ida kema yelkanlari hilpirab turgani bilinar-bilinmas ko'rinardi.


— Anavi sho'rlik baliqchilarning kuni bitdi! — dedi Skarrou. — Yigitlar, kuchingiz boricha qichqiring! Nima qilib bo'lsa ham ularni xavfdan ogoh qilishimiz kerak.

Ammo kech bo'lgandi. Aynan shu daqiqalarda Sharki o'tirgan qayiq baliqchilar kemasi yoniga yetib kelib bo'lgandi. Ikki marotaba to'pponchadan otilgan o'q ovozi eshitildi, yana o'q otildi... Shundan so'ng kemaga sukunat cho'kdi. Birdan sohildan shamol esa boshladi va baliqchilar kemasining yelkanlariga havo to'lib, u asta Atlantika ummoni sari suza ketdi.



¹ *Mushket* — qadimiy pilta miltiq.





IKKINCHI QISM

Hiylakor qaroqchi Jon Sharkiga qo'yilgan tuzoq

Dengizchilik — ham sertashvish, ham xavfli xizmat. Uddaburro va tulkiday ayyor dengiz yo'lto'sarlari, qancha qiyin bo'lmasin, kemalarini vaqti-vaqti bilan ta'mirlab turishardi. Agar shunday qilishmasa, qaroqchilar savdo kemalarini bemalol quvib yetishi, yo bo'lmasa harbiy kemaga chap berib, undan qochib qutila olishi mumkin emasdi. Qora bayroq ostidagi kema dahshatli to'fon-u dovul demay, poyonsiz ummon uzra misoli albatrosday¹ parvoz qilib suzishi uchun uning ostki qismiga yopishib qolgan tropik dengizining chig'anoqlaridan obdan tozalab turilardi.

¹ Albatros — tumshug'i uzun katta dengiz bo'ronqushi.



Buning uchun avval kemanding yuklari tushirib qo'yilib, odam oyog'i yetmagan sayoz ko'rfazga olib kelinar va machtasiga arqon bog'lab, yonboshiga tortib yotqizib qo'yilardi. Ammo bu tadbirning o'ta qaltis bir jihati ham bor edi. O'z-o'zidan ma'lumki, ta'mirlash ishlari bir hafta davom etadigan bo'lgani uchun kema mutlaq himoyasiz holda qolardi. Shu boisdan ham pixini yorgan qaroqchi xalqi bu tadbir uchun sayozroq ko'rfazni tanlardi, toki og'ir zambaraklar bilan jihozlangan harbiy kemalar u yerlarga kira olmasin deyilardi-da. Eng muhimi, kema ta'mirlanadigan joy nihoyatda sir tutilar, zaruriy ehtiyot va himoya choralarini ko'rilardi.

Qaroqchilar darg'asi kemani odam oyog'i yetmagan shunday bir ko'rfazga olib kelar ediki, biror tirik jon bundan xabar topa olmasdi. Gohida kema ta'mirlanayotgan damlarda qaroqchilar unga ko'z-quloq bo'lib turish uchun bir necha poyloqchi qoldirib, kayfi chog'lik qilish uchun yaqin atrofdagi port-shaharlarga hech narsadan tap tortmay kirib kelaverishardi. Kayfi taroq bosqinchilar ayollarga tegajog'lik qilib, o'tgan-ketganga to'pponcha o'q talib, majburan musallas ichirishar, gapga ko'nmaganlarni esa qilichdan o'tkazishdan ham toymasdilar.

Ba'zida «dengiz hukmdorlari» hatto Charlstonga¹ o'xshagan katta-roq shaharlarga ham bostirib kirib kelaverishardi. Ular hatto shunday katta shahar nozirlarini zig'ircha mensimay, ochiqchasiga mazax qilishar, ko'chalarda qilich yalang'ochlab mast-alast holda bermalol yurishar, jiniga yoqmagan odamlarni qilich ko'tarib quvib solishardi.

Lekin shunday bo'lsa-da, qaroqchilarning bu kabi yaramas qiliq va rasvogarchiliklari har doim ham jazosiz qolavermasdi. Masalan, aytishlariga qaraganda, bir gal Maynar ismli leytenant «Qora soqol» laqabli xudobezori qaroqchini qilgan xunrezliklari uchun boshini shartta chopib tashlagan ekan. Maynar hatto, boshqalarga o'mak bo'lsin deb jinoyatchining kallasini o'z kemasining machtasiga qoqib ham qo'ygan

¹ *Charlston* — (ingl. *Charleston*) Shimoliy Amerika qit'asining sharqida joylashgan port-shahar.



deyishadi. Ammo sheryurak leytenant ko'rsatgan yovqurlikni takrorlashga hammaning ham jur'ati yetavermasdi. Aksariyat hollarda, qaroqchilar urish-janjal ko'targan yoki tinch aholining ustidan kulib, ayollarni beayov tahqirlaganlarida zo'ravonlarga hech kim yurak betlab qarshilik qila olmasdi. Qaroqchilar ko'ngliga siqqanicha bezorilik qilib, hech qanday qarshiliksiz yana dengizga qaytib ketishardi.

«Omadli Xaloskor» keması kapitani — yovuzlikda dong taratgan Jon Sharki sohil bo'yidagi shaharlarga mutlaqo kirmaydigan yagona qaroqchi edi. Sababi, ashaddiy qonxo'r Sharki ko'z ko'rib, quloq eshitmagan o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgani uchun ham qonun posbonlari ko'ziga ko'rinishga yuragi dov bermas, muqarrar jazoga uchrab qolishdan iloji boricha o'zini ehtiyotlardi.

Sharki tabiatan odamovi, pismiq va salga tutaqib ketadigan jizzaki nusxa edi. U kemasini ta'mirlab tozalamoqchi bo'lsa, bu ishni, odatda, bosh kvartirmeyster Ned Galloveygaga topshirib, o'zi imi-jimida qayiqqa o'tirib, Karib dengizidagi eng katta orollardan biriga — jannatmakon Espanyolaga jo'nab qolardi. Ba'zilar «xoynahoy, kapitanimiz talonchilikdan topgan boyligini hech kim bilmas xilvat joyga yashirgani ketgan bo'lsa kerak», — deb o'ylardi. Ammo aslida, Sharki orolga yovvoyi buqa ovlagani borardi. Sharki ovlagan buqalar maxsus usulda butunligicha olovda pishirilar, so'ng nimta-nimta qilib bo'linib, «Omadli Xaloskor» kemasiga ortilardi.

Bundan xabar topgan espanyolaliklar qaroqchi Sharki orolga kelgan paytini poylab, qanday qilib bo'lsa ham uni qo'lga olishga jazm qilishdi. Xullas, kunlardan bir kun Kingstonga¹ qaroqchini qo'lga olish uchun nihoyatda qulay imkoniyat borligi to'g'risida xabar kelib qoldi. Bu xabarni Sharkining qo'lga tushib, tasodifan o'lmay qolgan bir o'tinchi mo'ysafid olib keldi. O'shanda Sharki rosa maishat qilib, dimog'i chog' bo'lgani uchun ham uni o'ldirmay, faqat «sal-pal» jazolab, ya'ni avval

¹ Kingston — Qozirgi Yamayka poytaxti.



rosa kaltaklab, so'ng burnini kesib tashlab, keyin qo'yib yuborgan ekan. O'tinchining bergan ma'lumotlari aniq va ishonchli edi. Uning aytishiga ko'ra, «Omadli Xaloskor» kemasi Espanyaning janubi-g'arbiy tomoni-dagi Torbek orolida ta'mirlanayotgan, Sharkining o'zi esa to'rtta sherigi bilan qo'shni orolda ov qilayotgan edi.


Orolliklar qalbida yuzlab begunoh dengizchilarning to'kilgan qoni uchun go'rida to'ng'iz qo'pkur Sharkidan qasos olish hissi nihoyatda kuchli edi va ular har qanday qilib bo'lsa-da, bu qonxo'mi qo'lga olishga ont ichishdi.

Kingston shahri gubernatori — qizil yuzli, burni uzun ser Edvard Kempton zudlik bilan harbiy komendantni maxfiy kengashga chaqirtirdi. Ammo kengash mashvarati hech qanday natija bermadi, sababi shahar amaldorlari qaroqchini qo'lga olish bo'yicha biror arzigulik qaror qabul qilishga ojiz edi. Zero, Kingstonga qo'shni bo'lgan Jemstoun¹ portidagi kemalardan boshqa bu yaqin atrofda birorta ham harbiy kema yo'q edi. Mazkur bandargohda ham bor-yo'g'i bitta kemacha bo'lib, u ham juda eski va toshbaqadek sudralib suza olardi, xolos. Shu kema bilan qaroqchini ochiq dengizda quvib yetish yoki bo'lmasa Torbek ko'rfazida uni pistirmada poylab turish haqida hatto o'ylashning o'zi ham kulgili edi. Jangga yaroqli askarlar ham yo'q hisobi edi. Kingston va Port-Royal qal'asidagi qo'riqchilar faqat to'pchi askarlardan iborat edi, xolos.

Bu kabi o'ta jiddiy hayot-mamot masalalarni hal qilishda shahar ma'muriyati ancha zaif ekani ma'lum bo'lib qoldi. Ammo vaqtni boy bermasdan shahar zodagonlaridan yordam so'rash va qaroqchining qonxo'rliklariga chek qo'yish nihoyatda zarur ekanligini hamma yaxshi tushunardi.

Kingston aholisining deyarli barchasi Sharkidan o'lgudek nafratlanardi. Ammo oddiy fuqaroning qo'lidan nima ham kelardi deysiz? Qaroq-

¹ Jemstoun — Shimoliy Amerikadagi shahar, hozirgi Nyu-York shtatida joylashgan.



chilar ko'pchilik bo'lib, ularning bari o'taketgan yirtqich edi. Sharki va uning to'rt sherigi ov qilayotgan Sigir oroliga to'g'ri bostirib borib, ular qurshab olindi ham, deb faraz qilaylik. Ammo boshdan-oyoq o'rmon bilan qoplangan shunday katta orolda qaroqchilarni topish amrimahol edi.

Xullas, gubernator «qonyutgur Sharkini qo'lga olish bo'yicha kimdakinim jo'yali yo'l ko'rsata olsa, o'sha odamga katta mukofot beriladi», deb va'da qildi. Tez orada shunday odam topildi ham, u qaroqchini tuzoqqa ilintirish rejasini aytibgina qolmay, uni shaxsan o'zi ado etishga ham va'da berdi. Bu shijoatli kishining ismi Stefen Kraddok edi. Janob Kraddok favqulodda irodali shaxs edi. Ammo bir mahallar nimadir sabab bo'lib, u haq yo'ldan toyib ko'p gunoh ishlarga qo'l urgandi. Aytishlariga qaraganda, Kraddok bolaligida haddan tashqari qattiqqo'llik bilan berilgan diniy tarbiyaga nisbatan o'z noroziligini ifoda etish uchungina jinoyat yo'liga kirib ketgan emish. U obro'li oiladan bo'lib, «jodugarlar maskani», deb nom chiqargan Salem shahrida tug'ilib o'sgan edi. Amerika qit'asi sohillarida Stefen Kraddokning dovrug'i ketgan chog'larda u hali juda yosh yigitcha edi. O'sha davrlari



Kraddok seminollar qabilasining sardorini o'ldirgani uchun Virginiya sudi uni o'lim jazosiga hukm qilishi lozim edi. Biroq o'shanda nimadir sabab bo'lib, Kraddok oqlangandi. Oqlov hukmi sudya va guvohlarga berilgan pora evaziga chiqarilganligini hamma bilardi.

Keyinchalik Kraddok qul savdosi bilan ham shug'ullandi va hatto odamlar u haqda «Salemlik jodugarning o'g'li qaroqchilik qilayotgan-mish», degan gap ham tarqatgandi. Qisqasi, bu shaxs haqida doim xunuk gaplar yurardi. Ammo yillar o'tib, u ancha bosildi va Yamaykaga katta mol-dunyo bilan qaytib kelib, bu yerda doimiy qo'nim topdi. Lekin u hanuzgacha oila qurmagandi, yolg'iz o'zi yashagani uchun bo'lsa kerak, yengil-yelpi hayotni nihoyatda xush ko'rardi. Xullas, toshbag'ir, jangari va sobiq jinoyatchi Kraddokning o'tmishi va hozirgi hayoti shulardan iborat edi. Aynan shu Stefen Kraddok deganlari gubernatorga Sharkini mahv etish borasida o'z rejasini taklif etgandi.

Shahar ahlining «Kraddok xulq-atvori butkul o'zgarib, solih odam bo'lgan», degan iliq gap-so'zlariga qaramay, ser Edvard Kempton bunday odamlarga nisbatan «Tirraqi buzoq butun podani buzadi», degan naqlga amal qilgan holda muomala qilish kerakligini yana bir bor ko'rsatib qo'yish maqsadida uni kalondimog'lik bilan qabul qildi.

Gubernator janobi oliylarining birmuncha sovuq va rasmiy ohangdagi munosabatining asl sababini yaxshi tushungan Kraddok unga qarab:

— Mendan qo'rqmang, ser! Tushuning, men ilgari Stefen Kraddok emasman, — dedi. — To'g'ri, ko'p yillar davomida jaholat va gunoh botqog'iga botib yurgan g'ofil banda edim. Endi ko'zim ochildi, tavbanga tayanib, ezgu yo'lni tanladim. Buning uchun men yurtdoshim, tarki dunyo qilgan avliyo ota Jon Simonsdan o'la-o'lgunimcha minnatdorman. Sizga ham o'sha muhtaram zot bilan uchrashishni maslahat bergan bo'lardim. Avliyo otaning ilohiy chehrasidan bahramand bo'lsangiz, ruhan yengil tortasiz.

Gubernator yepiskoplar cherkovi tarafdori bo'lgani tufayli Stefen Kraddokning maslahati uning uchun mazaxdek tuyuldi. Shu bois u

manglayini tirishtirib dedi: — Ammo, menimcha, biz hozir Xudo urgan Sharki haqida gapirishimiz lozim, janob Kraddok.



— Sharki faqat nafratga loyiq maxluq, — keskin javob berdi Kraddok. Uning jabr-jafolaridan avom xalqning sabr kosasi to'lib toshgan. Tokaygacha u hammaga azob beradi, begunohlar qonini to'kadi? Ont ichib aytamanki, o'sha maxluqni yer tishlatmay qo'y-mayman. Agarda uni o'ldira olsam, Tangrining marhamatiga sazovor bo'lishimga shubham yo'q. Zora shunda yoshlikdagi tentakligim-u gunohlarimni Tangrim kechirsa. Parvardigorning o'zi menga qaroqchi Sharkini qanday qilib mahv etish yo'lini ko'rsatib, qasos olish uchun quch-quvvat ato etdi.

Ko'rinishidan qotmadan kelgan, ko'zlari burgutnikidek chaqnab turgan Stefen Kraddok o'z maqsadiga erishishda qat'iyatli ekaniga amin bo'lgan gubernator uning gapidan zavqi oshib: «Tuzgan rejan-giz qanaqa ekan?» deb qiziqib qoldi. Kraddokning cho'tir yuzida aks etib turgan jiddiyat va dadil gaplari u nima ish qilsa ham puxta o'ylab qiladigan abjir odam ekanligidan dalolat berib turardi. Nima bo'lganda ham Stefen Kraddok tajribali dengizchi va shavkatli jangchi edi. Qolaversa, u o'tmishdagi ayblari uchun sidqidildan tavba qilib, yaratganning oldida gunohlarini yuvishni juda-juda istardi. Illo, qonxo'r iblis Sharkini tuzoqqa ilintirish uchun Kraddokdan ma'qulroq odamni topish amrimahol edi.

— Ammo o'zingizga ortiqcha baho beravermang, qaroqchi xalqi g'irt muttaham bo'ladi, janob Kraddok. Sharkini tuzoqqa ilintirish siz o'ylagandek oson emas. Buning uddasidan chiqa olarmikansiz? — dedi gubernator biroz o'ylanib turib.

— Tavakkal, nima bo'lsa, peshonamdan ko'rdim. Hali ham eski gunohlarim bo'yimda sirtmoqdek osilib yuribdi. Mabodo ezgulik yo'li-da jon taslim qilsam, Tangrim mendek osiy bandasini zora kechirsa, deb umid qilaman. Shundoq ham tun-u kun ibodat qilib, Xudodan aybimni kechirishini so'rab, iltijo qilaman. Qalbimdagi ezgu tilaklarim



koshki ijobat bo'lsa, deya miskinlarga xayr-u muruvvat ko'rsatishga intilib kelyapman.

Gubernator Stefen Kraddokni xayrixohlik bilan tinglar ekan, uning so'zlariga hech qanday e'tiroz bildirmadi.

— Xo'sh, ayting-chi, iblis Sharkini qanday qilib qo'lga tushirmoqchisiz? — so'radi gubernator, sinovchan ohangda.

— Siz kapitan Sharkining «Omadli Xaloskor» kemasi dengizga ilk bor Klateron portidan chiqqanligi haqida balki eshitgan bo'lsangiz kerak?

— Albatta, aniq esimda, uning birinchi kapitani janob Kodrington edi. O'sha kemani ablah Sharki qo'lga tushirib, o'ziniki qilib olgandi, — javob berdi ser Edvard.

— Mutlaqo haqsiz, ser! Ammo Kodringtonning «Omadli Xaloskor» kemasiga ikki tomchi suvdek o'xshash «Oq Atirgul» deb nomlangan oq tusdagi yana boshqa bir kemasi ham bo'lganligidan xabaringiz bormi? Xuddi o'sha kema hozirda bizning portimizda turibdi. «Oq Atirgul»ni qora rangga kirita olsak, uni «Omadli Xaloskor» kemasidan mutlaqo ajratib bo'lmaydi.

Gubernator Kraddok nima demoqchi bo'lganini aniq anglay olmasada, o'zini tushungandek ko'rsatib:

— Xo'sh, undan keyin-chi? — deb so'radi.

— Undan keyin nima bo'lishi aniq ko'rinib turibdi, ya'ni «Omadli Xaloskor» kemasiga aylangan kemamizning o'zi qaroqchini qo'limizga tushirib beradi.

— Qanday qilib?

— «Oq Atirgul»ni «Omadli Xaloskor» kemasiga o'xshatib qora tusga bo'yagach, unda Sharki buqa ovlayotgan orolga suzib boraman. Kemani ko'rgan qaroqchilar sardori uni o'z kemasi deb o'ylab, to'g'ri men tayyorlab qo'ygan tuzoqqa tushadi.

— Rejangiz o'ta sodda va jo'n, janob Kraddok. Biroq shunday bo'lsa-da, aminmanki, siz uni muvaffaqiyat bilan amalga oshira

olasiz. Jinoyatchi Sharkining yo tirigini, yo o'ligini olib kelish vazifasini rasman sizga yuklayman, uqdingizmi?! — dedi u jiddiy ohangda.



— Ont ichib aytamanki, maxluq Sharkini yer tishlatmay qaytmayman, — javob berdi Stefen Kraddok, qaddini g'oz tutib.

Garchi Kraddok o'z jasorati bilan qanchalik dovruc qozongan, tajribali va sheryurak bo'lmasin, ser Edvard uning qaroqchini mahv eta olishiga ko'zi yetmasdi. Zero, Sharkiga qancha tuzoq qo'yilmasin, u tullak bosqinchi doim omon qutilib ketgan va qanchadan-qancha shavkatli dengizchilarning boshiga yetgandi. Biroq badqovoq Stefen Kraddok ham anoyilardan emas edi, u makkorlik va dadillikda Sharkidan o'tsa o'tar ediki, ammo undan hech qolishmasdi.

Shuning uchun bo'lsa kerak, Sharki va Kraddok o'rtasidagi qonli bellashuv kimning g'alabasi bilan tugashi gubernator uchun juda qiziq bo'lib tuyuldi. Janob Edvard Kraddokning g'alabasiga to'la ishonmasa-da, u hayot-mamot to'qnashuvida qaroqchini mahv eta olishi mumkin bo'lgan yagona nomzod ekanini yaxshi anglardi.

— Sizga ishonaman. Ammo, esingizda tuting, — dedi gubernator Kraddokni ogohlantirgan bo'lib, — Sharki nihoyatda makkor dushman. U osonlikcha qo'lga tushadiganlardan emas. U hech kimga shafqat qilmaydi. O'ta ehtiyotkorlik bilan ish tuting!

Darhaqiqat, ayni chog'da la'nati Sharkini o'ldirishga qat'iy jazm qilgan Kraddokni hech qanday kuch orqaga qaytara olmasdi. O'ylagan rejasini amalga oshirish uchun u shoshilinch ravishda «Oq Atirgul»ni safarga tayyorlashi va Sigir oroliga «Omadli Xaloskor» kemasining ta'mirlash ishlari yakunlanishidan avvalroq yetib borishi lozim edi. Mabodo qaroqchilar ochiq dengizga chiqib ketgudek bo'lsalar bormi, Kraddokning barcha urinishlari behuda ketardi. Shuni nazarda tutgan holda «Oq Atirgul» kemasi zudlik bilan qora rangga bo'yalib, unga qora matodan tikilgan yelkan ilindi. Machta va uning xochsimon havoalari atayin dudlab qoraytirilib, machta uchiga qora bayroq ilindi. Xullas, kema



uzoq vaqt mobaynida dengiz kezganiga hech kim shubha qilmaydigan darajaga keltirildi. Kemaga dengizchi yollash ham tez hal bo'ldi, chunki Sharkidan o'ch olish va adolatni qaror toptirish istagida bo'lgan alamzadalar soni keragidan ortiq edi.

Ikki kun o'tar-o'tmas «Oq Atirgul» kemasi dengizga chiqdi. Ob-havo ham go'yo ezgulik jangiga otlanganlarga baxt va zafar tilayotgandek edi. Endigina bo'yoqdan chiqqan kemani kuzatayotib, qaroqchi Sharki kemasining ko'rinishidan voqif dengizchilar «Oq Atirgul» va «Omadli Xaloskor» o'rtasida hech qanday farq qolmaganini yana bir bor tasdiqlashdi.

Intiqom olishga qasd qilib kemaga yollangan azamat dengizchilarning aksariyati mohir ovchilar bo'lib, ular orasida bir mahallar Stefen Kraddok bilan birga qaroqchilik qilganlar ham bor edi. Qasoskorlar ichida Kraddokning qadrdoni, xuddi u kabi ilgari ko'p jinoyatlar sodir etgan, hozirda esa taqvo yo'lini tanlagan Iosiya Gerd degan kimsa ham bor edi.

Hali ham baquvvat va ko'zlaridan o't chaqnaydigan, shijoatli Gerd sobiq xo'jayini Stefen Kraddokning birgina taklifi bilan kemaga shturman bo'lishga rozilik bergandi.

Dilovar qasoskorlar kemasi poyoni ko'rinmas Karib dengizida o'rkach-o'rkach to'lqinlarni ortda qoldirib, yeldek uchib borardi. Baliqchi kemalari uzoqdan qaroqchilarning qora yelkanini ko'ra solib, azbaroyi qo'rqib ketganlaridan yirtqichdan hurkkan kiyik misoli jon hovuchlab, orqa-oldiga qaramay qochardilar.

To'rt kunlik safardan so'ng Kraddokning kemasi Abaku bandargohini yonlab o'tib ketdi. Nihoyat safarning beshinchi kuni Sharki o'zining to'rt sherigi bilan ov qilayotgan Sigir oroli elas-elas ko'zga tashlana boshladi. Kema orolning Toshbaqa ko'rfaziga suzib kelganda langar tashlandi. Boshdan oyoq qalin palma va turli-tuman tropik o'simliklar bilan qoplangan yashil orol sukunat og'ushida yastanib yotardi. Qumli sohil yoy shaklida cho'zilib ketgan bo'lib, ko'rinishidan xuddi yangi

chiqqan kumush tusdagi hilolni eslatardi. Orolida qilt etgan tirik jon yo'q. Na biror ovoz, na bir sas quloqqa chalinardi. Noiloj kutishga to'g'ri keldi.



Darg'aning buyrug'iga ko'ra kemaning ko'rinishini yanada ishonchliroq bo'lishi uchun machta uchidagi qora bayroq yoniga qizil bayroqchalar ham ilib qo'yildi. Biroq bu ham hech qanday natija bermadi. Kraddok, mabodo Sharki qayiqda kemamiz tomon kelmayaptimikan, deya uzoq vaqt ufqqa tikilib turdi, ammo hech qanday qayiqdan darak yo'q edi.

Shu alpozda bir tun o'tdi... Ikkinchi kun, so'ng yana bir tun o'tsada, Sharki va qaroqchilardan hamon darak yo'q edi. Sohil bo'yi osuda, sokin, go'yoki, Kraddok kech qoldi-yu, Sharki sheriklari bilan Sigir orolini allaqachon tark etganga o'xshardi...

Ertasiga, kun qiyomiga yaqinlashayotgan paytda, Kraddok qaroqchilarni o'rmon ichkarisidan qidirish uchun sohilga tushishga qaror qildi. Jon Sharkining aynan Sigir orolini o'ziga oromgoh etib tanlaganligining o'ziga xos sababi bor edi. Chunki uning suvlari bamisli zilol buloqdek sof, mevalari esa bolday totli edi. Kraddok hamrohlari bilan o'rmonning xilvat yeridan birtalay surgo'sht omborini topib olgach, qaroqchilar oroldan olis ketmagan, degan xulosaga kelishdi. Bundan shijoatli qasoskorlarning Sharkini mahv etishga va adolat tantana qilishiga bo'lgan ishonchlari yanada kuchaydi.

«Ammo nega qaroqchilar shu choqqacha ko'rinish bermadi ekan? Nahotki hiyla bilan qo'lga tushirmoqchi bo'lganimizni sezib qolishgan bo'lsa? Yoki ular sohildan ancha uzoqda — orolning ichkarisida ov qilishayotganliklari uchun kemani ko'rishmadimikan?» degan o'y va boshqa ming turli gumonlar Kraddokning ich-ichini tinmay kemirar va u endi buyog'iga nima qilishini bilolmay boshi qotardi.

Uning barcha shubhalari orol ichkarisida shu yerlik bir qizil tanli yigitni tasodifan ko'rib qolgach barham topdi. Yigitning aytishicha, qaroqchilar orolning eng ichkarisida, ya'ni sohildan bir kunlik yo'l narida



ov qilishayotgan ekan. Hindu yigit qaroqchilar uning xotinini tortib olganini aytib, ularni so'ka ketdi va kaltakdan momataloq bo'lib ketgan yelkasini ko'rsatdi.

— Dushmanimning dushmani — mening do'stim, men siz janobga o'sha yovuz odamlar qayerda ekanligini ko'rsatishga tayyorman, — dedi u qat'iy ohangda.

Kraddok uchun ham aynan shu kerak edi. Ertasiga tong-saharda u tish-tirnog'igacha qurollangan matroslari bilan hindu yigit yo'l boshchiligidagi orolning yanada ichkarisiga qarab yura boshladi. Ular kunbo'yi changalzorlar orasidan o'tib, katta bir qoyaga ro'baro' kelishdi. Bir amallab qoyadan oshib o'tishgach, botqoqlik yonida buqa suyaklari va odam izlarini ko'rishdi. Bundan sergak tortgan qasoskorlar jangga shay bo'lib olishdi. Ammo atrofda hech zog' ko'rinmasdi. Tunga borib uzoqdan multiq ovozi eshitilganday bo'ldi. Tun orolni o'z og'ushiga olgan, osmonga yulduzlar bodroqday sochilgandi. Kraddok matroslari bilan birga o'rmonda tunab qoldi.

Tong sahardan boshlangan qushlar chug'uridan uyg'ongan qasoskorlar yana olg'a yurishdi. So'qmoq bo'ylab keta turib, shox-shabbalardan qurilgan bir necha chaylaga duch kelishdi. Yigitning aytishicha, qaroqchilarning qarorgohi aynan shu yer edi. Ammo hozir chaylalarda hech kim yo'q, qaroqchilar ov qilgani ketishgan bo'lsa, kechga yaqin albatta qaytib kelishlari kerak, degan xayolda Kraddok sheriklari bilan ularni pistirmada kuta boshladi. Ammo qaroqchilar qarorgohga qaytib kelishmadi. Ikkinchi tun ham ulardan darak bo'lmadi.

Qaroqchilarni qo'lga olish uchun barcha choralarni qo'llab ko'rgan Kraddok tinka-madori qurigan odamlari bilan noiloj kemaga qaytib ketishga qaror qildi. Yo'l ma'lum bo'lgani sababli qirg'oqqa qaytish nisbatan tez va oson kechdi. Kraddok va uning hamrohlari Toshbaqa ko'rfaziga kech kiray degan mahalda yetib kelishdi. «Oq Atirgul» avvalgidek langar tashlagan joyda turardi. Qayiq va eshkaklar ham yashirib qo'yilgan joyda qanday bo'lsa, shunday holda turgandi. Ko'r-

faz g'oyat sokin va billurday tiniq edi. Kraddok matroslar bilan birga qayiqqa o'tirib, asta kema tomon suzib borishdi.



Birinchi bo'lib kemada shturman Iosiya Gerd ko'rindi. U nimadan-dir besaranjom, rangi quv uchgan va gunohkorday bo'ynini qisgan holda turgandi. Iosiya Gerd kema quyrug'idan boshini chiqarib qarab, qayiqdagilarga baqirgancha dedi:

— Ko'rinishingizdan omadingiz kelmaganga o'xshaydi, kapitan Kraddok. Qaroqchilar topilmadimi, deyman?

— Ha, ularni qidiraverib rosa tinkamiz quridi. Qarorgohlarida ham hech kimsa yo'q. Ammo ular sohilga kelib qolishlari ham mumkin, — dedi Kraddok arqonli zinadan kemaga chiqqa turib.

Kema sahnida turgan allakimning kulgisi eshitildi. Iosiya kapitaniga qarab dedi:

— Kraddok, matroslarga buyuring, ular qayiqda qolishsin.

— Nega endi?

— Nimaga ekanini kemaga chiqqach bilib olasiz, — deb javob berdi Iosiya Gerd qandaydir g'alati ohangda.

Kraddokning jahli chiqdi:

— Bu nima deganingiz, janob Gerd? — deb do'q qildi u, kema sahniga chiqib olib. — Gapingizdan, kemaga qo'mondonlik qilishni o'z qo'lingizga oldingiz, shekilli?

Ammo Kraddok kema sahnida bir-ikki qadam qo'yishi bilanoq, uning yonida och yashil tus soqolli matros hozir bo'ldi. U ilgari bu odamni hech ko'rmagan edi. Noma'lum matros dabdurustdan Kraddokning to'pponchasini shartta tortib oldi. Kapitan chapdastlik qilib matrosning qo'lini qayirmoqchi bo'luvdi hamki, biroq kutilmaganda Iosiya Gerd uning kamarida turgan xanjarini ham qinidan sug'urib oldi.

— Bu qanday surbetlik?! — deya g'azab bilan baqirdi Kraddok, atrofga o'qraygancha qarab.

Kema sahnida turganlar bir-biri bilan shivirlab gaplashar va Kraddokni qo'li bilan ko'rsatib, ustidan qotib kulishardi.



Ularning ichidan birortasi kapitanga yordam berishni xayoliga ham keltirmasdi.

Kraddok o'ziga nisbatan qilingan bunday qo'pollik va kutilmagan-da ro'y bergan voqeadan dovdirab, atrofida unga baqrayib turganlar aslida kim ekanini darrov fahmlay olmadi. U biroz o'zini bosib olgach, kemaga yollagan odamlar juda g'alati kiyimda ekanini ko'rib, bir nafas suratday qotib qoldi. Matroslarning ba'zilar kamzulda, ba'zilar esa duxoba ko'ylak kiyib, tizzalariga ola-bula ipak tasma bog'lab olgan bo'lib, ularning birortasi ham haqiqiy dengizchiga o'xshamasdi. Kraddok alaxlayapman shekilli, degan xayolda o'ziga kelishi uchun ko'zini yumib, boshini bir-ikki silkitib ham ko'rdi va kema sahniga yana bir sidra sinchiklab qaradi. Uning kemasi ikki kun avvalgiga nisbatan ancha iflos bo'lib ketgandi. «Menga chaqchayib qarab turgan bu surbetlar kim bo'ldi ekan?», degan fikr miyasida g'ujg'on o'ynardi. Ularning orasidan Iosiya Gerddan tashqari hech kimni tanimadi.

Kraddokning miyasiga «Men orolda yurgan maholimda mabodo qaroqchilar kemani egallab olmadimikan? Nahot atrofimda turgan tasqaralar Sharkining to' dasidagi qaroqchilar bo'lsa?», degan dahshatli fikr keldi. Shunda Kraddok uni ushlab turgan matrosni jon-jahdi bilan siltab, qayiqqa qaytib tushmoqchi bo'ldi, ammo afsuski endi kech edi. Beshta barzangi matros uni bo'g'zidan olib, sudragancha o'zining kayutasiga olib kirib ketdi.

Kraddok kayutasini ham taniyolmay qoldi, chunki undagi jihozlar butunlay boshqacha edi. Uning doim saranjom-sarishta turgan kamtarona kayutasi hashamatli bezalgan-u, ammo o'ta iflos va sigara chekilaverganidan bangixonadek tutunga to'lgan ekanini ko'rib, juda hayron qoldi. Qimmatbaho baxmal darparda musallas dog'idan yag'iri chiqib ketgan, nodir yog'ochdan yasalgan kayuta eshigi esa to'pponcha o'qlaridan ilma-teshik holda edi. Stolga Karib dengizining katta xaritasi yozib qo'yilgan bo'lib, ustida esa har xil mayda-chuyda lash-lushlar yoyilib yotardi. Kayuta to'rida soqoli qirtishlab olingan, egniga qizil

kamzul tashlab olgan rangpar odam qo'lida kompas ushlab turardi. Kraddok o'sha qizil qovoqli, burni qayroqtoshday ingichka va uzun odamga ko'zi tushdi-yu, arvojni ko'rgandek esxonasi chiqib, rangi dokadek oqarib ketdi.



Qizil qovoqli odam Kraddoka achchiq istehzo bilan tirjaygancha ustomonlik bilan aldangan dushmanini yeb yuborguday bo'lib, o'ssha-yib qarab turardi. Ha, ming afsuski, chindan ham uning ro'parasida turgan odam qaroqchilar sardori o'sha iblis Jon Sharki edi.

— Sharki! — baqirib yubordi, tuzgan rejasi barbod bo'lganini tushunib yetgan Kraddok. Sharki quloqni teshgudek qah-qah otib, masxaraomuz kulib yubordi.

— Eh, sen ahmoq! Meni anoyi deb o'yladingmi? Jon Sharkining oshig'i hamisha olchi, bilib qo'y! — deya kekirdagini cho'zib o'shqirdi u.

So'ng Kraddoka yaqinlashib, uning yag'riniga kemandigir temir kompas bilan bir necha bor ayamay urdi. Sharkining qo'rqinchli ko'zlarida chek-chegarasiz g'azab o'tlari porlay boshladi.

— Hoy, esi past ko'ppak! Hali men bilan dovlashmoqchi bo'ldingmi? Sharkini bir cho'qishda qochiraman, deb o'ylading chog'i. Bilib qo'y, men bilan faqat paymonasi to'lgan tentakkina olishadi, — dedi qaroqchilar sardori dag'dag'a qilib.

Hamiyatli Kraddok Sharkidan yegan zarba og'rig'iga emas, balki uning yuragiga nashtardek sanchilgan haqoratlariga chiday olmaganidan benihoya g'azablandi.

U qahr va nafratdan o'zini to'xtata olmay, uni burda-burda qilguday bo'lib, hayqirgancha qaroqchiga tashlandi... Ammo qaroqchilar Kraddokni beshovlashib yerga zo'rg'a ag'darishdi-da boshi-ko'zi demay, do'pposlab ketishdi. Kraddok ham bo'sh kelmay, ular bilan yaralangan arslondek olishdi.

Kutilmaganda yaqin atrofdan sinayotgan yog'ochning qasr-qusuri va odamlarning dod-voyi eshitildi.



— Nima shovqin?! — deya so'radi Kraddokka nafrat ko'zlari bilan qarab turgan Sharki.

— Qayiqni odamlari bilan qo'shib dengizga cho'ktirib yubordik, kapitan!

— Mayli, chuvalchaglarning joyi o'sha yerda, — beparvogina javob berdi qaroqchi. — Xo'sh, Kraddok, qayerda ekaningni endi fahmlagan bo'lsang kerak? Sen ahmoq mening kemamdasan, hayot-mamoting ham mening qo'limda. Seni to'g'ri yo'lga kirib, misoli avliyoday bo'lib qolgan deb eshitdim. Ammo shunda ham gunohlaring menikidan kam emas. Shturmaningga o'xshab mening xizmatimga o'tishga rozilik bersang, joning omon qolishi mumkin. Yo'qsa, bilib qo'y, holingga naq maymunlar yig'laydi-ya!!

— Kemam qayerda? — so'radi Kraddok.

— Qayerda bo'lardi, ko'rfaz tubida.

— Kema a'zolari-chi?

— Hammasi dengiz tubida.

— Unda meni ham o'sha yerga jo'nat!

Bu gapi bilan shijoatli Kraddok qaroqchining qahrini battar alanga oldirdi:

— Bu ko'ppakning tizza payini kesib, suvga uloqtiring! — deb buyruq berdi Sharki.

Matroslar Kraddokning tomog'idan bo'g'gancha palubaga sudrab olib chiqishdi. Kvartirmeyster Gallovey pichog'ini qinidan sug'urib, endi ishga kirishuvdi hamki, to'satdan kapitan Sharki kayutasidan shosha-pisha chiqib keldi:

— To'xtalaring! Biz bu it emganning ta'zirini boshqa biror-bir antiqa usul bilan beramiz, — dedi u. — Xudo haqqi, hozirgina mening kallamga nihoyatda ajoyib fikr keldi. Meni dorga osmoqchi bo'lganlarning ta'zirini shunday berayki, toabad kapitan Jon Sharkini xotirlab yurishsin! Zanjirband qilib, uni tryumga¹ tashlang. Sen esa, kvartirmeys-

¹ Tryum — kema palubasi ostidagi yuklar uchun mo'ljallangan joy.

ter, beri kel, nimani o'ylab qo'yganimni aytaman. Shunday qilib, berahmlarcha kaltaklangan Kraddok zax va qorong'i tryumga tashlandi.

Kraddok shu darajada zanjirband qilib tashlangan ediki, u na qo'li va na oyog'ini qimirlata olardi. Ammo irodasi mustahkam Kraddok aslo tushkunlikka tushmadi, aksincha, u shu lahzalarda o'zini dadil tutib, azobda o'lishga va shu orqali avval qilgan gunohlarini yuvishga ruhan tayyor edi.

Omadsiz qasoskor tuni bilan kema tryumida, dengiz to'liqlarining guvranishiga quloq solib yotdi. Kema aftidan yo'lga tushgandi, chunki u nihoyatda tez suzib ketayotgandi. Erta tongda kimdir tryumga tushdi. Tryum ichi qanchalik qorong'i bo'lmasin Kraddok yoniga kelgan odamni ovozidan tanidi. Bu unga xoinlik qilgan shturman Iosiya Gerdning ovozi edi.

— Mana oling, mister Kraddok, rom va non. Bularni men o'z jonimni xatarga qo'yib siz uchun olib keldim.

— Eh, seni qara-yu! Nahotki do'st bo'la turib, meni dushman tuzog'iga ilintirib berding? — dedi Kraddok alamli ohangda. — Qani ayt, g'addor, bu qilmishingni qanday oqlaysan?

— Mister Kraddok, aybimni bo'ynimga olaman, munofiqlik qildim. Ammo tushuning, bunga meni tomog'imga xanjar tirab majbur qilishdi. Ularning aytganiga ko'namasam o'ldirishardi...

— Mayli, Iosiya, gunohingni Tangri kechirsin. Ammo ayt-chi, qanday qilib qaroqchilar qo'liga tushib qolding?

— Bilasizmi, mister Kraddok, ayni siz orol ichkarisiga kirib ketgan kuningiz qo'qqisdan ko'rfazda qaroqchilar kemasi paydo bo'lib qoldi. Ular bo'g'ma ilondek chirmashib, kemamizni abordajga¹ olishdi. Ayovsiz jang bo'ldi... Aksiga olib biz kamchilik edik, qurol-aslahalar ham yetarli emasdi. Chunki yaxshi qurollangan, baquvvat matrosalar siz bilan birga ketgandi. Yigitlar qaroqchilarga qarshi

¹ *Abordaj* — dushman kemalari yonma-yon kelganda dengizchilarning kema dan kema ga o'tib jang qilishi.





mardonavor jang qilishdi, ammo ming afsuslar bo'lsinkim, ularga kuchimiz yetmadi. Bir qancha dengizchilarimiz jangda halok bo'lishdi, tirik qolganlarni esa qilichdan o'tkazishdi. Men ularning shartiga ko'nganim uchungina omon qoldim.

— Demak kemamizni cho'ktirib yuborishdi, degin?

— Afsuski shunday. Qaroqchilar bizni qo'lga olgach, chakalakzor orasida biqinib yotib avvaldan kuzatib turgan Sharki sheriklari bilan kemaga keldi. Keyin bilsam, mister Kraddok qaroqchilar kemasi machtasining xochsimon havozi oxirgi safar paytida kuchli to'fondan sinib ketgan ekan. Bilasiz, baxtga qarshi «Oq Atirgul»ning havozi bus-butun edi. Jin ursin, la'natlar aynan shundan shubhalanib qolishibdi. Xullas, siz ularga atagan tuzoqni o'zingizga qo'yishdi. Shu vaqtgacha ne-ne qiyinchiliklarni sabot va matonat bilan yengib kelgan Kraddok alam achchig'idan ingrab yubordi.

— Ey, Xudoyim, qaroqchilar kemasining bosh havozi singanini bilib o'tiribmanmi?.. Ammo, ayt-chi, hozir qayoqqa suzib ketyapmiz?

— Shimoli-g'arb tomonga...

— Shimoli-g'arb yo'nalishida? Demak orqaga, Yamaykaga qarab suzyapmizmi?

— Ha, soatiga sakkiz uzel¹ tezlikda.

— Bilmaysanmi, meni ular nima qilishmoqchi?

— Menga aytishmadi. Ammo siz ularning shartiga ko'nganingizdami...

— Bo'ldi qil, Iosiya! Shundoq ham gunohlarim son-mingta. Er yigitga ikki nomus — bir o'lim, deganlar. Bu yog'ini peshonamdan ko'raman. Vijdonimni dajjolga sotganimdan ko'ra, o'lganim afzal.

— O'zingiz bilasiz. Men qo'limdan kelganini qildim. Bardam bo'ling, kapitan. Alvido!

«Omadli Xaloskor» kemasi tun bo'yi va ertasiga kuni bilan Karib dengizining lojuvord to'lqinlari uzra jadal suzib boraverdi. Tryumda

¹ Uzel — dengiz kemasining tezlik o'lchovi (1 uzel 1,852 km/soatga teng).

yotgan Stefen Kraddokning ko'ksi alam-u iztirobga to'la edi. U kishanlardan qutilish uchun jon-jahdi bilan tinmay harakat qilishga tushdi. Bir amallab, terisi shiliniib, qonab ketgan bo'lsa-da, bir qo'lini bo'shata oldi, ammo, harchand urinmasin, ikkinchi qo'lidagi kishanni yecholmadi. Oyoqlari shu darajada qattiq zanjirband qilib tashlangan ediki, ularni loaqal qimirlatishning ham imkoni yo'q edi.

Kraddok jadal suzib ketayotgan kema hademay Yamaykaga yetib borishini yaxshi bilardi. Bir zamonlar yulduzni benarvon urgan, ammo hozirda bevafo taqdir amri bilan notavon bandiga aylanib qolgan Stefen Kraddok ajal yoqasida ekanini ham anglab turgandi. «Sharki qanday shum reja tuzdi ekan? Nima maqsadda meni o'ldirmay, tirik qoldirdi ekan?» degan savollar uning yuragini o'rtab, tashvishga solardi. U ich-ichida «Avval o'z xohishim bilan qabihlikka qo'l o'rgan bo'lsam, endi ikki dunyoda ham majburan razolat botqog'iga kirmayman», — deya qasam ichdi.

Ertasi kuni tongda yelkanlar tushirilib, kema ancha sekin suzayotganini sezgan o'ta tajribali dengizchi qulog'iga chalinayotgan ovoz va boshqa alomatlardan palubada nima bo'layotganligini sezib-bilib turardi. Uning taxminiga ko'ra kema langar tashlash uchun sohil yaqinidan qulay joy izlayotgandi. «Demak, kema Yamaykaga yetib kelibdi. Ammo qaroqchilar bu yerga nima maqsadda kelishdi ekan? Jin urgur, Sharki yana qanday nayrang o'ylab topgan ekan?» — dedi u o'ziga-o'zi. Shu payt qo'qqisdan uning naq tepasidagi palubadan baralla «ura-ura!» degan hayqiriq ovozlari eshitildi, so'ng zambarakdan gumbirlab o'q otildi. Uzoqdan ham zambaraklardan birvarakayiga otilgan o'q sadolari dengiz uzra aks berib yangradi. Kraddok kema sahnidan kelayotgan shovqinlarga yanada diqqat bilan quloq sola boshladi.

— Qaroqchilar ne sababdan zambaraklarni ishga soldi ekan? Yoki Sharki birorta kemaga hujum qildimikan? Yo'q, unday bo'lishi mumkin emas. Faqat bir zambarakdan o'q otildi, javob o'qi esa bir necha zambaraklardan berildi. Undan tashqari zambaraklarning javob o'qlari





yaqin oradagi kemadan otilmadi. Bundan chiqdi bu jang emas, qutlov. Ammo Sharkini qutlayotgan kim bo'ldi ekan? Hoynahoy u boshqa bir qaroqchining kemasi bilan uchrashib qolgan bo'lsa kerak, — deya ko'nglidan o'tkazdi Kraddok.

Mag'lub qasoskor azoyi badanidagi og'riq azobiga chiday olmay, ingrab yubordi. Tishini-tishiga qo'yib bo'lsa-da, kishandan ozod bo'lish uchun yana bir bor harakat qila boshladi. Ammo sal o'tmay oyoq tovushlari eshitildi... Kraddok bir qo'lidan yechgan kishanni yana qaytib ilib oluvdi hamki, tryum qopqog'i taraqlab ochilib, zinadan ikki qaroqchi tushib keldi.

Qorong'ilikdan daroz qadli kvartirmeysterning ovozi keldi.

— Duradgor, bolg'ani o'zing bilan olganmiding? Oyog'idagi kishanlarni yech, qo'lidagilari qolsin, bexavotirroq bo'lamiz.

Sal o'tmay, Kraddok oyog'idagi kishandan ozod bo'ldi.

— Meni nima qilmoqchisizlar? — deb so'radi Kraddok.

— Qani oldimga tush-chi, o'shanda ko'rasan.

Matros Kraddokning qo'lidan ushlab, kema sahniga sudrab olib chiqa boshladi. Stefen Kraddokning boshi uzra tryum qopqog'i ochildi. U to'rtburchak qopqoq tuynugi orqali moviy osmonni ko'rib, chuqur nafas oldi...

Biroq da'fatan ko'zi machta uchida hilpirab turgan bayroqqa tushib, yuragi orqaga tortib ketdi. Negaki machtada bir emas, ikkita bayroq — qaroqchilarning qora bayrog'i va Britaniya bayrog'i ham hilpirab turardi, ya'ni or-nomus va shon-sharaf timsoli yoniga razolat bayrog'i ilingandi. Matros hayratdan qotib qolgan Kraddokni mushket qo'ndog'i bilan niqtadi... Kapitan asta zinadan ko'tarila boshladi. Palubaga chiqqach, u bosh ko'tarib machta uchiga yana qaradi. Unda Britaniya bayrog'i mag'rur hilpirab turar va yelkan arqonlari uchburchak bayroqchalar bilan ham bezalgandi.

«Bu nimasi bo'ldi? Juda g'alati hol-ku, yoki Sharkining kemasi asir olindimikan?» deya o'ziga savol berdi Kraddok. Ammo uning





atrofida kallakesar qaroqchilardan boshqa hech kim yo'q edi. Ular kema chetidagi to'siq, ya'ni parapet yonida turib olib, qo'llarini silkitgancha qirg'oq tomonga qarab qiyqirishardi.



Ularga xoin Iosiya Gerd ham qo'shilib, qo'lidagi uchburchakli shapkasini zo'r berib silkitgancha ishoralar qilardi. Kraddok ular kimni olqishlashayotgan ekan, degan xayolda sohil tomonga qaradi. Qaradiyu, gap nimada ekanini darhol tushundi. Ahvol u o'ylaganidan ham yuz chandon fojialiroq edi.

Bir milcha narida Port-Royalning oq qal'asi va tomiga bayroqchalar qadalgan uylar, sohilning o'ng tomonida esa Kingstonga olib boradigan yo'l kaftdek ko'rinib turgandi. Chamasi chorak mil masofa narida esa, kema tomonga machtasida Britaniya bayrog'i hilpirayotgan, yelkani uchburchak bayroqchalar bilan bezalgan, ichi odamlari, bilan to'la katta qayiq suzib kelayotgandi. Qayiqdagilar baralla ovozda «Ura!» deya qichqirgancha, qo'llarini silkitardilar. Kraddokning ko'zi qayiqda kelayotgan qal'a gornizonining qizil formali zobitlariga tushishi bilanoq, shu zahoti Sharkining maqsadi nima ekanligini angladi. Bu dog'uli qaroqchi nihoyatda dahshatli reja o'ylab topgan edi. Uning hiylasidan xabari yo'q qal'a ma'murlari hech qanday shubhaga bormay, qaroqchilar kemasini «Oq Atirgul» deb o'ylab, Kraddokni zafar bilan qutlayotgan edilar.

Barcha olqishlar-u orolning boshdan-oyoq bayroqlar bilan bezatilishi Kraddokning sharafiga edi! Qal'a komendanti, gubernator va orolning bari kazo-kazolari qayiqqa o'tirib, Stefen Kraddokni mislsiz g'alaba bilan tantanali ravishda muborakbod etish uchun kelishayotgandi. Yana o'n daqiqa o'tar-o'tmas ular o'tirgan qayiq «Omadli Xaloskor»ning zambaraklari o'qidan parcha-parcha bo'lib ketishi turgan gap edi.

«Sharki yana g'olib bo'ladi! Bir necha daqiqalardan so'ng la'nati qaroqchi hatto birorta ham qirol sazovor bo'la olmagan shon-shuhrat libosiga burkanadi! Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi», — dedi ichida Kraddok.



Jon Sharki kvartirmeyster va duradgorning qurshovida kelayotgan Kraddokni ko'ra solib, baqirgancha dedi:

— Ko'ppak Kraddokni oldingi qatorga turg'izib qo'ylaring! Zambaraklar mo'ljalga to'g'rilansin! Yana biroz yaqinroq kelishsin, o'shanda ularni aniq nishonga olamiz.

— Ular orqaga qarab suzib ketishyapti! — deya qichqirdi botsman.
— Aftidan xavf borligini sezib qolishgan ko'rinadi.

— Buni hozir to'g'rilaymiz! — dedi Sharki Kraddokga makkorona qarab. — Qani, beri kel-chi! Mana shu yerda tursang, ular seni aniqroq ko'rishadi. Shlyapangni qo'lingga ol, uni silkitib, ishora qill! Aks holda, bilib qo'y, to'pponcha o'qi bilan boshingni qatig'ini chiqarib yuboraman. Qani, Ned, pichog'ingni bir-ikki bor biqiniga tiqib ol... Shunday... Xo'sh, qalay?! Endi shlyapangni silkitib ularni chaqirasanmi? Nima ham deya olardim, o'zingga o'zing qilyapsan. Ned, yana pichoq tiq-chi... Hoy, to'ng'iz qo'pgur, to'xta! Qo'ldan chiqarma... Nima qilib anqayib turibsanlar, ot uni... Yaramas harom qotgurlar, ushla uni, dedim!

Ammo endi kech bo'lgan edi. Ned Gallovey kapitan Kraddokning qo'li kishanlangan deb o'ylab, bir daqiqaga uni qo'yib yuborgandi. Xuddi shuni kutib turgan Kraddok duradgorni bir siltashda yerga yiqitdi-da, paluba chetiga irg'ib sakrab chiqdi. Lahza o'tmay o'zini suvga otib, to'pponchalardan do'ldek yog'ilayotgan o'qlarni pisand qilmay, jon-jahdi bilan qirg'oq tomon suza boshladi.

Qaroqchilar unga qarab olatasir o'q otishda davom etishdi. Ammo ajal oldida ham tiz cho'kmaydigan, o'z burchini ado etishga qat'iy jazm qilgan shijoatli odamni to'pponcha bilan o'ldirish oson emasdi. Suzishda mohir bo'lgan Kraddok olgan jarohatlariga qaramay, qayiq tomon jon-jahdi bilan suza ketdi. Sharki buralab so'kindi va vajohat bilan hayqirib: — Menga mushket keltiring! — dedi.


U yaxshi mergan ham edi. Asablari temirdek mustahkam bo'lib, hech qachon va har qanday holatda ham dovdirab qolmasdi. Jon holatda


suzib ketayotgan Kraddokning boshi goho bir lahza suv ustida ko'rinsa, gohida suv ostida ko'rinmay ketardi. U kemadan ancha uzoqlashib, qayiqqa yaqinlashib qolgandi.

Birdan mushketning gumburlagan ovozi yangradi. Kraddok suvdan qaddini baland ko'tarib, qayiqdagilarga qaragancha ikki qo'lini silkitib, butun ko'rfaz eshitadigan ovozda: — Ehtiyot bo'linglar, kemadagi odam — Sharkil! — deya baqirdi.

Qayiq darhol orqaga burildi, Sharki darg'azab bo'lib, barcha zambaraklardan o't ochishga buyruq berdi. Birvarakayiga otilgan zambarak o'qlarining vahshatli gumbur-gumbur sadolari dengiz uzra yangradi. Ammo ularning birortasi ham qayiqqa zarracha ham shikast yetkaza olmadi.

Jon taslim qilayotgan Stefen Kraddokning yuzida nimtabassum ko'ringaday bo'ldi, so'ng behush bo'lib borayotgan yovqur dengizchi go'yo uni dengiz o'z domiga mehr ila imlab chorlayotgandek, moviy ko'rfaz tubiga cho'ka boshladi.





UCHINCHI QISM

Qaroqchi Jon Sharki bilan so'nggi to'qnashuv

Dengiz qaroqchilari oddiy talonchilar to'dasiga nisbatan tashkiliy jihatdan nihoyatda puxta uyushgan edi. Ularning, go'yo haqiqiy respublika fuqarolarinikidek o'z qonuni, urf-odati va tartib-intizom qoidalari bor edi.

Dengiz qaroqchilari va Ispaniya dengiz floti o'rtasidagi beayov va qonli janglar hozir ham hammaning esida. Kim nima degan taqdirda ham dengizda hukmronlik uchun bo'lgan o'sha hayot-mamot olishuvlarida haqiqat ular tomonida ekaniga qaroqchilarning ishonchi komil edi. Ochig'ini aytganda, bukanyerlar, ya'ni ispan floti kemalariga muttasi hamla qilgan qaroqchilar insoniylik aqidalarini hurmat qilish bobida



o'sha davrning vijdonli odamlaridan kam emasdilar. Masalan, ispaniya armiyasining niderlandlar hududiga surbetlarcha bostirib kirib, yosh-qari demay, odamlarni dahshatli ravishda qatli-om qilishlari oldida qaroqchilarning bandargohlarga qo'qqisdan qilgan qonli bosqinlari hech gap emasdi. Yoki bo'lmasa, bu fikrning tasdig'i sifatida Atlantika ummonida talonchilik qilib yurgan qaroqchilardan farqli o'laroq, ispan konkistadorlarining¹ birgina Karib dengizi orollarining o'zida qilgan xunrezliklari, minglab begunoh mahalliy aholini bekordan-bekorga ayovsizlarcha qirib tashlanganliklarini eslashning o'zi kifoya qiladi.

Qaroqchilar sardori — ingliz Genri Morgan yoki fransuz Mishel de Grammon kabilarni olib ko'radigan bo'lsak, ular odamiylik qoidalariga imkon qadar rioya qilishni o'z vatandoshlari oldidagi burchi deb bilganlar. XVII asr — razolat asri, deb atalsa-da, «dengiz hukmdorlari» vijdoni yo'l qo'ymagan qabih amallardan o'zlarini tiya bilganlar. Qaroqchilarning vatandoshlari ham o'z navbatida ularning shu jihatlari uchun hatto ba'zida maqtab ko'klarga ko'targanlar.

Bukanyerlar nechog'liq talonchi bo'lmasin, ular orasida insofli xudojo'ylari ham bo'lganligi rost. Aytishlaricha, o'ta taqvodor sanalgan kapitan Saukins qo'l ostidagi qaroqchilarni bayram kuni qimor o'ynaganlari uchun qattiq jazolagan ekan. Mashhur qaroqchi Danielning o'z yigitlaridan birini cherkovga mast holatda kirib, dindorlarni tahqirlagani uchun ayamay otib tashlaganini avom xalq hanuz eslaydi.

Ammo davrlar o'tgan sari ritsarlarga xos oliyjanoblighi bilan nom qozongan qaroqchilar o'tmishda qolib, ular o'rining ashaddiy kallakesar va tavbasiga tayanmagan jinoyatchilar egallay boshladi. Shunday bo'lsa-da, hatto o'sha qaroqchilar ham o'tmishdagi «ajdodlar»idan qolgan o'git va qoidalarga qisman bo'lsa-da rioya qilishardi. Yangi qaroqchilardan Evori, England va Robert kabilar har qanday holatda ham odamgarchilikni oyoqosti qilishmagan. Ular savdo kemalarini talasalar-da, dengiz-

¹ *Konkistador* — ispan tilida «istilochi», degan ma'noni beradi.



chilar va tinch aholiga nisbatan shafqatli bo'lishgan ekan. Ammo vaqt o'tgan sari «dengiz hukmdorlari»da oliyjanoblik tuyg'ulari yo'qolib bo'rib, ular inson zotining ashaddiy g'animiga, mutlaq iblisga aylandilar.

Qaroqchilar to'dasining qo'liga tushgan odam hech qachon tirik qolmas edi, shu boisdan ham ularning aql bovar qilmas vahshiyliklari haqida deyarli hech kim hech narsa bilmasdi. Ba'zan dengizning qoq o'rtasida yonib ado bo'lib, matroslari qonga belangan kema topilib qolgudek bo'lsagina, qaroqchi zotining yovuzligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin edi, xolos.

Ularining ichida faqat xumkalla Ned Lou, shotlandiyalik Gou va iblis Sharki, ya'ni hammaga dahshat soluvchi «Omadli Xaloskor» deb atalgan kema kapitani eng Xudo urgan qaroqchilar, deb hisoblanardi. Qora bayroq ostidagi bu ajal kemasi Yangi Yer arxipelagidan tortib to Jazoyir sohillarigacha bo'lgan yerlarda otning qashqasidek ma'lum edi, chunki bu kema qayerga kirib bormasin, albatta o'sha yerda kulfat, o'lim va vayronalik ofati oralardi.

«Omadli Xaloskor» nomli kemani Shimoiy Amerika qit'asidan tortib to Atlantika ummonidagi orollarda yashovchi aholigacha o'lguday yomon ko'rardi. Ammo nima bo'lganda ham yer yutgur qaroqchi Sharkidan kingstonlik Kopli Benkschalik nafratlanadigan odam topilmas edi. Benks aslzoda boyonlardan bo'lib, o'ta obro'-e'tiborli zot edi. Uning Karib orolida katta-katta shakar zavodlari ham bor edi. Kopli Benksning dilbar xotini kimsan aslzoda Persival sulolasiga mansub bo'lib, o'zi Virjiniya gubernatoriga amakivachcha edi. Benksning ikki o'spirin o'g'li Londonda tahsil olardi. Kunlardan bir kun Benksning xotini farzandlarini olib kelish uchun Londonga jo'naydi va qaytishda u o'tirgan «Kornuel Gersoginyasi» kemasi Jon Sharkining bosqiniga uchraydi. Shafqatsiz qaroqchi kemadagilarni, jumladan Benksning xotini va o'g'illarini ham berahmlarcha birma-bir qilichdan o'tkazadi.

Fojiadan xabar topgan Kopli Benksning yurak-bag'ri qon bo'lgan bo'lsa-da, deyarli miq etmadi, ammo sho'rlik g'am-anduhga botib,

chuqur iztirobga tushib qoldi. U hamma ishini chetga surib, kuni bo'yi jamiyatning eng past tabaqa odamlari boradigan qovoqxonadan beri kelmaydigan odat chiqardi. Qovoqxonada nechog'lik so'kinish, baqirchaqir va yoqalashish bo'lmasin, u burchakdagi stolda trubkasini chekib, g'amgin nigohini bir nuqtaga tikkancha xayolga cho'mib o'tirardi. Ichiga chiroq yoqsa yorishmasdi. Hatto do'stlari bilan oshna-og'aynichilikni ham yig'ishtirib qo'ygan Benks tashidan xotirjam ko'rinsa-da, qovoqlari ichiga botib ketgan ko'zlarida g'am-alam uchquni yiltirab turardi. Odamlar Benks aqldan ozib qolibdi, deb gap tarqata boshlashdi. Eski oshnalari-dan ba'zilar uni ko'rsa, o'zini chetga oladigan bo'lishdi, negaki tagi past odamlar bilan osh-qatiq bo'lib yurgan odamga qo'l uzatishning o'zi ular uchun nomus hisoblanardi.


Kingstonda vaqti-vaqti bilan qaroqchi Sharkining «qahramonliklari» haqida mish-mish gaplar tarqalib turardi. Bir gal qaysidir shxuna kapitani dengizda yonayotgan bir kemani ko'rib qolib, yordam berish maqsadida uning yoniga yetib kelay deganda, shoshgancha yelkanlarini ortga burgan. Kapitanning aytishiga qaraganda u o'shanda dengizga g'arq bo'layotgan savdo kemasidan sal narida kasofat Sharkining qora kemasi turgani uchun noilojlikdan qochishga majbur bo'lgan ekan. Yana bir safar savdogar uni ta'qib qilgan qora kemadan arang qutilib olib, Kingston bandargohiga yelkanlari ilma-teshik holda kirib kelgandi.

Sohil bo'yidagi qishloqlardan birida yashovchi qariyaning aytishi-cha, u tasodifan o'rmonning xilvat yerida oftobdan qurib qoq bo'lib yotgan bir to'p odam jasadini ko'rib, sal qolsa esi og'ay deb qolibdi. Xullas Jon Sharki tomondan qilingan bu kabi xunrezliklarning adog'i ham, sanog'i ham yo'q edi.

Kunlardan bir kun Kingstonga ko'p yillar savdo kemasida xizmat qilgan kekxa shturman kelib qoldi. Ma'lum bo'lishicha, o'sha shturman Sharki tomonidan asir olingan va qandaydir tasodif tufayligina qaroqchilar uni o'ldirmay, avval rosa tepkilab, keyin tilini kesib, qo'yib yuborishgan ekan. Bechora gapira olmasa-da, Kopli Benksning baxtiga yozishni









bilardi. Ikkovi qovoqxona chetidagi stolga dengiz xaritasini yoyib olgancha soatlab birga o'tirar, gung shturman qo'li bilan xaritaning turli yerlarini Benksga ko'rsatib, nimalarnidir tushuntirshga harakat qilardi. Kopli Benks esa uning xaritada ko'rsatgan joylariga diqqat bilan qarar va trubkasini chekib nimalarnidir reja qilardi. Baxtiqaro Benksning yuzida garchand xotirjamlik alomati aks etsa-da, ammo hanuz ko'zlarini g'am-anduh sharpasi tark etmagandi.

Vaqlar o'tib, ya'ni oilasi fojiali o'ldirilganligiga ikki yil bo'lganda Kopli Benks yana o'z korxonasiga qaytib keldi. U endi yana o'sha avvalgi quvnoq va g'ayratli Kopli Benksga aylangan edi. Ish boshqaruvchi uni ko'rib hayron qoldi, negaki, janobining oxirgi marotaba idoraga qachon kelgani ham uning esida yo'q edi.

— Salom, janob Benks, — dedi dovdirab qolgan ish boshqaruvchi.

— Salomatmisiz, Friman? Bandargohda «Jangari Garri»ni ko'rgan-day bo'ldimmi?

— Xuddi shunday, ser. Unga yuklarni ham ortib bo'ldik, chorshanba kuni Angliyaga jo'nashi kerak.

— Friman, bu kemaga maxsus topshirig'im bor. Men uni Afrikaga qul olib kelgani jo'natmoqchiman.

— Ser, ma'zur tutgaysiz, ammo kemaga yuklar ortib bo'lingan.

— Nima ham qilardik Friman, demak undan yuklarni tushirish kerak. «Jangari Garri» Afrikaga qul olib kelish uchun jo'naydi, qarorim qat'iy.

Friman bu fikridan qaytishini janobidan qancha iltimos qilib so'ramasin, bari urinishlari behuda ketdi. Kemadan yuklarni tushirishga to'g'ri keldi. Shunday qilib, Kopli Benks Afrika safariga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Ammo negadir u, odatda, bu xildagi safarlarda ko'rilishi lozim bo'lgan choralarni ko'rmadi. Ya'ni qora tanlilar yoqtiradigan shaqildoqlarni olish o'miga kemaga tumshug'i katta sakkizta zambarak o'rnatib, birtalay mushket sotib oldi. Kapitanning kayutasi yonidan



porox uchun maxsus xona ham tayyorlandi. Endi uning kemasidagi zambarak o'qlari va qurol-aslahalar hech bir harbiy kemadagidan kam emasdi. Benks olis sayohatga jo'nab ketayotganday safar oldidan ko'p miqdorda chuchuk suv va ozuqa ham g'amlab oldi.

Ammo hammadan ham o'z kemasiga matros yollash usuli nihoyat hayron qolarli edi. Benks turli bahonalar bilan tajribali va sinalgan dengizchilarni ishdan bo'shatib, ularning o'miga birorta savdogar ikki dunyoda ham o'z yaqiniga yo'latmaydigan yaramas va dor tagidan qochgan razil odamlarni yollay boshladi. Shundan keyin hatto ish boshqaruvchi Friman ham «Ha, shahar ahlining xo'jayinni telbaga chiqargani haqidagi mish-mishlar rost ekan», degan xulosaga keldi.

Darvoqe, Kingstonda yuzida qizil dog'i bor Berzmark Svitloks degan odam yashardi. Svitloks haqida u allaqanday daraxt kesuvchilarni o'ldirishda shaxsan ishtirok etgan, degan yomon gaplar yurardi. Sehr-joduga ishonuvchan kishilar esa qonli dog' uning razil odam ekanligini ko'rsatish uchun Yaratganning tamg'asi bo'lsa kerak, deyishardi.

Eng qizig'i shundaki, Benks aynan o'sha maxluqsifat nusxani, ya'ni Svitloksni shturmanlikka yolladi. Unga yordamchi qilib esa qandaydir bir Martin degan kasofatni tayinladi. Benks kemasiga matros'larni, asosan, keyingi paytlar o'zi borib yurgan o'g'ri-muttahamlar makoni — qovoqxona ahli orasidan yig'di. Kema oshpazi vazifasini esa, Sharki tilini kesib tashlagan, gapirsa tovuqning qaqalashiga o'xshab ovoz chiqaradigan odamga topshirdi.

Benksning bu taxlit xatti-harakatlarining daragi Kingston komendantiga ham yetib bordi. Komendant — artilleriya mayori Garvey, gubernator janobi oliylari qabuliga kirib, unga shunday xabar berdi:

— Muhtaram zoti oliylari! Benksning savdo kemasi hozirda qudratli harbiy kemaga aylangan. Fikrimcha, Benksni hibsga olib, kemani sekvestrga¹ qaytarib qo'ysak to'g'ri bo'lardi.

¹ *Sekvestr* — hibsga olingan kemalar vaqtincha keltirib qo'yiladigan maxsus suv havzasi.



— Nega unday deb o'ylayapsiz? Xo'sh, nimadan shubha qilayapsiz? — deb so'radi gubernator.

Gubernatorning aql-farosati haminqadar edi. Muttasil bezgak kasali bilan og'rigani va mukkasidan ketguncha portveyn¹ ichavergani tufayli esi ancha zaiflashib qolgandi.

— Stid Bonnet bilan bo'lib o'tgan voqea yana takrorlanmasmikin, degan gumondaman, ser!

— Gumondaman? Bu nima deganingiz? Xo'sh, o'sha Stid Bonnet voqeasini menga aytib bering-chi.

— Gubernator janoblari! Stid Bonnet katta-katta shakarqamish plantatsiyalari egasi edi, — deya so'zini davom ettirdi Kingston komendanti Garvey. — Sizga aytsam, u o'ta boy bo'lishi bilan birga odamlar orasida yuksak ahloq sohibi, taqvodor zot sifatida yaxshi nom qozongandi. Ammo kunlardan bir kun o'sha Stid Bonnet deganlari bir katta kemani zambaraklar bilan imi-jimida jihozlab, dengizga chiqib ketib, qaroqchilik bilan shug'ullana boshladi. Hammani hayratga solgan bu voqea duv-duv gap bo'lib ketib, avom xalq bu ishda hukumatni ayblagandi. Ular Stid Bonnet katta pora evaziga gubernatorni o'z tomoniga og'dirib olib, qaroqchilikdan topgan boyligining bir qismini u bilan bo'lishib yuribdi, degan mish-mish tarqatib yuborishgandi.

Gubernator mayorning gapini eshitib rangi o'zgardi-yu, ammo sir boy bermadi.

— Nima ham derdim, Garvey, — dedi u xotirjamlik bilan, — Kopli Benksning ko'nglini ranjitadigan chora qo'llash men uchun oson emas, albatta. Negaki, u bilan ko'p marotaba birga tushlik qilganman, sinashganman, qolaversa, ikkimiz qalin do'stmiz. Modomiki, gumoningiz bor ekan, unda sizga Benksning kemasida tintuv o'tkazib, aslida gap nimada ekanini tekshirib ko'rishga ijozat beraman.

¹ *Portveyn* — portugallarning o'tkir musallasi.



Shunday qilib, ertasiga ertalab mayor Garvey bir guruh askarlar bilan «Jangari Garri»ni tintuv qilgani keldi, ammo bandargohda kemandan nom-nishon ham yo'q edi. Garvey va gubernator o'rtasida bo'lib o'tgan gapdan xabar topgan Kopli Benks allaqachon moviy dengiz uzra suzib ketayotgandi.

Ertasiga saharda, «Jangari Garri» kemasi Morant shahri bandargohiga kelganda, Kopli Benks jamoani atrofiga to'plab, ularga o'z rejasini ochiqchasiga bayon etdi. Xususan u shunday dedi:

— Men bu qaltis ishga sizlarni janglarda toblangan, chapdast va iblisdan ham qo'rqmaydigan dengizchi deb hisoblaganim uchun tanladim. Ishonchim komilki, qashshoqlikda yashagandan ko'ra, men bilan qaroqchilik qilib, mo'may pul topishga rozilik berasiz. Qo'rqishga esa jiddiy sababning o'zi yo'q, buni bilasiz. Dengizda suzib yurgan kemalar bizdan ancha kuchsiz. A'lo darajada qurollangan kemamiz yordamida har qanday savdo kemasiga bas kela olamiz. Boshqalar bu ishni uddalayaptiku, axir. Ulardan qayerimiz kam? Qachongacha zabunlikda yashaysiz? Ko'kragingizga qachon shamol tegadi? Bilaman, hozir egnigingizda uvadasi chiqqan kamzuldan bo'lak hech vaqoyingiz yo'q. Bir tavakkal qilsak, boyib ketamiz. O'shanda pichog'imiz yog'da, deyavering. Men sizlarga qo'mondonlik qilaman. Mabodo, kimgadir taklifim yoqmayotgan bo'lsa, bir qadam oldinga chiqsin. Taklifimga ko'nmaganlar bermalol Yamaykaga qaytib ketishi mumkin, ularga qayiq beriladi.

Kopli Benksning otashin nutqidan so'ng kemadagi qirq olti matrosdan faqat to'rt nafarigina qaroqchi bo'lishni istamay, kemadan tushib qolishdi. Ularning ketidan butun jamoa hushtak chalib, qiyqirgancha masxaralab qoldi. Talonchilikni bo'yniga olganlar «Qaroqchilar nizomi»ga imzo chekishdi. Kema jamoasining jo'shqin hayqirig'i ostida machtaga odamning bosh chanog'i tasviri tushirilgan qora bayroq ko'tarildi. Yangi qaroqchilar o'z oralaridan zobitlarni saylab olishdi, ammo ularning huquqlari kapitanga nisbatan ancha cheklangan edi. Kopli Benks bir ovozdan kapitan etib saylandi. Qaroqchilar kemasida shturman lavozimi



hech qachon bo'lmagan, shuning uchun Berzmark Svitloks kvartirmeyster etib tayinlandi, Izrael Martinga esa botsmanlik vazifasi berildi.

«Qaroqchilar nizomi» hech qanday moneliksiz tasdiqlandi, chunki matroslarning naq yarmisi avval ham qaroqchilar kemasida xizmat qilgandi. Mazkur nizomga ko'ra hammaning ovqati, lavozimidan qat'i nazar, bir xil bo'lishi lozim edi. Sharob-u musallas masalasiga kelsak, uni istagan vaqtda, istagan miqdorda ichishga ruxsat berilgandi. Kapitanning alohida o'z kayutasi bo'lib, unga matroslarning biror masala yuzasidan kirishi ta'qiqlanmagandi. O'lja hammaga barobar taqsimlanishi lozim bo'lsa-da, kapitan, kvartirmeyster, botsman, duradgor va zambaraklar bo'limi boshlig'ining ulushi boshqalarnikiga nibatan sal ko'proq qilib belgilangandi. Savdo kemasini birinchi bo'lib payqab qolgan qaroqchi shu kemadan o'lja olingan qurolning eng yaxshisini tanlab olish huquqiga ega bo'lardi. Dushman kemasi palubasiga birinchi bo'lib otilib tushgan qaroqchi esa, qo'lga kiritilgan eng yaxshi kiyim-kechakni tanlab olishga haqli edi. Har bir qaroqchi o'z asiri yoki asirasi bilan o'zi istagancha xo'jayinlik qilish huquqiga ega edi. Qo'rroq qaroqchini kvartirmeyster hatto otib tashlashga ham haqqi bor edi. Yangi qaroqchilarning nizomida aynan qayd etib o'tilgan yuqoridagi qoidalar bitilgan edi. Nizomning tagida esa qirq ikki qaroqchining imzosi turardi.

Shunday qilib, Karib dengizida qaroqchilarning yangi to'dasi paydo bo'ldi. Bir yil o'tar-o'tmas esa, «Jangari Garri» ham «Omadli Xaloskor» kemasidek savdo kemalariga qiron keltira boshladi. Kopli Benks Amerika qit'asi qirg'oqlarida Sharkiga bas kela oladigan munosib raqib va savdo kemalariga dahshat soluvchi qaroqchilar sardoriga aylandi. Ammo «Jangari Garri» aynan qaroqchi Sharki izg'ib yurgan hududlardagi kemalarni talab yursa-da, ular biror marotaba ham bir-biriga to'qnash kelmagani o'ta ajablanarli edi.

Va nihoyat, kunlardan bir kun, o'sha daqiqa ham yetib keldi. Kopli Benks kemasini ta'mirlash maqsadida Kuba orolining sharqiy qismidagi



uncha katta bo'lmagan ko'rfazlardan biriga olib keldi. «Jangari Garri» ko'rfazga kirib kelganida kapitan Sharkining «Omadli Xaloskor» kemasi ham aynan shu yerda edi. Kopli Benks zambarakdan o't ochib, qaroqchilar kemasini qutlashni va oliyjanob qaroqchilar urfiga ko'ra machtaga ko'k bayroq ko'tarishni buyurdi. Shundan so'ng u olti eshkakli katta qayiqqa o'tirib, mehmon sifatida «Omadli Xaloskor» kemasi tomon suzib bordi.

Sharki qaroqchilar orasida nihoyatda qabih fe'l-atvori bilan ajralib turardi. U hatto qaroqchilik qilayotgan «hamkasb»larini ham mensimas edi.

Kopli Benks palubaga chiqqanda Jon Sharki zambaraklardan birining ustida o'shshayib o'tirgandi. Uning yonida esa kvartirmeyster Ned Gallovey va bir necha turqi sovuq qaroqchilar turgandi. Ammo basharasi xuddi vahshiy hayvonga o'xshagan qaroqchilar kapitani ularga ham bir o'qrayib qarab qo'ysa bas, bir zumda yuvosh tortib qolishardi. Sharki egniga qizil shoyi ko'ylak kiyib olgan, yelkasiga ilingan olachipor tasmada kalta qilich, keng qora kamarida esa bir yo'la ikkita to'pponcha osilib turardi.

Kopli Benks kemaga chiqib kelishi bilan Sharki unga qarab dag'dag'a qila ketdi:

— Qo'lga tushdingmi, o'g'ri! Shoshmay tur hali, joningni sug'urib olmasam, yurgan ekanman. Menga tegishli ko'rfazda baliq ovlashga qanday jur'at qilding, la'nati talonchi?

Kopli Benks ham bo'sh kelmay, Sharkiga o'ljasiga tashlanmoqchi bo'lgan bo'riday qarash qilib dedi:

— Sen haqsan, Sharki! Haqiqatan bu ummon ikkimizga torlik qilyapti. Bu bahrul ummon qo'ynida yo sen, yo men qolishim kerak, zero bir qinga ikki qilich sig'mas, degan gaplar bor. Mard bo'lsang qilich va to'pponchangni olib qirg'oqqa yur, kuch sinashamiz. Ummonning egasi kim ekanini yakkama-yakka olishuv hal qilsin.



Sharki zambarakdan irg'ib tushib kelib, samimiylik bilan Kopli Benksga qo'l uzatdi.

— Mana bu haqiqiy qaroqchining javobi bo'ldi! — deb hayqirdi u. — Shu choqqacha Jon Sharkining ko'ziga tik qarab gapirishga yuragi dov bergan odam uchramagan, gapimga ishonaver. Agar sendek mard qaroqchi bilan do'st bo'lmasam, jin ursin meni. Mabodo munofiqlik qilsang bormi, mendan muruvvat kutma. Bilib qo'y, o'z kemangga naq peshonangdan mixlab qo'yaman-a.

— Sen ham u qulog'ing bilan ham, bu qulog'ing bilan ham eshitib ol, mug'ombirlik qiladigan bo'lsang, men ham ayab o'tirmayman, — deb miyig'ida kuldi Benks.

Shu kundan e'tiboran qaroqchilarning ikki sardori og'ayni bo'lib olishdi.

Yoz kunlarining birida ikki qaroqchining kemasi shimolga qarab suzdi va Amerikaning shimoli-sharq sohili yaqinidagi Nyu-Faundlend oroliga kelib, Yangi Angliyadan kelayotgan savdo va kit ovlovchi kemalarni talay boshladilar. Liverpul bandargohiga tegishli «Gannoverlar Xonadoni» nomli qimmatbaho mol to'la kema Kopli Benks tomonidan qo'lga olindi. Shaxsan Jon Sharkining buyrug'iga ko'ra, sho'rlik kema kapitani machtaga bog'lab qo'yilib, musallasdan bo'shagan shishalar bilan to o'lguncha do'pposlandi.

Kopli Benks va Jon Sharki birga inglizlarning «Saodatli Qirol» harbiy kemasiga qarshi ayovsiz jangga kirdi. Qaroqchilar fonuslar yorug'ida baralla qo'shiq aytib, mast holda jang qilishdi. O'shanda har bir zambarak yoniga bir chelak rom va gazak uchun non qo'yib qo'yilgandi. Oqibatda qaroqchilarni ta'qib qilish uchun yuborilgan harbiy kema besh soat davom etgan qonli olishuvdan so'ng qaroqchilar zambaragi zarbasiga dosh bera olmay, yarim tunda dengizga g'arq bo'ldi. Hayot-mamot jangidan so'ng qaroqchilar Shimoliy Karolina-ning ko'rfazlaridan birida kemalarini ta'mirlash ishlari bilan mashg'ul bo'lishdi. Bahor kelgach, ular Karib dengizida talonchilikni davom

ettirishga tayyorgarlik ko'rishlari lozim edi. Shu sababli endi Bagam orollari arxipelagining janubi-sharqiy qismida joylashgan fusunkor Grand Kaykos oroli tomon suza boshlashdi.



Shu davr ichida Jon Sharki va Kopli Benks juda qadrdon do'st bo'lib qolishdi. Sharki o'zi kabi razil odamlarni yoqtirar, bag'ritoshlarni himmat bilan siylardi. U Kopli Benksni shafqatsizligi uchun ham, irodasi kuchli bo'lgani uchun ham qadrlardi. Sharki tabiatan hamma narsaga shubha bilan qaraydigan odam bo'lgani uchun ham «sinalmagan otning sirtidan o'tma», degan naqlga qat'iy amal qilib, uzoq vaqt do'stiga ishonqiramay yurdi. U bilan faqat o'z kemasidagina uchrashar va yakka o'zi yurmas, odamlaridan hech ayrilmasdi.

Ammo Kopli Benks Sharki uni qayerga chaqirsa, o'sha yerga dadil boraverar, haddan tashqari yoqimsiz mayxo'rlik bazmlarida qo'rqmay ishtirok etardiki, oxir-oqibatda Sharki undan xavfsirashni bas qildi. Zero u Kopli Benks yurak-yuragida unga nisabatan xotini va farzandlari o'chini pinhona saqlab yurganidan mutlaq bexabar edi. Illo shafqat nima bilmas Sharki umrida shu darajada ko'p jinoyatlar sodir etgan ediki, qanchadan-qancha begunoh ayol va bolalar umriga zomin bo'lganini eslab ham o'tirmasdi.

Kunlardan bir kun, ya'ni «Jangari Garri» va «Omadli Xaloskor» kemalari Grand Kaykos oroli sohili yaqinida yonma-yon langar tashlab turib qolgan kuni, Kopli Benks Sharki va uning kvartirmeysteri Ned Galloveyni o'z kemasiga kechki ovqatga chaqirdi. Sharki bu taklifni bajonidil qabul qildi.

Qaroqchilar bir hafta ilgari qaroqchilar yo'lovchi tashiydigan kemani talab, ancha-muncha boylikka ega bo'lib olishgani boisidan ham mehmondorchilik nihoyatda quyuq bo'ldi. Ziyofatdan so'ng ichkilik-bozlik boshlandi. Kapitanning kayutasida besh kishi, ya'ni ikki kapitandan tashqari Berzmark Svitloks, Ned Gallovey va Izrael Martin bor edi. Xizmatda ish yurituvchi soqov Berzmark Svitloks bo'ldi.



U haddan tashqari sharobni imillab quygani uchun Sharki jahli chiqqanidan qadah bilan uning boshiga tushirdi. Buni ko'rgan Ned Gallovey kapitaniga sezdirmay to'pponchasini olib qo'yish harakatini qila boshladi. Negaki Sharki g'irt mast bo'lib qolgan chog'lari stol tagidan qarshisida o'tirgan odamning kim ekanligiga qarab o'tirmay, oyog'iga qarab otadigan bema'ni qilig'i bor edi. Bir paytlar kayfi oshib qolgan Sharki arzimagan narsaga jahl qilib, o'z botsmanining oyog'idan yarador qilgandi. Devqomat Ned bir bahona bilan Sharkining to'pponchasini olib, ularni kayutaning bir burchagiga berkitib qo'ydi.

«Jangari Garri» kemasi kapitani kayutasi kemandi quyruq qismidagi palubada joylashgandi. Aynan shu yerda tumshug'i katta zambarak ham bo'lib, uning atrofiga zambarakning dumaloq o'qlari terib qo'yilgandi. Poroxlar ham aynan shu yerdagi yashiklarda saqlanardi. Kayutada besh qaroqchi baqirib qo'shiq aytib, tinmay mayxo'rluk qilishda davom etardi. Soqov Svitloks qo'li-qo'liga tegmay qadahlarga musallas quyish va qutichadagi sigaralarni uzatish bilan ovora edi. Maishat zo'rligidan o'tirganlarning tili aylanmay, mutlaqo aljib qolishdi. Nihoyat, ulardan ikkitasi o'lguday mast bo'lganidan stol tagiga ag'anab tushib, dong qotgancha uyquga ketdi. Stol atrofida endi faqat ikki kishi qolgandi, bu — Kopli Benks va Sharki edi. Birinchisi kam ichganligi uchun bo'lsa, ikkinchisi hech qachon mast bo'lmagani uchun mayxo'rlukni davom ettiraverdi. O'tkir musallas-u sharob asablari temirdek metin bo'lib ketgan Jon Sharkiga zig'ircha ham ta'sir qilmasdi. Svitloks Sharkining orqasida turgancha miq etmay soqiylikni davom ettirardi.

Tashqaridan dengiz to'lqinlarining shovullashi va qo'shiq ovozi kelib turardi. Bu ovoz «Omadli Xaloskor» kemasi qaroqchilarining ovozi edi. Qo'shiq kayutada aniq eshitilib turgani bois Kopli Benks va Sharki qo'shiq so'zlariga diqqat bilan quloq solib indamay o'tirishdi. Benks soqov ish yurituvchiga ko'z uchi bilan qarab imo qildi, u kapitanning ko'zidan nima qilish kerakligini tushunib, Sharkiga sezdirmasdan qo'liga tokchaga avvaldan joylab qo'ygan arqonni oldi.

— Kapitan Sharki, — deya gap boshladi Benks, — Londondan kelayotgan «Gertsoginya Kornuelskaya» kemasi esingizdami? Yanglish-masam, siz uni avval talab, keyin cho'ktirib yuborgan edingiz, shundaymi?



— Men talagan va cho'ktirib yuborgan kemalarning son-sanog'i yo'q, nomlari esimda turarmidi, jin ursin ularni, — deb javob berdi Sharki. Sizga aytsam, ayni shu kezlari bir haftaning ichida o'nta kemani dengiz tubiga joylaganman.

— Kemadagi yo'lovchilar ichida ikki bolali ayol ham bor edi. Balki bu voqeani eslay olarsiz?

Kapitan Sharki stul suyanchig'iga o'zini tashlab, o'sha voqeani eslashga harakat qildi va birdaniga otning kishnashiga o'xshash kulgi bilan qah-qah ura boshladi:

— Ha, ha, bu voqeani esladim chog'i, — deb u bo'lgan voqeani Benksga hikoya qilib berdi.

Gapini tugatgach, Sharki so'radi:

— Ammo shunisi qiziq-ki, nimagadir bu voqea yodimdan chiqib ketibdi. Ayting-chi, Benks, nima uchun «Kornuel Gertsoginyasi» kemasi bilan qiziqib qoldingiz?

— «Kornuel Gertsoginyasi» kemasining cho'ktirilishi va undagi ayolning farzandlari bilan birga qo'shib o'ldirilish tafsilotlarini bilish men uchun juda muhim edi, — deb javob berdi Benks. Chunki sen ablah juvonmarg qilgan ojiza mening suyukli xotinim, o'spirinlar esa jondan aziz o'g'illarim edi.

Jon Sharki oshnasi Benksga baqrayib tikilib qoldi. Uning ko'zlarida doim qandaydir shubhali uchqunlar mitillab ko'rinib turgan bo'lsa, endi bu uchqunlar dahshatli olovday lovillab yonardi. Sharki muqarrar o'lim yoqasida turganini tushundi.

U chaqqonlik bilan kamarini paypaslab qo'liga qurol olmoqchi bo'ldi, ammo to'pponcha g'ilofi bo'sh edi. U nima bo'lsa ham qo'liga yarog' olish uchun atrofiga alangladi, ammo orqada turgan soqov Svitloks ko'z



ochib-yumguncha qaroqchi Sharkining oyoq-qo'lini arqon bilan chandib tashladi.

Sharki jon holatda o'zini u yoqdan-bu yoqqa urib, yovvoyi mushukday chinqirishga tushdi.

— Ned! — deb baqirardi u. — Uyg'onsang-chi, Ned! Xiyonat, xiyonat qilishdi! Yordam ber, Ned, yordam bersang-chi!

Ammo Sharki har qancha qichqirmasin qaroqchi do'stlari uni eshitmas, o'larday ichganidan toshday qotib, uxlab yotishardi. Benks va soqov Svitloks Sharkini ikkovlashib ko'tarib poroxli bochka yoniga yotqizib, og'ziga latta tiqib qo'yishdi. Endi u sheriklarini yordamga chaqira olmas va faqat tepasida turgan dushmanlariga qahr bilan qarab yotar, uning jirkanch ko'zlarida alamli nafrat uchqunlari porlar edi.

Svitloks xursandligini ichiga sig'dira olmaganidan kuchli hayajonini bosolmay allanimalar deb to'ng'illardi. Sharki, axiyri, bu odamning tili yo'qligini va u ham qasoskor ekanini, uzoq vaqt davomida sabrtoqat bilan intiqom kunini poylab yurgan odamlardan biri ekanini fahmladi.

Benks va Svitloks ko'zlagan qasosini amalga oshirishga kirishdilar. Ammo bu reja hiylagina murakkab bo'lib, uni ado etish nihoyatda ehtiyotkorlikni talab etardi. Ular ikkita porox solingan bochkani ochib, poroxlarni stol va kayuta sahniga, ayniqsa ikki qaroqchi mast uxlab yotgan yerga ko'proq sepib chiqishdi. So'ng Sharkini sudrab kelib, kallasini zambarak tumshug'iga to'g'rilab, boylab qo'yishdi. Svitloks qaroqchilar sardorini zambarak ustiga chalqancha yotqizib, shu darajada qattiq chandib bog'lagan ediki, u hatto qimir eta olmasdi. Qonxo'r qaroqchi o'z ajalini shu zaylda kuta boshladi.

— Ana endi, kasofat, gaplarimni eshit! — dedi xotirjamlik bilan Kopli Benks. — Zero, ushbu so'zlar bu yorug' dunyoda sen eshitadigan eng so'nggi so'zlar bo'ladi. Sen to'ng'izni osonlikcha qo'lga tushirganim yo'q. Tuzoqqa ilintirgunimcha ikki yil davomida sen kabi ne-ne razillikka qo'l urishga, odamlarni talashga, ularga ozor yetkazishga majbur

bo'ldim. Gunoh ishga qo'l urib, Tangri qahriga uchradim. Eng yomoni shu bo'ldiki, sen bilan og'ayni bo'lishimga, bir havodan nafas olishimga to'g'ri keldi. Ammo doim bir maqsad bilan — sendek ablahdan intiqom olish maqsadi bilan yashadim. Mana endi men istagan tarzda o'lim topasan va ajdoding bo'lgan iblis huzuriga ravona bo'lasan.

Sharki qasoskorning dahshatli dil rozini eshitarkan, qulog'iga «Omadli Xaloskor» kemasidan uning kayfi taraq sheriklarini qo'shig'i chalinardi:

*Amerika tomondan shamolday yelib kelar,
Oltin-u kumush to'la tijoratchi kemalar.*

*Biz ularni talaymiz, ov kelsa baroridan,
Odamlarini so'ysak, kema dengiz qa'rida.*

*Ey, Ona ummon, senga baxsh etamiz kemani,
Bizga esa kumush zar, oltin qolsa bo'lgani...*

*Qandingni ur qaroqchi, aysh-ishrat-la o'yna, kul,
Adolatsiz zamonda vijdon degani bir pul.*

*Kel, birodar, hurliqo jononni tort bag'ringga,
Bizlar — ummon egasi, shukrona ayt Tangriga...*

Bizlar — ummon egasi, shukrona ayt Tangriga ...

Jon Sharki qo'shiqni jimgina tinglab yotarkan, ikki qasoskorning oyoq tovushlaridan ular yaqinlashib kelayotganini sezdi. Qo'shiqdagi ham o'ynoqi, ham alam-iztirobli so'zlar o'lim bilan olishayotgan qaroqchining yuragini yanada qattiqroq tirnardi.

O'lim dog'uli Sharkini benihoya vahimaga solsa-da, uning moviy ko'zlaridagi qahr alangasi zinhor pasaymagan, u hamon yovuzlarcha porlab turardi. U o'ta murakkab tugunlar bilan zambarakka chandib tashlangan, na qimirlay va na ingray oladigan holatda ich-ichdan





g'azab-u alam o'tida yongancha yotaverdi. Uning kemasidan esa qo'shiq eshtilib turardi:

*Bo'g'izla savdogarni, tirqirasin qirmiz qon,
Ayamay qilich solgin, jasadga to'lsin ummon.*

*Ayol-u go'dak demay, yosh-u qari barobar,
Barchasini gumdon qil, gunohdan qilma xazar.*

*Jon-u molini olgin, o'zingniki qil tayin,
Qancha beshafqat bo'lsang, dong'ing chiqar kun sayin.*

*Qora bayroq ostida, kerib yurgin yelkangni,
Kemang o'ljaga to'lsa, ko'taraver yelkanni...*

*Ana yam-yashil sohil, unda chorlagay baxting,
Balki seni kutmoqda dor bo'lguvchi daraxting...*

*Ne bo'lsa ham taqdirdan, may to'la jom sinmasin,
Doim jangga turgin shay, jasorating so'nmasin...*

Doim jangga turgin shay, jasorating so'nmasin...

Shu vaqt Kopli Benks zambarakni o'qladi-da qo'liga sham olib, uning uchini kesib tashladi, keyin piligini chiqarib, zambarakning porox turadigan qismi yoniga qo'ygach, paluba sahniga yana poroxdan sepib chiqdi. Uning rejasi endi ma'lum edi. Sham yona-yona zambarak piligiga yetib kelgach, o'q otilib, qaroqchining boshini uzib tashlashi, shunda bir yo'la kema sahnidagi porox ham alanga olib, butun kemani osmon-u falakka uchirib, uning zarbidan «Omadli Xaloskor» kemasi ham suvga g'arq bo'lishi kerak edi.

— Xo'sh, iblis Sharki, odamlar qanday o'lishini zavqlanib tomosha qilishni xush ko'rarding-a? — dedi Benks. — Mana endi sening ham galing keldi. Ablah sheriklaring bilan birga narigi dunyoga ravona bo'lasan.


Benks g'olib edi... U shamni yoqib, asta nari ketarkan, Sharkining hali ham tavbasiga tayanmagan, nafrat to'la nigohiga nazari tushdi. Shamning nim yorug'ida uning fil suyagidek zahil yuzi, johilona iljayishi, keng peshonasidan dona-dona bo'lib chiqqan sovuq ter yaltirab ko'rinib turardi. Yovuz Sharkining o'lim oldidagi holati shunday edi.

Kopli Benks va uning soqov yordamchisi avvaldan tayyorlab qo'yilgan qayiqqa o'tirib, qirg'oqqa qarab suza boshlashdi. Eshkakni zo'r berib eshib ketisharkan, palma daraxtlari panasida g'oyib bo'la boshlagan qaroqchilar kemasiga qarab-qarab qo'yishardi. Shu payt sokin tunda zambarakning gulduros ovozi eshitildi, lahza o'tmay quloqlarni kar qilgudek portlash yuz berdi.

Ikki yonma-yon turgan haybatli kema havoga ilkis ko'tarildi-da, so'ng ko'rfaz tubiga g'arq bo'ldi. Qirg'oqqa o'lim talvasasidagi qaroqchilarning alamli dod-faryodi eshitildi, so'ng atrofga yana og'ir jimlik cho'kdi. Bu qonxo'r va zolim to'daga kirgan yaramaslar birvarakay dengiz tubiga g'arq bo'lgandi...

Shu lahzalarda qasoskor Kopli Benksning qalbi masrurlik hissi bilan to'la edi... U soqov sherigining yelkasidan ushlab, bu mash'um sohildan sekin-asta nari suzib keta boshladi...

1897, may.





SESASSA VODIYSINING SIRI

(Sarguzasht hikoya)

Jentelmenlar, agar mendan Tom Donaxyuni odamlar ne sababdan «Omadli» Tom deb atashlarini bilasizmi, deb so'rasangiz, «Ha, albatta!», deya javob beraman. Holbuki, do'stim Tomni shu choqqacha omadli sanab yurganlarning loaqal o'ntasidan bittasi ham buning asl sababini bilmaydi. Dunyo kezgan, ancha-muncha sirli voqea va aql bovar qilmas hodisalarning guvohi bo'lgan esam-da, peshonasi yarqiragan bu do'stim «omadli» degan laqabga ham, afsonaviy boylikka ham favqulodda g'aroyib bir hodisa tufayli ega bo'lgani, hatto mendek jahongashta insonni ham hayratga sola olib qo'ygandi. Tagini surishtirsangiz, ayni o'sha hayratli voqealar sodir bo'lgan chog'larda Tomning ko'zdek do'sti Jek Trenboll, ya'ni kaminayi kamtarin ham Tom bilan birga edim.



Aslida nima voqea yuz berganini batafsil hikoya qilib beraymi? Vaqtimni ayamayman, desangiz, mayli; marhamat, unda eshiting. Avvaldan aytib qo'yay, Tom boshidan kechirgan sarguzashtning tarixi nainki uzun va o'ta g'ayrioddiy, balki kutilmagan tasodiflarga boy hamdir. Shu boisdan ham hikoyamni maroq bilan tinglayman desangiz, yana bir sigarani tutatib, qadahingizni to'ldirib oling.

Hali aytganimdek, ushbu hikoyamning har qanday sehrli afsona yoki bo'lmasam vahimali sarguzasht qissalardan hech qolishadigan joyi yo'q. Menga ishoning ser, sizga aytajak barcha hodisalar va har bir so'zim chin haqiqat. Buning tirik guvohi bo'lgan odamlar hozir ham Kap koloniyasida¹ istiqomat qilishadi va mabodo, kerak bo'lsa, ular yolg'on so'zlamayotganimga ont ichib guvohlik berishlari ham mumkin.

Bu ajabtovur voqea haqida hatto Sariq shtatdan² to Grikvalendga³ cho'zilgan yerlarda Yevropadan ko'chib kelib fermerlik qilayotganlar ham kechalari olov atrofiga to'planishib, xaroba kulbalarida ko'p qizg'in suhbatlar qilishgan. Tomning boshidan kechirganlari, nainki Grikvalendda qolaversa, Afrika qit'asining janubidagi o'rmonzorlarda tirikchilik qiluvchilardan tortib, to olmos konlarida ishlayotganlar orasida ham duv-duv gap bo'lgan.

Gapning ochig'ini aytsam, hozir men halovatli hayotni xush ko'raman. Ammo avvallari, eh, nimasini aytay, hayotim juda jo'shqin o'tgan. Bir paytlar Middl-Templ⁴da advokatlikka o'qiganman. Tom o'sha dargohda kursdoshim bo'lgandi. Eh, o'sha yillar ikkimiz cho'ntagimizda to bir

¹ *Kap koloniyasi* — 1652-yili Janubiy Afrikada asos solingan mustamlaka hudud bo'lib, yillar o'tib u yerga yevropaliklar ko'chib kelib yashay boshlagan muzofot.

² *Sariq shtat* — Afrika qit'asi janubida 1830-yillarda asos solingan mustamlaka muzofot, hozirda Janubiy Afrika Respublikasi tarkibida.

³ *Grikvalend* — Afrika qit'asi janubidagi mustamlaka hudud, hozirda Janubiy Afrika Respublikasi tarkibida.

⁴ *Middl-Templ* — Londondagi mashhur yuridik uyushma, u yerda oliy sud instansiyalari uchun advokatlar tayyorlangan.



chaqa qolguncha davr-u davron surganimiz hali-hamon esimda. Hamyoni-miz bo'shab, tamomila mablag'siz qolgach, uzoq o'lkalarga ketib, «yo ostidan, yo ustidan», qabilida tavakkaliga baxtimizni sinab ko'rishga, «shijoatli va iqtidorli ikki yigit nimalarga qodir ekanini hammaga ko'rsatib qo'yishga» qo'l tashlashib ont ichgandik.

O'shanda oltin konlarini topish ilinjida Afrikadagi mustamlaka o'lkalarga ko'chib borish endi-endi boshlangan davrlar edi. Tom va men ham «Omad qushi» bizni aynan Afrikada, aniqrog'i qit'aning janubidagi Kap koloniyasida kutyapti, deb hisoblab, safarga otlandik. Xullas, biz o'tirgan kema Keyptaunga kelib langar tashlaganida cho'ntagimizda besh funtdan boshqa hech vaqomiz yo'q edi. Biror-bir tayinli ish boshlash uchun kerak bo'ladigan dastmoya haqida gapirmasam ham bo'ladi. Har qaysimiz alohida o'z kuch va qobiliyatimizni sinab ko'rishga qaror qilib, bandargohda xayrlashdik. Uch yil davomida boshimizdan ko'p yaxshi-yomon kunlar o'tdi. Ammo bir kun, tasodifan, taqdir bizni yana uchrashtirdi. Lekin ming afsuslar bo'lsinkim, mening ham, do'stim Tomning ham ahvoli avvalgidan yomon bo'lsa yomon ediki, zinhor yaxshi emasdi.

Ochiqroq aytganda, maqtangulik hech bir yutug'imiz yo'q edi. Ichganimiz yovg'on sho'rva-yu, yeganimiz zog'ora non edi, xolos. Ikkimiz o'sha kezlari shu darajada tushkun holda edikki, do'stim Tom hatto «Bu ketish bo'lsa, ikki dunyoda ham birimiz ikki bo'lmaydi. Angliyaga qaytib ketib, biror-bir idoraga oddiy xizmatchi bo'lib yollansakmikan» deya taqdirdan nolishga tushib qolgandi. Ammo biz o'sha uqubatli damlarda omadimiz hali oldinda ekanini bilmas va bu dunyodan ro'shnolik ko'rmay o'tib ketsak kerak, deb o'ylardik.

Kap koloniyasida aholi juda kam edi; bu yerda yovvoyi qabilalardan himoyalaniş uchun atrofi yog'och bilan nomigagina o'rab qo'yilgan sanoqli chorvachilik fermalari bor edi, xolos. Tom Donaxyu ikkimiz changalzorlar orasida naridan-beri, shox-shabбалardan qurilgan kulbada xavf-xatar bilmay, bamaylixotir yashardik. Boisi — birinchidan bizda

talonchilar tortib oladigan hech vaqo topilmas va ikkimizda ham miltiq bo'lib, ulardan qo'rqadigan joyimiz yo'q edi. Xullas, ikki do'st shoyad bir kunmas bir kun tole bizga ham kulib boqar, degan umid bilan bir amallab kun kechirardik.



Ammo chamasi oradan bir oy o'tar-o'tmas, bir kuni kechasi mutlaq tasodif ila yuz bergan voqea hayotimizni butunlay ag'dar-to'ntar qilib yuborib, odam qatoriga qo'shilishimizga sabab bo'ldi. O'sha baxtli voqea qanday sodir bo'lgani hali ham hozirgidek esimda. Ayni o'sha kechasi g'aribona kulbamiz kuchli shamoldan sochilib ketishiga bir bahya qolgan, boz ustiga to tongga qadar tinimsiz yomg'ir yog'ib chiqqandi. Sovuqqa chiday olmay, o'choqqa o'tin qalab, isinib o'tirgandik. Men qarag'ay shoxlari chirsillab yonayotgan olov yoniga muk tushgan ko'yi allanima bilan mashg'ul edim. Karavotda yotgan Tom esa taqdir bizlarni Xudo urgan yerga olib kelib tashlaganidan diqqati oshib, og'ziga kelgan so'z bilan qarg'anardi.

— Nolishni bas qil, Tom, eshityapsanmi? — dedim unga. Noumid — shayton, deyishgan. Kuyunaverma do'stim, niyatingni yaxshi qil. Xudo yor bo'lsa, hali omad oldimizda!

— Jin ursin, Jek, o'sha sen aytgan omad qayerda o'zi? Qaysi ishga qo'l urmay, sira o'ngidan kelmayapti, — dedi u menga. O'zi toleyim azaldan past ekan, shekilli. Eh, birodar nimasini aytay, Angliyadan kechagina kelgan qalang'i-qasang'ilarning cho'ntagi to'la pul, men esa bu la'nati o'lkada uch yildan buyon tinim bilmay ishlasam-da, kemadan tushganimda qanday nochor bo'lgan bo'lsam, hanuzgacha o'shanday qashshoqman. Ne gunoh qildimki, Tangri mendan marhamatini bunchalar darig' tutadi? Nima balo, menga qarg'ish tekkanmi, deyman? Eh, Jek, og'ayni, basharti ishim yurishsin, kosam oqarsin, desang, mendan ayricha yurganing ma'qulga o'xshaydi-yov?!

— Behuda gaplaringni qo'y, do'stim, toleyingdan ko'pam o'pkagina qilaverma. Bugun kayfiyating buzuq bo'lganidan jining qo'zigan



ko'rinadi. Qara, kulbarnizga kimdir kelyapti, shekilli. Bo'y-basti-yu qadam tashlashidan Dik Uortonga o'xshaydi. Zora Uorton kayfiyatingni ko'tarsa, yo'qsa, ta'bing judayam tirriq bo'lib ketibdi.

Gapimni tugatmasimdan eshik lang ochilib, ostonada o'ta odamshavanda va dilkashligi bilan barchaning mehrini qozongan Dik Uorton paydo bo'ldi. U yomg'irda ivib usti-boshi shalabbo bo'lgan, biroz qizaribroq turuvchi samimiy chehrasi nim qorong'uda xuddi to'lin oyga o'xshab ko'rinardi. Dik kiyimlarini qoqib-suqib, biz bilan salomlashdi va gulxan yoniga kelib o'tirdi.

— Yog'in-sochinda, tag'in tunning qoq yarmida ne sababdan daydib yuribsan? — so'radim undan. — Dik, birodar, chamamda bod degan la'nati kasal har qanday odamni yiqita olishidan xabaring yo'q ko'rinadi. Bilib qo'y, kechalari yomg'ir tagida yurishni bas qilmasang, tez kunda ko'rpa-yostiqliq qilib olishing aniq, — dedim unga do'stona tanbeh ohangida.

Dik ko'rinishidan o'ta bezovta edi. Mabodo Dik Uortonni yaxshi bilmaganimda, hozir unga qarab, bir narsadan qattiq qo'rqqan bo'lsa kerak, deb o'ylagan bo'lardim.

— Demak, kerak ekan-ki yuribman! Bo'lmasa, shunday rasvo havoda ko'chada sang'ishga balo bormi? — dedi u jiddiy ohangda. Medisonning sigirlaridan biri podadan ajralib Sesassa vodiysiga ketib qolibdi. Turgan gapki, bunaqa havoda qora tanli qarolim u yerlarga borishga rozi bo'lmadi. Bilasan, qorong'i tushgandan keyin o'sha vodiya aqli butun biror kimsa o'lsa ham bormaydi. Tong otishini kutadigan bo'lsam, moldan ayrilib qolishim turgan gap edi.

— Qiziq, qaroling sigiringni qidirishdan nega bosh tortdi? Bor yo'g'i kech tushgani uchun vodiya borgisi kelmadimi? — deya qiziqdi Tom.

— Xoynahoy o'sha vodiya yashaydigan yovvoyi odamxo'rlardan qo'rqqan bo'lsa kerak-da, — deya gap qistirdim men.

— Odamxo'rlardan emas, ajinadan qo'rqadi, — dedi Dik.



Biz Tom ikkimiz uning bu gapidan hayron bo'lib, mazax ohangida kuldik.

— Ha endi, sendek aqli-hushi joyida odamlarga jin-u arvohlarning jodusi ta'sir qilmasa kerak-da, — deya gapga qo'shildi Tom karavotda yotgan joyidan.

— Adashasan, do'stim, — jiddiy ohangda e'tiroz bildirdi Dik Uorton. E'tiboring uchun, men bugun sen aytgan yuragi yo'q qarolning aql bovar qilmas rivoyatidagi iblisni o'z ko'zim bilan ko'rdim! Aytib qo'yay, o'sha maxluqqa yana bir bor yo'liqqanimdan ko'ra o'lib qo'yaqolganim avloroq.

Tom yotgan joyidan turib, karavotida o'tirgancha dedi:

— Bo'lmag'ur safsata gaplar! Hazillashyapsanmi, Dik?! Qani, rostini ayt-chi, nimani ko'rding? Avval qarolning afsonasini, so'ng o'z ko'zing bilan ko'rganlaringni aytib ber. Jek, unga mana bu shishadagi romni uzatib yubor-chi.

— Xo'sh, afsona haqida aytadigan bo'lsam, — deya gap boshladi Dik, — bu vodiya allaqanday yovuz iblis yashashi haqidagi rivoyat





mahalliy aholi orasida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ko'hna naqlardan ekan. Ularning gapiga qaraganda, daraning pastqam joylarida ov qilib yurgan yoki o'sha yerlarga adashib borib qolgan ba'zi odamlar qora qoya tagida ko'zlari yonib turgan allaqanday maxluqni bir emas, ikki emas, bot-bot ko'rib turishar ekan. O'sha maxluqning dahshatli nigohiga bir marotaba ko'zi tushgan inson, umrbod vahimada yasharkan. Endi bu gapning qanchalar chin ekanini vaqt o'tgach o'zimda sinab ko'rish imkoniyatiga egaman, — qo'shib qo'ydi Dik xomush ohangda.

— Xo'sh, xo'sh, davom ettir-chi! — dedi qiziqsinib Tom. — Nimani ko'rding, tarang qilmay aytib beraqol.

Dik bir xo'rsindi-da, dedi:

— Shu desang, yirtqichga yem bo'lgur sigirimni axtarib yurib, o'sha daraning juda ichkarisiga kirib qolganimni sezmay qolibman. Chamasi, daraning o'ng tomonidagi tik qora qoya yoqalab biroz yurganday bo'ldim. Chanqab, yonimdagi suvdondan bir-ikki ho'plamoqchi bo'lib to'xtadim. Qoyani sinchiklab kuzatdim-u, ammo avvaliga hech qanday g'ayrioddiy narsani payqamadim. Keyin suvdonimni ko'tarib, bir-ikki qultum suv ichganimni bilaman, taxminan yuz qadamcha narida qoyaning allaqayeridan o'n futcha¹ balandlikda qo'qqisdan vahimali g'alati olov goh yilt-yilt, goh lov-lov etib yonayotganiga ko'zim tushib qoldi. Ajabo, bu ne jumboq bo'ldi, dedim ichimda hayrat va qo'rquvdan dong qotib. Keyin yanada diqqat bilan razm solib qarasam, haligi olov bir o'char, soniya o'tmay, yana ko'zni qamashtirguday lovullab yonardi. Yolg'on aytsam har narsa bo'lay.

«Kechalari yaltirab turadigan qo'ng'izlarni ko'rgandirsan», deb o'ylashingiz mumkin, — deya gapida davom etdi Dik Uorton. Yo'q, yo'q, unday emas, qoyada ko'rganim mutlaq boshqa narsa edi. O'sha narsani ko'rdim-u, damim ichimga tushib ketdi. Chunonam qo'rqib ketganimdan oyoqlarimda majol qolmadi. Nima qilarimni bilmay, taxa-

day qotib qoldim. Shu alpozda, chamamda, o'n daqiqacha bir lov etib yonib, bir pasayib turgan alangaga baqraygancha tikilib turaverdim. Keyin sal odinga yurib ko'rdim, shu payt alanga birdan ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yana orqamga tislaniib, avval turgan joyimdan qoyaga qarasam, o'sha vahimali olov yana ko'rina boshladi.

Men bir amallab o'zimni qo'lga olib, hadik bilan qo'rqa-pisa bo'lsa-da, qoyaga qarab yuraverdim. Biroq unga olib boruvchi yo'l o'ydim-chuqur bo'lganligi sababli unga yaqinlashishga ancha vaqtim ketib qoldi. Shundan so'ng qoya bo'ylab qancha yursam ham haligi olov boshqa ko'rinmadi. Axiyni noiloj ortimga qaytdim. «Ko'rgan narsam nima bo'ldi ekan?» deya o'ylab-o'ylab, o'yimga yetolmayapman. To'g'risini aytsam, yigitlar, dovdirab qolganimdan tashqarida yomg'ir yog'ayotganligini ham siz aytganingizdan keyingina bilibman.

— Hoy, Tom, senga nima bo'ldi? Ranging dokadek oqarib ketibdi-ku, birodar sog'liging joyidami? — dedi vahimali hikoyasini tugatgan Dik Uorton Tomga qarab.

Do'stim Tom karavotda o'tirgancha Dik Uortonning gaplarini hang-mang bo'lib, haykalday qotib eshitayotgandi. U shu darajada qattiq qo'rqib ketgan ediki, uni shu topda kuchli hayajon bosgani yuz-ko'zidan yaqqol ko'rinib turardi.

— Agar u iblis bo'lsa, demak uning ko'zi ikkita bo'lishi kerak. Sen nechta ko'rding, Dik? Aytsang-chi, gapni cho'zmay!

— Faqat bitta edi.

— Xudoga shukur-ey! — deya hayqirib yubordi Tom. — Bu endi boshqa gap.

U shunday dedi-da karavotdan irg'ib turib, Dikning yoniga keldi va qo'lini uning yelkasiga qo'yib dedi:

— Menga qara, Dik! Nima deb o'ylaysan, biz o'sha vodiya tong otgunga qadar yetib bora olamizmi?

— Men aytgan joygami? Yo'q, u yerga ertalabgacha yetib borishimiz dargumon bo'lsa kerak.





— Unda gap bunday, eshit! Dik Uorton, birodar, biz sen bilan qalin do'stmiz, to'g'rimi? Sendan iltimos, hozir bizga aytib bergan voqea haqida boshqa hech kimga churq eta ko'rma. Bir haftagacha damingni chiqarmaysan, kelishdikmi?

Dik va'da berishga berdi-yu, ammo Tomning yuzi ifodasidagi g'ayritabiiy o'zgarishlarni ko'rib, boyoqish do'stimning es-hushi og'ib qoldi, shekilli degan xayolga bordi. Ochig'i, mening o'zim ham uning gap so'zlaridan jiddiy xavotirga tushib qoldim. Garchand Tomning sog'lom fikrli va fahm-idroki o'tkir yigit ekanligini yaxshi bilsam-da, Uortonning vahimali hikoyasi do'stinga nojoiz ta'sir qildimikan, degan o'yga borib qoldim.

O'shanda Dik Uorton kulbamizda tunab qoldi. Tom Donaxyu tuni bilan betoqatlanib chiqdi. U saharda Uorton ketishidan avval bergan va'dasida turishini undan yana bir karra o'tinib iltimos qildi. Tom Dikdan darada sodir bo'lgan g'ayrioddiy hodisaning aniq joyini, uning ko'rinishi va ta'rifini yana bir marotaba miridan sirigacha so'rab-surishitirib oldi.

Dik Uorton kulbamizdan chiqib ketganida soat chamasi sahari to'rtlar atrofida edi. Men yana o'mimga cho'zildim, Tom esa ikkita tarashani yassi qilib yo'nib, nimalarnidir yasashga kirishdi. Ko'zim ilingunga dovur uning ishini kuzatib yotdim, chamasi ikki soatlardan so'ng uyg'onib qarasam, u o'choq yonida haligi taxtachalari bilan kuymalanib o'tirgan ekan.

U ikki taxtachani bir-biriga xuddi «T» xarfiga o'xshatib mahkamlagandi. Sal ingichka va kaltaroq bo'lgan uchinchi taxtachani ham shunday yopishtirgandiki, u tepadagi ko'ndalang taxtachaga tirkak bo'lib, uni istagan holatda qotirib qo'yish mumkin edi.

— Gapimga quloq sol, Jek! — dedi u uxlamayotganimni ko'rib.
— Beri kel, menga maslahating kerak. Mana qara, og'ayni, bordi-yu mana bu ko'ndalang turgan tarasha uchini biron-bir narsaga yo'naltirib, tirkak yordamida uni mahkamlab qo'ysam, keyin o'sha









narsa turgan joyini aniq topib bora olamanmi, yo'qmi? Nima deb o'ylaysan?



— Senga aytsam, bu avvalambor, o'sha narsang qancha masofa narida turganligi va yaratgan qurilmang unga qanchalik aniq yo'naltirilganiga bog'liq, — javob berdim men boshimni qashlab. — O'ringda bo'lganimda nishonni aniq ko'rish uchun ko'ndalang taxtacha bo'ylab o'yiqla o'ygan bo'lardim. O'shandagina moslamang sen istagan buyumning turgan joyini aniq ko'rsata oladi. Menga qara, Tom, mabodo sen mana shu ikkita tarasha bilan Dik aytgan ajinaning qayerda ekanini bilib olmoqchi emasmisan?

— Nima qilmoqchi ekanimni, birodar, bugun kechqurun o'z ko'zing bilan ko'rasan, — dedi u menga ma'noli qarab. — Mana shu sen aytgan matohni o'zim bilan Sesassa vodiysiga olib boraman. Sen esa Medison dan temir kurak olib menga hamrohlik qilasan. Qayerga ketayotganimizni va kurak nimaga kerakligi haqida birovga aytib qo'yma tag'in.

Kuni bo'yi Tom yasagan qurilmasini qo'ldan qo'ymay, goh u yerini, goh bu yerini bir-biriga moslab, o'zicha allanarsalarni ming'irlab yurdi. Uning ko'zlaridagi uchqun va yuzi cho'g'dek qizarganini ko'rib, men bu bechora do'stim vasvosga tushib qolmadimkan, deya xavotirlana boshladim.

«Xudo asrasin-u, Dikning gaplari chin bo'lib chiqmasin-da», derdim men ichimda Medison dan temir kurak olib kelayotib. Qosh qoraygan sari do'stinga o'xshab meni ham kuchli hayajon bosa boshladi.

Kech soat olti bo'lar-bo'lmas Tom yasagan asbobini qo'liga olib, dedi:

— Jek, bo'ldi! Sabrim chidamayapti! Yetar shuncha kutganimiz, belkurakni ol, yur, Sesassa vodiysiga ketdik. Bugun yo ostidan, yo ustidan bo'lishi kerak. To'pponchani olishni unutma, mabodo yovvoyi odamlarga duch kelib qolsak, kerak bo'lib qolishi mumkin. Men esa to'pponchamni olmayman, — dedi u yelkamga qo'lini qo'yib. — Saba-



bini bilasan, qiziqqonman. Agar omad yana mendan yuz o'girsan, ach-chig' ustida o'zimni bir balo qilib qo'yishdan ham toymayman.

Shunday qilib, kerakli anjomlarni olib, yo'lga chiqdik. Vodiyga olib boradigan yo'l o'ydim-chuqur bo'lgani uchun yurish juda qiyin edi. Odamlar orasida vahimali sirlari bilan mashhur o'sha vodiy tomon ketar ekanmiz, men bir necha bor Tomdan uning asl maqsadi nima ekanini surishtirib bilishga harakat qildim. Ammo u savollarimga faqat bir xil javob berardi: «Jek, ko'p gapirma, shoshilishimiz kerak. Kim biladi deysan, Uorton vodiya ko'rganlarini yana necha kishiga aytib berdi ekan? Biz vodiya boshqalardan avvalroq yetib borishimiz kerak».

Ikkovlashib dara tomon tepaliklar osha taxminan o'n milcha yuridik. Shundan so'ng bir baland do'nglik o'rkachiga ko'tarilganimizda daraning og'ziga yetib kelganimizni bildik. U ko'zimga go'yo jahannamga olib boruvchi ajdaho komiga o'xshab ko'rindi. Sarbaland tik qoyalar orasidan o'tgan va katta xarsangtoshlar ayqashib yotgan bu yo'l nazarimda bizni to'ppa-to'g'ri arvohlar darasi, ya'ni yovvoyi odamxo'rlar o'lkasiga olib borardi. Osmondagi nuqra barkash yanglig' oy qoya cho'qqilariga xira oqish nur sochib turgan bo'lsa-da, daraning o'zi jahannamday zulmat qa'rda edi. Nima qilarimni bilmay, karaxt ahvolda turgan joyimda taqa-taq qotib qoldim. Mash'um vodiy sirli va o'ta vahimali sukunat og'ushida edi.

— Tom, — deya so'radim pichirlab, bu o'sha Sesassa vodiysi?

— Ha, — javob berdi u ham shivirlab.

Men Tomga qaradim, u ko'rinishidan mutlaqo xotirjam edi. Do'stim hovliqmay, qoya yoqalab ehtiyotkorlik bilan asta-asta yursa-da, uning vujudini qandaydir tahlika qamrab olganligi yuzidan sezilib turardi. Ko'zida porlab turgan uchqunlarni ko'rib, shu topda nimadir sodir bo'lsa kerak, degan o'yga borib, yuragim yanada tez ura boshladi.

Biz xarsangtoshlarga qoqila-suqula dara ichkarisiga kirib ketaverdik. Tom qo'qqisidan taqqa to'xtadi.



— Ana, o'sha qoyatosh! — dedi Tom hayrat bilan qarshimizda paydo bo'lgan ulkan qoyani qo'li bilan ko'rsata turib.

— Endi Jek, Xudo haqqi, o'tinaman, atrofni diqqat bilan kuzat. Menimcha, qoyagacha bo'lgan masofa yuz metrdan oshmasa kerak. Birodar, sen sekin anavi tomonga qarab yur, men esa bu tomonga qarab yuraman. Nimani ko'rsang ham joyingdan jilma, darhol meni chaqir. Gapimni uqdingmi, qimir etmay tur va ikki ko'zing faqat mana shu qoyaning yerdan sakkiz futcha baland joyida bo'lsin. Tayyormisan?

Uning bu savolidan so'ng vujudimni yanada ko'proq vahima chulg'ab oldi va oyoqlarim qaltiray boshladi. Tomning asl maqsadi, mo'ljali nima ekanini bilmaganim bois xayolimdan nelar o'tmadi deysiz. Menga do'stimning faqat sirli alanga ko'ringan qoyani o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi ekanligi ayon edi, xolos. G'ayritabiiy holatning favqulodda sirli ta'siri shu darajada kuchli edi-ki, yuragim gupillab urib, ikki chakkam lo'qillay boshladi.



— Qani, ketdik! — dedi Tom baland ovozda.

U chap tomonga, men esa o'ng tomonga qarab yura boshladik. Yigirma qadamcha yurganimni bilaman, tasodifan ko'zim o'sha Tom aytgan narsaga tushdi. Tim qorong'ulik orasida no'xotday qizil nuqta miltillab ko'rina boshladi. O'sha nur bir kichrayib, bir kattalashib yonardi. Yonayotgan alanganing hajmi o'zgargan sari u yanada qo'rqinchliroq bo'lib ko'rinar edi. Yovvoyi odamlarning rivoyati esimga tushib qolganidan, shu zahotiy oq badanimni sovuq ter bosdi. Azbaroyi qo'rqqanimdan orqamga tislanganimni bilaman, qoyaning pastidan taralayotgan nur qo'qqisidan g'oyib bo'lib qoldi. Endi uning o'rnida qorong'ilikdan o'zga narsa yo'q edi. Ammo yana bir qadam tashlagan edim, qoyada yana o'sha qizg'ish tusdagi nur paydo bo'ldi.

— Tom! — deya ovozim boricha qichqirdim.

— Hozir! — deb u yonimga yugurib kela boshladi.

— Huv ana! Qara, sen qidirayotgan shu'la, qoya sirtidan taralib turibdi.

Tom yonimdan bir odim narida turgandi.

— Qani, hech narsa ko'rmayapman.

— Yaxshiroq qarasang-chi, to'g'ringda turibdi.

Men o'zimni sal o'ngga oldim, birdan shu'la yana g'oyib bo'ldi.

Ammo Tom men hozirgina turgan joydan qoyaga qaradi va aqli shoshib qolib, hayratdan qichqirib yubordi:

— Jek! Ana o'sha sirli olov! — qichqirdi u.

Do'stim, endi biz hech qachon taqdirdan nolimaymiz, — deya yonimga kelib qo'limni qattiq qisdi. — Xuddi mana shu turgan joyimizga tosh to'plashimiz kerak. Mana bunday ... Endi esa ularning orasiga yasagan moslamamizni mana bunday qilib o'rnatamiz... Juda zo'r bo'ldi... Agar qattiq shamol ko'tarilmasa, asbobimiz ertalabgacha qimirlamay turishi kerak, undan so'ng bizga bu matohning keragi bo'lmaydi.

Bir o'ylab ko'rgin-a, do'stim, — deya to'lqinlanib so'zida davom etdi Tom, — biz kechagina Angliyaga qaytib borib, eng nochor biron-

bir idorada oddiygina xizmatchi bo'lib yollanishga ham rozi edik, esingdami? O'shanda sen «Tushkunlikka tushmay, niyatingni yaxshi qil, og'ayni! Oldinda bizni nima kutayotganini Tangridan bo'lak hech kim bilmaydi», — deb ko'nglimni ko'targanding. Qandingni, ur do'stim! O'lay agar, ajoyib sarguzasht qissa yozsa arzigulik voqeaning qahramonlari bo'ldik.



Ikkimiz moslamani katta toshlar orasiga yanada mahkamlab o'rnatdik. Tom egilib, ko'ndalang qilib mahkamlangan taxtacha yordamida alanga chiqayotgan qoyaga qarab allanimalarni ko'z ila chamaladi. O'n besh daqiqalar o'tar-o'tmas, u moslamaning ko'ndalang taxtachasini yon tirgak bilan mahkamlab qo'ydi. So'ng yengil nafas olib, menga qarab dedi:

— Jek, sen ham qarab ko'r-chi, ko'zing menikidan o'tkiroq.

Men qoyaga yo'naltirilgan ko'ndalang taxtacha o'yiqchasi orqali qaradim. Tom yasagan asbobini shu darajada aniq o'rnatgan ekanki, undagi o'yiqchanning qoq o'rtasida qizarib yonayotgan alanga yolqinlanib ko'rinib turardi. Men yana hang-mang bo'lib, qoya tomonga angraygancha tikilib qoldim.

— Endi esa, og'aynichalish, — dedi u, — ozgina tamaddi qilib, keyin yotib uxlaymiz. Tunda qiladigan ishimiz qolmadi, ammo ertaga ishimiz ko'p bo'ladi. Shox-shabbalardan yig'ib kel, gulxan yoqamiz. Mana bu moslamamizni esa ko'z qorachig'imizdek avaylashimiz kerak, biror kori-hol bo'lib undan ayrilib qolmaylik tag'in. Shunday qilib biz gulxan yoqib, ovqatimizni yedik. Tun bo'yi Sesassa iblisining ko'zi tinmay yonib turdi. To'g'ri, gohida u negadir qayoqqadir g'oyib bo'lib qolar va moslama orqali qarasam ham alanga mutlaq ko'rinmasdi. Bu haqda Tomga aytsam, u gapimga parvo ham qilmadi.

— Sen aytgan iblisning ko'zi samodagi oy siljiyotgani uchun ko'rinmayapti, — deb qo'ydi-da, g'ujanak bo'lib, ko'zini yumib yotaverdi.

Tong otishi bilanoq moslama orqali nishonni kuzatishga kirishdik. Biroq endi tim ko'kimtir tusdagi sirti g'adir-budur qoyadan bo'lak hech narsa ko'rinmasdi.



— Mana endi, Jek, o'ylagan rejamizni amalga oshiramiz, — dedi Tom Donaxyu beliga bog'lab olgan ingichka arqonni yecharkan. Arqonning bir uchini moslama uchiga bog'la, ikkinchi uchini men olaman.

Shunday deb, u qoya etagiga qarab yura boshladi. Men qo'limdagi arqonning bir uchini moslamaning qoya tomon yo'naltirilgan ko'ndalang taxtachasi uchiga bog'lab, Tomga «chaproqqa» yoki «o'ngroqqa» deya, uning qurilmamiz ko'rsatib turgan yo'nalishdan og'ishmay yurishini nazorat qilib turdim. Tunda olov ko'ringan qoyadagi nuqta yerdan taxminan sakkiz futcha balandlikda edi. Tom oq bo'r bilan o'sha nuqtaga diametri uch futcha keladigan doira chizib, meni yoniga chaqirdi.

— Gapimga quloq sol Jek, — dedi u, — hozir nima qilayotgan bo'lsak, barini ikkimiz birga qilyapmiz. Bilib qo'y, mabodo bu yerdan nima topilsa ham, u ikkimizniki bo'ladi, kelishdikmi?

U qoyaga chizgan aylana o'rtasi go'yo sayqal berilganday silliq bo'lib, faqat uning markazidagina mushtdek keladigan do'ngcha bor edi. Tom bir hayqirdi-da, bor kuchi bilan ana shu do'ngchalardan biriga barmog'ini tiqdi. U yerdagi qoramtir bo'tqasimon narsa orasidan mushtumdek keladigan sirti loy shisha ko'rindi.

— Mana o'sha narsa! — qichqirdi Tom. — Mana, ko'ryapsanmi?

— Nima bu?

— Bu — olmos! — dedi Tom ko'zlari chaqinday porlab. — Tushunyapsanmi, bu o'ta bebaho tosh! Olmos, yer yuzidagi eng qimmatbaho tosh! Yevropada mana shunaqa xazina sohibi bo'lmish Tom Donaxyuga hasad qilmaydigan birorta ham monarx endi topilmaydi. Belkurakni ol! Hozir Sesassa vodiysidagi «iblis»ni bu yerdan quvamiz!

Men qattiq hayajonga tushganimdan bir daqiqagacha lom-lim demay, hech kutilmaganda topilgan bebaho xazinaga tikilgancha qarab turaverdim.

Tom kurak yordamida olmosni qoyadan shosha-pisha ko'chirib oldi.



— Buni qara-ya, shu qadar mislsiz boylikka osongina erisha olamiz, deb hech kutmagandim, — dedi Tom og'zi qulog'ida. — Endi kulbimizga jo'naymiz, undan so'ng Keyptaunga qancha tezroq yetib borsak, shuncha yaxshi.

Olmosni lattaga o'rab, yana do'ngliklar osha ildam qadamlar tashlagancha kulbimiz tomon jo'nadik. Yo'l-yo'lakay Tom menga Middl-Templdagi ta'limgohda huquq fanini tirishib o'rgangan kezlarimizda uning qo'liga qandaydir Yans van Xounim degan olimning kutubxonada chang bosib yotgan kitobi tushib qolganini va unda xuddi Sesassa vodiysidagiga o'xshash hodisa ta'rifini o'qiganini gapirib berdi. Uning aytishicha, o'n yettinchi asrda yashagan gollandiyalik bu muhtaram olim ham biznikiga o'xshab nur sochib turgan olmos topib olgan ekan. Birodarimiz Dik Uorton arvoh-u iblislar voqeasini gapirib berayotgan vaqtda Tomning esiga o'sha kitobda o'qiganlari tushgan ekan. U o'z taxminini tekshirib ko'rish uchun yasagan asbobga kelsak, u atigi oddiy bir irland yigitining topqirligi mahsuli edi, xolos.

— Olmosni Keyptaunga olib boramiz, — so'zida davom etdi Tom. — Agar u yerda olmosni mo'may pulga sotolmasak, unda Londonga borishimizga to'g'ri keladi. Ammo biz avval Medisonning yoniga boramiz, chunki u bunaqa narsalarning farqini yaxshi tushunadi va aminmanki, topilmamiz uchun qancha pul so'rashimizni ham aytib bera oladi. Shunday fikr bilan biz kulbimizga yetmay turib, Medisonning fermasiga olib boradigan so'qmoq tomon burildik. Ko'p o'tmay Tom ikkimiz mehmondo'st janubiy afrikalikning to'kin dasturxoni atrofida o'tirib, lazzeatli taomlardan bahramand bo'ldik.

— Xo'sh, shovvozlar, nima yangiliklar bor? — so'radi u xizmatkori chiqib ketgandan so'ng. Adashmasam, menga nimadir demoqchisizlar, shundaymi?

Tom tugunchani stol ustiga qo'yib, uni tantanavor yecha boshladi.

— Mana, — deya u yalt-yult qilib turgan kristallni ko'rsatdi. Mana shu toshning asl bahosini aniq aytib bera olasanmi?



Medison topilmamizni qo'liga olib, sinchiklab ko'zdan kechirdi.

— Nima ham derdim, — dedi u topilmani stol ustiga qaytarib qo'yarkan, — qayta ishlanmagan holdagi bu matohning bir tonnasi o'n ikki shilling atrofida turadi.

— O'n ikki shilling! — dedi u baqirgancha o'rnidan irg'ib turib. — Nima deyapsan!? Bu o'zi nima ekanini bilmayapsanmi?

— Nega endi bilmas ekanman? Bu — toshtuz.

— Toshtuz?! Nima jinni-pinni bo'lganmisan? Axir bu olmos-kul!

— Ishonmasang, yalab boq! — dedi Medison pinagini ham buzmay.

Tom kristallni qo'liga olib, yalab ko'riboq otib yubordi-da, qattiq so'kingancha xonadan chiqib ketdi.

Mening ham dilim nihoyatda siyoh bo'lib, hafsalam pir edi. Shunda birdan Tomning to'pponcha haqidagi gapi miyamga lop etib urib qoldi. Shu zahotiyoyq yugurgancha xonadan chiqib ketdim. Medison ham hech narsani tushuna olmay, hang-u mang bo'lib, og'zini ochgancha angrayib qoldi.

Kelib kulbamizga kirganimda Tom karavotda yuzini devorga qaratib yotgandi. Uning dard-u dunyosi shu darajada qorong'i ediki, taskin berishga qancha urinsam ham miq etmay yotaverdi. Men fermer birodarimiz Medisonni hamda oqko'ngil Dik Uortonni va ularga qo'shib Sesassa vodiysining iblisini, borinki, la'nati bu achchiq hayotning bor tashvishlarini astar-avrasini chiqarib so'kib, la'natladim. Hovurimni biroz bosay, deb tashqariga chiqdim-da, kulbamizdan qirq qadam nariroq yurdim. O'zimga-o'zim «Eh, chindan ham peshonasi sho'r yigitlar ekanmiz-da», deya tushkun o'ylarga borib trubkamga tamaki joylab, cheka boshladim. Shu tobda qulog'imga Tomning ovozi eshitildi. Agar bu ovoz oh-faryod yoki qarg'ish bo'lganda ham uni o'z-o'zidan tushunishim mumkin edi, ammo trubkamni og'zimdan olishga majbur qilgan ovoz o'ta quvnoq hayqiriq edi. Lahza o'tmay Tomning shaxsan o'zi ikki qo'lini beliga qadagancha dimog'i chog' holda kulba eshigi ostonasida paydo bo'ldi.

— Xo'sh, og'aynichalish, yana bir marotaba vodiya sayr qilishga tobog qalay? Bor-yo'g'i o'n milcha masofa, xolos.

— Nima? Yana bir tonnasi o'n ikki shilling turadigan bir bo'lak oshtuzi debmi?

— Yo'q! Aslo unday emas, bizga oshtuzi mutlaqo kerak emas, — javob berdi u miyig'ida kulib. — Ikkimiz ham hech baloga aqli yetmaydigan nodon ekanmiz, men senga aytsam! Qani beri kel, mana bu to'nkachaga birpas o'tir-chi, senga besh daqiqaning ichida nodonligimiz nimada ekanligini tushuntirib beraman. Qani, menga ayt-chi, do'stim, biz ikkimiz toshtuzini birinchi bor ko'rishimizmi? Yo'q, albatta. Endi menga ayt-chi, ulardan birortasi hech qorong'ilikda nur taratganmi? Tag'in qanaqa nur, yonargurtdan taraladigan yorug'likdan o'n chandon ziyodasini?

— Menimcha, yo'q.

— Gapimga ishon, qorong'i tushgach yana o'sha joyga qaytib borsak, mana ko'rasan, o'sha iblisning ko'zi aniq yonib turgan bo'ladi. To'g'risini aytsam, biz olmos o'rniga u yerdan boshqa ma'danni, ya'ni toshtuzni ko'tarib kelaveribmiz. Bu yerlarda toshtuzning olmosdan yarim metrcha narida bo'lishi odatiy hol, men senga aytsam. Birinchi bo'lib toshtuz ko'zimizga ko'ringani uchun hovliqqanimizdan haqiqiy qimmatbaho tosh qolib, o'rniga tonnasi o'n ikki shilling turadigan ma'danni qo'ltiqlab kelaveribmiz. Sesassa olmosi haligacha men qoyaga chizgan sehrli doira ichida, o'lay agar yolg'on gapirsam. Yur og'ayni, ketdik. Trubkangni tez-tez chekkin-da, to'pponchangni o'qla. Biz Medison aql yurgizib, gap nimada ekanini fahmlaguncha qadar vodiya yetib olishimiz kerak. Tag'in og'zimizdagi tayyor luqmani oldirib o'tirmaylik.

Do'stim qanchalar dadil gapirsa-da, men hamon boylik topishimizga ishonganim yo'q. Jin urgur olmosni deb shundog'am ancha azob-uqubat chekkanim alam qilardi. Ammo ikki oyog'ini bir etikka tiqib turib olgan do'stimning shaxtini qaytargim kelmay, o'zimni bajonidil



vodiyga borgim kelayotgandek ko'rsatdim. Eh, nimasini aytay, bu safar Tom vodiy tomonga qarab qushday uchib borardi. Men uning ortidan zo'rg'a sudralardim. Oh, bechora Tom! Aytsam ishonmaysiz, uning ortidan inqillab-sinqillab yetib kelganimda sho'rlik ikki qo'lini cho'ntagiga solgancha qoyaga qarab xomush turardi. Uning ma'yus nigohida hech qanday ma'no aks etmasdi.

— Qara, bir qaragin-a! — dedi u g'amgin ohangda qo'li bilan qoyani ko'rsatarkan.

Darhaqiqat, haybatli qoya bag'rida olmos borligidan dalolat beruvchi birorta ham alomat ko'rinmasdi. Doira ichida ko'kimtir kulrang tosh va toshtuzi kovlab olingan katta teshikdan bo'lak hech narsa yo'q edi.

— Men kavakka siqqanicha qo'limni tiqib paypaslab ko'rdim, — deb to'ng'illadi bechora do'stim. — Yo'q, bu yerda olmos yo'q, bu aniq. Menimcha kimdir bizdan avvalroq kelib, olmosni olib ketgan. Jek, ketdik uyga. Toqatim qolmadi, hammasi jonga tegdi. Qani, ayt-chi do'stim, dunyoda menchalik omadi chopmagan, baxtiqaro bormikan?

Men orqamga o'girilib qaytib ketmoqchi bo'ldim-u, ammo qoyani o'ygan joyimizni yana bir marotaba tekshirib ko'rishga ahd qildim. Bu vaqt ichida Tom o'n qadamcha nari ketib ulgurandi.

— To'xta, — qichqirdim unga, — nima ko'rmayapsanmi, biz chizgan doira kecha qanday bo'lgan bo'lsa, xuddi o'sha holatda turibdi?

— Aytmoqchisanki? — hushyor tortdi u.

— Tom, senga bu yerda nimadir yetishmayotgandek tuyulmayaptimi?

— Sen tuz kristallini nazarda tutyapsanmi? — so'radi Tom.

— Yo'q, men butunlay boshqa narsa haqida aytmoqchi edim. Esingda bo'lsa, qoyani o'yish uchun avval bir dumaloq do'ngchani ko'chirib tashlaganidik. Kel, ko'raylik-chi, o'sha nima ekan?



Biz shosha-pisha qoya tagidagi har bir tosh sinig'ini ushlab, tekshirib ko'rdik.

— Jek, sen bir qaragin! Mana o'sha qidirayotgan olmosimiz! Biz nihoyat o'z maqsadimizga erishdik. Nima deyishsa deyishsin-u biz haqiqiy omadi chopgan yigitlarmiz! — deya ovozim boricha hayqirdim.

Men Tomga qaradim, u quvonganidan ko'zlari chaqnab, tabiat bino etgan bir parcha bebaho xilqatni qo'lida ushlagancha, tili aylanmay turardi. Qo'lidagi bir bo'lak tosh ko'rinishidan juda oddiy edi. Toshning bir tomoni bo'rtib chiqqan bo'lib, tunda ko'ringan yorug'lik uning aynan shu yeridan taralayotgan ekan. Bir qaraganda u shisha ko'ziga o'xshab ketsa-da, ammo u oddiy shishadan farqli o'laroq o'zidan jilvakor nur sochib turardi. Bu safar qo'limizda




ushlab turgan narsamiz shubhasiz, haqiqiy olmos edi. Biz yillar davomida hammaga dahshat solgan «iblis»ni vodiyan shoshgancha olib chiqib ketdik.

Bor gap shu, ser. Voqea aynan shunday bo'lgandi. Agar hikoyam bilan sizni toliqtirib qo'ygan bo'lsam, ma'zur tutgaysiz! Bilasizmi, o'sha mashaqqatli kunlar esimga tushganda, ko'z oldimga doim faqirona kulbamiz, uning yonida oqayotgan jilg'a va changalzor keladi. Shunda men xayolan yana Tomning hayajonli ovozi eshitgandek bo'laman. Tag'in nimayam derdim? Ha, aytganday, o'sha noyob topilmamiz tufayli ikkimiz ham juda boyib ketdik. Sizga ma'lumki, Tom Donaxyu hozir shu yerda yashaydi va u shahrimizning eng badavlat va baobro' kishilaridan biri. Men esa dehqonchilik va tuyaqush parrandachiligi bilan shug'ullanyapman. Xudoga shukur, ishlarim yaxshi, topish-tutishimdan nolimayman.

Ser, mabodo bizning o'lkalarga qadam ranjida qilguday bo'lsangiz, albatta Jek Ternboll bilan uchrashing. Jek qayerda yashaydi, deb so'rasangiz bas, istagan odam uning uyini ko'rsatib bera oladi. Faqat, sesassalik Jek Ternboll, deb so'rash esingizdan chiqmasin.

1879-yil, sentyabr





«BO'YSUNMAS SARRA» KEMASINING QISMATI

(Tarixiy hikoya)

Sizga hikoya qilib bermoqchi bo'lgan ushbu voqea Fransiyaning dengizdagi kuch-qudratiga putur yetib, shon-shavkati so'nib borayotgan kezlari sodir bo'lgan edi. Bir mahallar buyuk ummon uzra yagona hukmron bo'lgan davlatning uch palubali haybatli kemalarining aksariyati Brest ko'rfazida savlat to'kib turish o'miga dengiz qa'rida yotardi. Ammo Fransiyaning dengiz flotida necha-necha fregat¹ va korvet²lari

¹ *Fregat* — uch machtali harbiy kema turi.

² *Korvet* — dengizda soqchilik xizmatini olib borish uchun mo'ljallangan yelkanli harbiy kema turi.



mavjud bo'lsa-da, ular ingliz kemalari ta'qibiga dosh bera olmasdi. Urush holatida bo'lgan ikki g'anim davlatning afsonaviy ayollar va nafis gullar nomi bilan atalgan ko'rkam kemalari machtalarida osilib turgan bir parcha yalovning sha'ni va obro'si yo'lida mudom bir-biriga shikast yetkazish yoki g'anim kemalarini dengizga cho'ktirish bilan mashg'ul edilar.

Hikoya qilinayotgan voqea sodir bo'lishidan bir kun avvalgi tunda juda kuchli to'fon ko'tarilib, dengizda po'rtanali dolg'alar quturgandan-quturdi. Tinmay chaqmoq chaqdi... Ammo tong otishi bilanoq, ob-havo biroz yaxshilanib, asta-sekin pasayib borayotgan to'lqinlar uzra quyoshning zarrin nurlari tarala boshladi.

Choshgohga yaqin bepoyon tropik dengizi oftob shu'lasida yilt-yilt jimirlar va uning ufq tomon yastangan nafarmon sarhadlari bamisoli kaftdek yaqqol ko'rinib turardi. Nilgun samoning u yer-bu yerida gohi pag'a-pag'a, gohi bodroqdek bo'rtib chiqqan bulutlar suzib yurar, kema-ning sharq tomonida o'tkir uchlari ko'kka bo'y cho'zgancha qotib turgan qoyali orol qo'r to'kib yotardi. Dengizda sarin yel esar, to'lqinlar tinmay unilayotgan tog'li qirg'oq palmazorlar bilan butkul qoplangan va osmonda muallaq turgan quyuq bulut tog' o'rkachini mahkam quchib olgandek edi. Zumrad tusli sohil bo'ylab kapitan Jonsonning qo'mondonligidagi inglizlarning o'ttiz zambarakli «Leda»¹ nomli fregati ohista chayqalgancha shimol tomon suzib borardi. Qora rangga bo'yalgan uch machtali ko'rkam fregat dengizning lojuvord to'lqinlarida go'yo haybatli qora bo'ronqush misol ko'rinardi.

Yuzi quyosh taftidan qoraygan past bo'yli dengiz zobiti fregatning yuqori palubasida turib, durbin orqali ufqni kuzatib ketayotgandi.

— Janob Varton! — deb hayqirdi u, xuddi moylanmagan eshikning g'ichirlagani kabi xirqiroq ovozda. Bu — kema kapitani Jonsonning ovozi edi.

Kemaning quyruq tomonidan qotmadan kelgan katta leytenant darg'asining murojaatiga baralla ovozda «Labbay, ser!», deya javob

¹ Leda — qadimiy yunon afsonalaridagi shoh qizining ismi.

berdi. U palubada muvozanatini saqlash uchun oyoqlarini sal egib, ikki yoniga chayqalgancha tez-tez yurib kela boshladi.

— Eshitaman, ser! Buyuring! — dedi zobit kapitan qarshisida g'oz turgancha.

— Janob Varton! Men yozma buyruq solingan muhrli xatjildni ochdim.

Katta leytenantning yuzida qiziqsinish alomatlari paydo bo'ldi. Negaki rosa bir hafta muqaddam Kanar orollaridan¹ biridagi Antigua bandargohidan dengizga chiqib ketayotgan «Leda» va «Didona»² va ularga o'xshash yana boshqa bir necha fregatlarga o'ta maxfiy topshiriq berilgandi. Sir tutilgan buyruq surg'uch bilan muhrlangan xatjildga solingan bo'lib, uni qachon ochish zarurligi og'zaki ravishda alohida uqdirib aytilgandi.

Kapitan gapida davom eta turib, jiddiy ohangda dedi:

— Ha, esimda, biz maxfiy xatjildni odam yashamaydigan Sombrero oroli qirg'oqlariga yetib kelganimizdan so'nggina ochishimiz lozim edi. Orol bu yerdan to'rt milcha narida, ya'ni — shimoliy kenglikning 18-darajasi va g'arbiy uzunlikning 36-darajasida joylashgan. Jin ursin, to'fon paytida uning yonidan bilmay o'tib ketib qolibmiz, janob Varton.

Zobit kapitaniga hurmat yuzasidan va rozilik belgisi sifatida bosh irg'ab qo'ydi. U kapitan bilan yoshlikdan inoq do'st edi. Ikkovi bir maktabni tugatgach, birgalashib dengiz flotiga xizmatga yollanishgan va yelkama-yelka turib birga jang ham qilishgandi. Qolaversa, qarindosh qizlarga uylanib, yanada yaqin bo'lib ketishgan. Ammo kemaga qadam qo'yilgan zahotiyiq do'stlik va qarindoshlik tuyg'ulari bir lahzada chetga surilib, uning o'rmini temir intizom egallagandi. Endi dengiz bag'rida ulardan biri darg'a, ikkinchisi itoatgo'y zobit edi, xolos.

¹ Kanar orollari — Atlantika okeanidagi Afrika qit'asining shimoli-g'arbida joylashgan orollar.

² Didona — Afsonaviy Karfagen malikasining ismi (Miloddan avvalgi IX asr).



Kapitan Jonson bir yoqlama tugmali movut kamzulining kissasiga solingan xatjildni olib, undagi maxfiy buyruqni ochib o'qiy boshladi:

«Qirol oliy hazratlarining o'ttiz ikki zambarakli «Leda» va «Didona» fregatlari darg'alariga, ya'ni A. Jonson va J. Munroga zudlik bilan Karib dengiziga suzib borib, u yerlardan fransuzlarning «Shuhrat» nomli fregatini qidirib topish va yakson qilishni buyuraman. Mazkur fregat so'nggi paytlarda qirollikning bir necha savdo kemalarini cho'ktirib yuborgan.

Qirollik fregatlariga «Bo'ysunmas Sarra» yoxud «Paxmoqsoch Gudson» nomi bilan qaroqchilik qilib yurgan kemani ham qanday qilib bo'lmasin qo'lga tushirish yoki cho'ktirib yuborish ham buyuriladi. Bu qaroqchilar bir necha bor Britaniya kemalarini talab, ulardagi fuqarolarimizni yosh-qari demay shafqatsizlarcha qiynab o'ldirganlar. Yana shuni ma'lum qilamizki, «Bo'ysunmas Sarra» kemasi aslida ixchamroq brig bo'lib, o'nta kichik zambarak bilan qurollangan, uning burun qismida yigirma to'rt funtli kalta to'p o'rnatilgan. Oxirgi marotaba «Bo'ysunmas Sarra»ni Sombrero oroli atrofida ko'rishgan.


Imzo: kontradmiral Jeyms Mangomeri. Mazkur xat Qirol oliy hazratlarining «Pahlavon» kemasida topshirilgan. Antigua».

Kapitan Jonson buyruqni kamzulining ichki kissasiga solib, durbin bilan atrofni kuzatishda davom etarkan, da'atan qichqirib yubordi:

— Qarang, leytenant, «Didona» qayoqqadir g'oyib bo'libdiku! Aynan to'fonga duch kelgan mahalimizda u bizdan ilgarilab ketgan ko'rinadi. Bu yaxshi emas, biz fransuzlarga «Didona» fregatisiz to'qnash kelib qolsak bormi, mushkul ahvolda qolishimiz tayin. Shunday emasmi, janob Varton?

Leytenant kulib yubordi.

— Dimog'ingiz chog' ko'rinadi. Nimaga kulyapsiz? Fransuzlar kemasi o'n sakkiz va yigirma futli zambaraklar bilan qurollangan. Ularning kemasi suv sig'imi bo'yicha ham biznikidan qariyb ikki



barobar katta, qolaversa, uning kapitani ham, e'tiboringiz uchun, fransuzlar flotining eng kuchli darg'alardan biri hisoblanadi. Kapitan Milon qanday ayyor va mohir dengizchi ekani hammaga ma'lum.

So'ng kapitan Jonson fransuzlar bilan to'qnashib qolishdan biroz hayiqqanidan xijolat tortib, orqasiga shartta burildi-da, dadil ovozda dedi:

— Garchi shunday bo'lsa-da, o'sha Milon deganlari bilan bajonidil abordaj¹ usulida ham jang qilib, tanobini tortib qo'ygan bo'lardim, jin ursin!

Shunday deb, kapitan yelkasi osha leytenantga ko'z qirini tashlab, jiddiy ohangda buyruq berdi:

¹ Abordaj — ke malar yonma-yon kelganda dengizchilarning ke madan ke maga o'tib, yuzma-yuz jang qilish usuli.



— Janob Varton! Buyuring, kema tezligi paysaytirilsin, g'arb tomonga qarab suzishga tayyorlanilsin.

Machta tepasidan poyloqchi matrosning ovozi eshitildi:

— Ufqda brig¹ ko'rindi!..

Kapitan Jonson kema sahni chetidagi parapet, ya'ni temir to'siq yoniga kelib durbinni ufq tomonga qaratdi. Qotmadan kelgan leytenant o'z yordamchisi Smitonning yoniga kelib, u bilan nimalarnidir pichirlab maslahat qila boshladi. Kayutalardan zobit va matroslar to'dalashib kema sahniga chiqib, kaftlari bilan ko'zlarini quyoshdan pana qilgancha kapitan durbin bilan kuzatayotgan tomonga diqqat bilan tikila boshlashdi.

Poyloqchi matros payqab qolgan kema qo'ltiqning ilon izi shaklidagi kiraverishida langar tashlab turgandi. Bunday holatda turgan g'anim kemasi ochiq dengizga ingliz fregati zambaraklaridan omon chiqib keta olmasligi kundek ravshan edi.

— Bu kema endi qo'limizda deyavering, janob Varton, — dedi kapitan qat'iy ohangda. — Kemadagilar qaroqchi bo'lmasliklari ham mumkin. Janob Smiton, har ehtimolga qarshi zambaraklarni jangovor holatga shay tuting. Qayiqlar ham suvga tushirilishga tayyor qilib qo'yilsin!

Britaniyaning yovqur dengizchilari janglarda nihoyatda toblangan va shu sababdan bu kabi og'ir va tahlikali daqiqalarda ham o'z burch va xizmatlarini xotirjam ado etishga odatlangan edilar. Qisqa vaqt ichida barcha matroslar o'z joylarini egallab, dushmanning har qanday zarbasiga ko'ksini qalqon qilishga shay turib olishdi. Fregat kuchsiz raqib tomon yeldek uchib borardi.

— Bu «Bo'ysunmas Sarra» kemasimi, ser?

— Endi bunga shubha yo'q, bu kema xuddi o'shaning o'zi, janob Varton.

¹ Brig — 6 tadan to 24 gacha zambaragi bo'lgan ikki machtali yelkan ke ma.

— Menimcha bizning yaqinlashib borishimiz ularga yoqmayapti, shekilli. Qarang, kemadagilar langarni ko'tarib ham o'tirmay, uning arqonini kesib, shoshgancha yelkanlarni yoyishga harakat qilishyapti.

Darhaqiqat, brigdagilar halokatdan qutilish uchun jon-jahdi bilan harakat qilayotganligi aniq ko'rinib turardi. Machtalardagi yelkanlar birin-ketin yoyila boshladi. Kemadagi matroslar jonini ayamay machtalarning xochsimon havoza-siga chiqib, yelkanlarning arqonini yechib, ularni yoyishda davom etishardi. Brigdagilar aftidan ochiq dengizga dushman yonidan katta tezlikda o'tib ketishiga ko'zi yetmay, qirg'oqqa yaqinroq joyga qochib olishga qaror qilgan ko'rinar-di.

— Ko'ryapsizmi janob Varton, ular dengiz tomon suzmay, sohilning sayozroq joyiga qochib o'tishga harakat qilishyapti. Bundan chiqdi biz ularni ko'rfazga qamab qo'ya olishimiz mumkin. Bir hisobdan to'g'ri qilishyapti, chunki ularning kemasi kichkina. Ammo men qaroqchilarni hiyla dovyurak va fahm-farosatli, deb o'ylovdim. Basharti brig yonimizdan katta tezlikda o'tib ketib, ochiq dengizga chiqib olishga harakat qilganida nisbatan ma'qul ish tutgan bo'lardi.

— Ser, menimcha kemada isyon bo'lib o'tgani uchun ular o'zini shunday tutishyapti, shekilli.

— Qanday isyon haqida gapiryapsiz?

— O! Ser! Men bu g'alayon haqida Manilada¹ bo'lgan chog'imda eshitgandim. Bu o'ta ko'ngilsiz voqea edi, ser, bilsangiz agar. Matroslar kema kapitani va ikki zobitni shafqatsizlarcha qatl qilishgan ekan. Isyonchilar galasiga xuddi o'sha Gudson deganlari boshchilik qilgan deyishadi. Odamlar bu razilni Paxmoqsoch Gudson deb ham atashadi. U asli londonlik, bunaqangi beshafqat ablah nusxa hali dunyoga kelgan emas.

— Endi gap bunday janob Varton, bilib qo'yingki, bu Gudson deganingiz yaqinda dorga osiladi. Ko'rinishidan kemada odam ko'p,

¹ Manila — hozirgi Filippin davlatining poytaxti.





chog'i. Menga qolsa, ularning ichidan taxminan yigirmatasining jonini asrab qolgan bo'lardim-u, ammo yaramaslarning birortasi ham mehr-shafqatga loyiq emas-da. Bu ablahlar o'z manfaati uchun, kerak bo'lsa, eng insofli va andishali matrosimizni ham yo'ldan ozdirishdan toymaydi. Undan ko'ra bu yaramas qaroqchilarning hammasi baliqlarga yem bo'lgani ma'qul.

Ikki dengiz zobiti durbindan ko'z uzmay dushman kemasini kuzatib turishardi. Bir vaqt leytenant negadir bexosdan kulib yubordi. Chamasi kapitan Jonsonning bundan jahli chiqdi shekilli, ikki yuzi cho'g'dek qizarib ketdi.

— Kapitan, kemanding eng baland joyida turib bizga burnini ko'rsatayotgan odamni ko'ryapsizmi? E'tiboringiz uchun aynan shu nusxa Paxmoqsoch Gudson bo'ladi.

— Surbet, ablah! Unga hazillashish qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman, hali. Janob Smiton, o'n sakkiz funtli zambarakdan otilgan o'q kemaga yetib borib uni shikastlay oladimi?

— Buning uchun yana biroz oldinga suzishimiz kerak, ana o'shanda siz aytgan ishni amalga oshirsak bo'ladi, ser.

Smiton kapitanning savoliga javob berayotgan mahalda qaroqchilar kemasidan zambarak ovozi eshitilib qoldi. Ammo bu o'q shunchaki chalg'itish uchun otilgan bo'lib, uning hech qanday zarari yo'q edi. Illo, brigning kalta va kuchsiz to'plaridan otilgan o'qlar fregatga yetib kelishi dargumon edi. Shunday so'ng kema barcha yelkanlarini ko'tarib, zudlik bilan ko'rfaz ichkarsiga ilon izi shaklidagi daryo bo'ylab juftakni rostlay boshladi.

— Suv sathi sayozlashib bormoqda, ser, — dedi ikkinchi leytenant.

— Ammo xaritada ko'rsatilishi bo'yicha bu yerlarda chuqurlik olti sarjindan kam bo'lishi kerakmas, shunday emasmi?

— Faqat to'rt sarjinni ko'rsatyapti, ser.

— Ha, mayli, bir amallab o'tib ketamiz... Aha, endi qalaysan?!

Mana, aytganimday bo'ldi... Qo'lga tushdi, la'nati qaroqchi! — dedi



darg'a durbin bilan «Bo'ysunmas Sarra»ni kuzatib turarkan. — Janob Varton, zambaraklarni mo'ljalga — brig tomon to'g'rilashni buyuring! Paxmoqsoch Gudson qo'limizda deyavering.

Endi dengiz ko'rinmas, chunki fregat ko'rfazga olib boruvchi daryosifat tor yo'lak bo'ylab ancha ichkariga kirib bo'lgan edi. Ko'rfaz kaftdek ko'rinib turar va qirg'oqqacha atigi bir milcha masofa qolgandi, xolos. Uning eng to'rida qirg'oqqa imkoni boricha yaqin kelib olgan «Bo'ysunmas Sarra» turardi. Kema kichkina bo'lsa-da, ammo tuzilishiga ko'ra chapdast harakat qila olish qobiliyatiga ega edi. Qaroqchilar kemasi «Leda»ga yon tomoni bilan turib olgan bo'lib, machtasida qora yalov hilpirab turardi.

Qotmadan kelgan leytenant kayutasiga borib, o'zi bilan qurol-aslahalarini olgancha o'pkasi og'ziga tiqilguday bo'lib, hovliqib yana palubaga qaytib keldi. Uning chap belida dengiz zobitlarining xanjari osilib turardi. Leytenenat kamariga ikkita to'pponcha tiqib olgach, dushman kemasida hilpirab turgan qora bayroqqa tikilib, dedi:

— Bu qanday surbetlik bo'ldi, ser? Qarang, ablahlar machtaga qora bayroq ilib qo'yishibdi.

Kapitan Jonson o'zida yo'q g'azabda edi.

— Menga desa, machtaga ishtonlarini ilib qo'yishmaydimi! — deb baqirdi u. — Men baribir ularni tavbasiga tayantiraman! Ayting, bizga qancha qayiq kerak bo'ladi, janob Varton?

— Menimcha ikkita katta qayiq kifoya.

— Siz to'rtta qayiqni hozirlang, ammo boplab ta'zirini bering. Bittasini ham qoldirmay qilichdan o'tkazing. Men esa dushman kemasini boplab o'n sakkiz funtli zambarak bilan to'pga tutaman.

Ko'z-ochib yumguncha arqonlarning shatir-shutiri-yu chig'irirlarning g'ichiri quloqni qomatga keltira boshladi... Tezda to'rt qayiq suvga tushirildi.

Qayiqlar odamlar bilan liq to'la edi: yalangoyoq bo'lib olgan matroslar, baquvvat askarlar va michman hujumga shay holda turishardi.



Ular orasida xuddi talabchan maktab muallimlaridek xo'mrayib turgan zobitlar ham bor edi. Kapitan kema to'sig'iga tirsagi bilan suyanganча dushman kemasidan ko'zini uzmasdi. Qaroqchilar ham himoyaga o'ta jiddiy hozirlanayotgan edi. Ular palubaga to'plarni qator qilib joylab, yelkanlarni tushirdilar, bir so'z bilan aytganda, qaroqchilar ham hayot-mamot jangiga tayyor bo'ldilar.

Paluba bo'ylab gir yugirayotgan qizil qalpoqli, davangirday odam qaroqchilarga boshchilik qilayotgandi. Uning yuzlarigacha tuk bosgan bo'lib, faqat ikki ko'zigina ko'rinib turardi, xolos. Kapitan ularni kuzatib turarkan, istar-istamas iljayib qo'ydi, keyin esa orqasiga bir qarab oldi-da qaroqchilarni yana durbin bilan kuzatishda davom etdi. Ammo bir daqiqa o'tar-o'tmas, kapitan Jonson to'satdan baland ovozda dedi:

— Qayiqlar orqaga qaytarilsin! Janob Smiton, kema quyrug'idagi zambaraklarni hozirlang! Kemaning arqon-anjomlari yig'ishtirilsin! Hamma jangga shay tursin!

Ko'rfazning turtib chiqqan qoyasi ortida pistirmada turgan ulkan kema qo'qqisdan «Leda»ga qarab bostirib kela boshladi. Kemaning zarhal bilan afsonaviy oqqush tasviri tushirilgan tumshuq qismi yashil palmazor-la burkangan sohil bag'rida yaqqol ajralib turardi. Uning palubasida uchta mahobatli machta qad ko'targan bo'lib, birining eng baland cho'qqisida fransuzlar bayrog'i mag'rur hilpirab turardi. Kema to'q havorang suvni ko'pirtirib, shitob bilan suzib kelayotgandi. Uning palubasi qurolli odamlar bilan liq to'la bo'lib, zambaraklar uchun yasalgan maxsus tuynuklar lang ochib qo'yilgan va ulardan har daqiqada ajalkash o'qlar irg'itishga shay zambaraklarning tumshug'i chiqib turardi.

Fransuzlarning orolda biqinib yotgan ayg'oqchilari ingliz fregatining boshi berk ko'rfazga kirib qolgani va qutilib ketishning mutlaq iloji bo'lmagan o'ta qiyin ahvolga tushib qolganiga amin bo'lishgach, bu haqda «Shuhrat» kemasi darg'asiga xabar berishgandi. Shunday

qilib kapitan Jonson «Bo'ysunmas Sarra»ni qanday yakson qilmoqchi bo'lsa, kapitan Milon ham «Leda» fregatini xuddi shunday jazolashga qaror qildi.



Ammo Britaniya dengizchilarining temir intizomi shunday tang holatda ham o'z kuchini namoyon eta oldi. Buyruq berilgan zahotiyoyq qayiqlar ortga qaytib, bir necha daqiqa o'tmay «Leda» ham to'liq jangovor holatga keltirildi. To'pchilar zambaraklar yonida jangga shay turar, kema parapeti yonida mushket, qilich-xanjarlar bilan qurollangan matroslar esa hayiqish nima bilmay fransuzlarning qudratli kemasiga qahr-g'azab bilan qarab turardilar.

«Leda» yelkanlarini mohirona boshqarib, yarimdoira hosil qilib, orqaga suza boshladi. Fransuzlar ham bo'sh kelmay, ta'qibni davom ettiraverishdi. Shamol kuchsiz esgani uchun suvning sathi sokin edi, ammo shunga qaramay, ikkala kema ham zo'r berib ochiq dengiz tomon shitob ila suzib borardi. Fransuzlarning maqsadi ko'rfazning og'ziga avvalroq yetib borib, himoyasiz «Leda»ni zambaraklardan o'qqa tutish edi. Kemalar oralig'i atigi yuz yard bo'lgani uchun inglizlarga fransuz kemasidagi barcha harakatlar aniq ko'rinib turardi.

— Ahvol chatoq, janob Varton, — dedi kapitan.

— Hechqisi yo'q, ser, bundan-da battar holatlardan ham omon chiqib ketganmiz, — dushman kemasiga mag'rur tikilgancha xotirjamlik bilan dedi katta leytenant. — Kapitan, biz aynan mana shu masofani ushlab turishimiz kerak va eng muhimi zambaraklarimizdan mohirona foydalana olsak, bas. Ularning odami ko'p, bordi-yu ular yon tomondan hujum qilgunday bo'lsa, o'ta nochor holatga tushib qolishimiz mumkin.

— Men palubada mundirli askarlarni ko'ryapman.

— Ha. Ular martinikalik¹ piyodalarning ikkita rotasi bo'lishi kerak.

¹ *Martinika* — Karib dengizining Kichik Antil arxipelagidagi Fransiya tarkibiga kiruvchi orol.



— Nazarimda ularni qo‘lga ilintirishga muvaffaq bo‘ldik! Shamol esa boshlayapti, barcha yelkanlar ko‘tarilsin! Kemamiz dushman kemasining burun qismiga yaqin kelishi bilanoq zambaraklardan baravariga o‘q otilsin!

Haqiqatan shu daqiqalarda biroz shamol esa boshlagandi. Ishning ko‘zini biladigan zehni o‘tkir kapitan Jonson ushbu qulay vaziyatdan foydalanib qolishga qaror qildi. Qo‘shimcha yelkanlar yordamida shitob bilan fransuzlar kemasi oldidan kesib chiqib, unga barcha zambaraklardan o‘q yog‘dira boshladi. Ammo aksiga olib, shamol to‘xtab qoldi... «Leda» endi orqasiga qaytishi lozim edi. U qiyin ahvoldan chiqib ketish uchun epchillik bilan harakat qiluvdi hamki, qo‘qqisdan fransuz kemasining zambaraklari zarbasiga uchradi.

Moviy dengiz qonli jangohga aylandi. Quloqni batang qilgudek gumburlovchi o‘qlar paydar-pay otildi. Birvarakayiga otilgan zambarak o‘qlaridan ixchamgina fregat shu darajada qattiq titrab ketdi-ki, chetdan qaragan kishi uni dengizga g‘arq bo‘ldi, deb o‘ylashi mumkin edi. Ammo matroslar yelib-yugurgancha jon-jahdlari bilan yordamchi yelkanlarni ko‘tarishga ulgurishdi va fregat o‘zini o‘nglab, chaqqonlik bilan yana fransuzlarga hujum qila boshladi. Milon ham bo‘sh kelmay, ingliz kemasiga chap berib, unga o‘z yo‘lini to‘sisga imkon bermadi. Endi har ikki kema ham bir to‘pponcha o‘qi masofasida yonma-yon suzib keta boshladi. Darg‘alar kemalarining yon devoridagi zambaraklardan birvarakayiga o‘q otishni buyurdilar. Dengiz zambaraklar sadosi ostida qolib, uning sathi porox tutunidan ko‘rinmay ketdi. Bu har ikki kemaning hayot-mamot uchun so‘nggi olishuvi edi. Aynan mana shu yakkamayakka jang lahzalarini qog‘ozga bitish bilangina Britaniya floti tarixidagi qahramonlik sahifalarini qonli yozuvlar ila bo‘yash mumkindek edi.

Dengizda qilt etgan shamol bo‘lmagani sababli zambaraklardan olatasir otilayotgan o‘q tufayli chor atrof bir zumda qora tutun bilan qoplanib, faqat kema machталarining uchigina g‘ira-shira ko‘zga tashlanar edi. Ikki dushman tomon ham bir-birini ko‘rmas, bor-yo‘g‘i to‘plardan

chiqqan olov shu'lasigina sal bo'lsa ham kemalarni yoritib turar edi, xolos. To'pchilar zambaraklarni ham qalin tutunda arang o'qlashardi. Kemaning quyuq qismi va oldingi minorasida qizil mundirli askarlar ham multiqlarini tinimsiz o'qlab g'anim ko'rinmasa-da, kemaga qarata chamalab otardilar.

Quyuq tutun atrofni qalin parda bo'lib shu darajada burkab olgan ediki, hech narsani ko'rib bo'lmasdi, hattoki bir to'pchi yonidagi ikkinchi to'p oldida nimalar bo'layotganini ko'ra olmasdi. Zambarakalar gumburlashi, miltiq otishmalarining quloqni qomatga keltiruvchi qasir-qusur tovushlari bilan aralashib ketgandi. Boz ustiga paluba taxtalarining qarsillab sinishi va machtalarning qulashi eshitilib turardi. Zobitlar to'pchilarni ruhlantirib, tinmay u yoqdan bu yoqqa yurardilar. Kapitan Jonson qattol dushman kemasida nimalar bo'layotganini bilish uchun uchburchak shlyapasi bilan oldidagi tutunni yelpiy boshladi. Shu chog' yonidan o'tib ketayotgan Vartonni ko'rib qolib, bardam va quvnoq ovozda unga qarab dedi:

— Jangmisan jang bo'lyapti-da, Bob!

Darg'a har qanday holatda harbiy intizom qoidasiga rioya qilish zarurligi esiga tushib, jiddiy ohangda so'radi:

— Talafotlarimiz qancha, janob Varton?

— Yelkan ilinadigan ko'ndalang bosh havoza va gaffel¹ sinib ketgan!

— Bayrog'imiz nega ko'rinmaydi, qani u?

— O'q yulib, dengizga tushirib ketibdi!

— Endi fransuzlar bizni taslim bo'ldi, deb o'ylashadi. Qayiqdagi bayroqni olib, bizan-machtaga² ilib qo'yishni buyuring.

— Xo'p bo'ladi, ser!

Shu mahal qo'qqisdan ularning yonginasida zambarak o'qi portladi. Ikkovi tasodif tufayligina omon qolgan bo'lsa-da, o'q kompas o'matilgan baquvvat moslamani sindirib yuborgandi. Bir lahzadan so'ng tutun

¹ Gaffel — yordamchi havoza.

² Bizan-machta — kema qo'rig'idagi kichik machta.





tarqalgach, kapitan Jonson fransuzlarning ketma-ket otayotgan o'qlaridan fregat jiddiy shikast yeganligini ko'rdi... «Leda»ning faqat bir necha qismigina butun qolgan bo'lib, paluba matroslarning jasadiga to'lib ketgandi. Zambaraklar uchun ochilgan maxsus tuynuklar ham ilmatshik bo'lib, o'n sakkiz funtli bir zambarak ag'darilib yotardi.

Kema va kema minorasidagi askarlar hamon g'animga qarata o'q otishdan to'xtamasalar-da, «Leda» zambarakalarining naq yarmisi yaroqsiz holga kelgan va kema sahnining hali u yerida, hali bu yerida matroslar jasadi uyulib yotardi.

— Abordajga hozirlik ko'rilsin! Hamma qo'l jangiga shay tursin!
— hayqirgancha buyruq berdi kapitan.

— Xanjarlarni qinidan chiqaringlar, shunqorlarim! — dedi Varton qichqirib. Lahza o'tmay, o'nlab xanjarlar havoda yashindek yaraqladi...

Askarlarga shijoat bilan qo'mondonlik qilayotgan kapitanning ovozi kema bo'ylab yana yangradi:

— Otishma to'xtatilsin! Fanim palubaga chiqa boshlashi bilan oq hamma qurollardan baravariga o't ochilsin!

Tutun tarqalgan sari fransuzlar kemasining haybatli shamoyili ko'rina boshladi. U mag'lub bo'lgan «Leda»ga shiddat bilan yaqinlashib kelayotgandi. Abordajga olish uchun maxsus ishlatiladigan katta temir changaklarning jarangi eshitila boshladi. «Shuhrat» kemasi qisqa masofadan turib, barcha zambaraklardan birvarakayiga o'q uzdi. Do'ldik yog'ilgan to'p o'qlaridan «Leda»ning bosh machtasi qilich bilan chopilgan novdadek qulab, to'ppa-to'g'ri zambaraklar ustiga ag'darilib tushdi. Oqibatda machta o'nta to'pchi askarni majaqlab, bir necha zambaraklarni ishdan chiqardi.

Yana ko'z ochib yumguncha fransuzlar kemasi yoni bilan «Leda»ga taqalib urildi. Bir necha temir changaklar ingliz fregati palubasi parapetiga chang soldi. Fransuzlarning sanoqsiz dengizchilari hamlaga shay bo'lib, vahshiyona jazavada qichiqira boshladilar.



Ammo qancha urinmasinlar, fransuz askarlariga qon bilan belangan ingliz fregatini zabt etish nasib qilmadi. Yaqin masofadan fransuzlar kemasini mo'ljal qilib, to'plardan baravariga uzilgan o'qlarning gumburlagan ovozi dengizni tutib ketdi, so'ng ikkinchi va yana zum o'tmay uchinchi bor to'plar ovozi yangradi...

Xanjar-u qilichlarini yalang'ochlab, dushman hujumini qaytarishga shay bo'lib, zambaraklar yonida qimir etmay turgan ingliz dengizchilari fransuz askarlarining birin-ketin qirilayotganini hayrat bilan kuzatib turishardi.

Yana bir daqiqa o'tar-o'tmas, qarama-qarshi tomonga javoban fransuz kemasidan otilgan to'p ovozlari gumburladi.

— Bu qanaqa otishma bo'ldi, fransuzlar kimga qarab o'q uzishyapti, jin ursin? — deb baqirdi kapitan. — Palubani bo'shatinglar!

— To'plar o'qlansin! — deb buyurdi leytenant. Qani shovvozlar, bo'sh kelmang! Fanimning kunini mana endi ko'rsatamiz!

Kapitan buyrug'iga binoan tezkorlik bilan fregat sahnidan sinib tushgan machta qoldiqlari olib tashlandi va omon qolgan zambaraklar yana ishga tushdi. Fransuz kemasining langari yakson qilingan va «Leda» muqarrar halokatdan xalos bo'lgandi. Fanim kemasida sarosimalik boshlanib, odamlari birin-ketin nobud bo'layotgan bir damda nima bo'ldi-yu, bahaybat «Shuhrat» nari keta boshladi.

— Qaranglar, g'anim qochyapti! Biz g'olib bo'ldik! — deya baralla hayqirishdi fregatdagilar.

Darhaqiqat fransuzlarning uch yelkanli «Shuhrat» kemasi otishmani to'xtatib, sog' qolgan yelkanlarni shitob bilan ko'tarayotgandi. Ammo fransuzlarni aslida kim mag'lub qildi ekan? «Leda»mi?

Yo'q, zinhor u emas edi.

Dengiz sathi uzra porox tutuni tarqalgach, jangning bu tarzda ajablanarli va kutilmagan holda yakun topishining sababi oydinlashdi. «Leda» ko'rfazga olib kiradigan tor yo'lakning eng boshida turganda,



bu yerga jang ayni qizigan mahalda sezdirmay yana ikki kema yaqinlashib kelibdi.

Dengizda to'rt milcha orqada qolib ketgan «Diadona» fregati ko'rinib turar va u barcha yelkanlarini ko'targancha shimolga qarab qochayotgan fransuz kemasi orqasidan izma-iz ta'qib qilib ketayotgan edi. «Diadona» fransuz kemasiga qarab o'q otishdan to'xtamasdi. Yana birozdan so'ng ikkala kema ham ko'zdan g'oyib bo'ldi.

«Leda» fransuz kemasi bilan bo'lgan qaqshatqich jangda katta talafot ko'rgandi. Uning asosiy machtasi butunlay ishdan chiqqan, bizan-machta va gaffeli ham sinib tushgandi. Kemaning yelkanlari esa shu darajada titilib ketgandiki, u ko'rinishidan xuddi tilanchining jandasini eslatardi. Kemaning yuzga yaqin a'zosi qirg'inbarot jangda halok bo'lgandi.

«Leda» fregatining yonida esa qandaydir boshqa bir kema parchalari suzib yurardi. Ko'p o'tmay suv ostidan uning burun qismi ko'tarilib chiqdi. Kema qora tusga bo'yalgan bo'lsa-da, uning oq rangdagi «Bo'ysunmas Sarra» nomi yaqqol ko'rindi.

— Yo, Xudoyim! — deb hayqirib yubordi Varton. — Bizni qaroqchilar kemasi qutqarib qolibdi-kul! Gudson fransuzlar kemasi yoniga sezdirmay kelib, ularga to'plardan ketma-ket o'q uzib, bizni qutqarib qolgan ekan-da. Ammo fransuzlar kemasining qudratli zambaraklaridan otilgan o'qlar uni dengizga g'arq etibdi!

Past bo'yli kapitan indamay paluba bo'ylab kema quyrug'i tomon yurib ketdi. Matroslar kemaning shikast yegan joylarini zo'r berib tuzatishga kirishdilar.

Kapitan yana leytenantning yoniga keldi, leytenant esa boshlig'ining mag'rur chehrasi endi achinish va ayanch hislarini ifoda etayotganini sezdi.

— Ko'rinishidan ularning bari halok bo'lganga o'xshaydi, a?..

— Hammasi. Butun ekipaj kema bilan birga dengiz tubiga g'arq bo'libdi.

Ikki zobit ham ancha vaqt oq bo'yoqda bitilgan harflar ila vahimali so'zlar yozilgan kema parchalariga tikilgancha bir so'z demay turib qoldilar. Sinib yotgan machta to'sinlari va ayqash-uyqash bo'lib suzib yurgan birtalay arqon va boshqa kema anjomlari orasidan bir qora narsa ko'rindi, bu qaroqchilar kemasining parchalari edi, uning yonida esa qaroqchilar sardorining qizil qalpog'i suv betiga qalqib chiqqandi.

Kapitan uzoq vaqt shu qalpoqqa tikilib turib, nihoyat, shunday xitob qildi:

— Qurib ketgur Gudson qanchalar razil odam bo'lsa-da, ammo qalban britaniyalik edi! Vijdonan aytganda, u hayotini yirtqich itdek yashab o'tgan bo'lsa-da, lekin mardlarcha o'lim topdi. Xudo haqqi, u chinakam mard inson sifatida jon taslim qildi! Buni tan olmaslik mumkin emas!





BIR MUHABBAT QISSASI

(Psixologik hikoya)

Bundan roppa-rosa qirq yil yil muqaddam ko'hna Angliya shaharlaridan birida Parker ismli bir badavlat janob yashardi. O'sha janob ko'p yillar davomida dallollik bilan shug'ullanib, ancha-muncha boylik orttirishga muyassar bo'lgandi. Parker shahar chetidagi so'lim joylardan birida o'ziga dang'illama dala-hovli qurdirib, u yerda xushro'y rafiqasi bilan istiqomat qilardi. Xullaskalom, o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan Parker tinimsiz mehnat ila qarigan chog'ida rohat-farog'atda hayot kechirish uchun hamma narsani muhayyo qilgandi. Garchand shunday bo'lsa-da, kekxa dallolning ham boshida o'ziga yarasha tashvishi bo'lib, u ham bo'lsa, uning yakkayu-yagona o'g'li edi. Parker fe'li o'jar farzandining qilayotgan nomaqbul ishlaridan

xavotirlanar, uning kelajagini o'ylab, ko'p qayg'urar, iztirobga tushardi.



Bu noshud o'g'ilni nima qilsam bo'ladi? Qanday qilib uning hayot yo'lini ravon izga solib bersam ekan, degan o'y-fikrlar kekxa Parkerga tinchlik bermay, aql-u vujudini birdek qiynardi. Yigitning ismi Jorj Vinsent edi. To'g'risini aytganda, bu Jorj deganlari haqiqatan sal g'alatiroq nusxa edi. Shaharning behalovat hayotini, shovqin-suroni-yu yugur-yugurini uning jini suymasdi. Boz ustiga savdo ishiga ham mutlaqo qunt qilmas, katta foyda olish, mol-davlat to'plash g'amidan ancha yiroq edi. Unga otasining kasb-kori ham, boyligi tugul turmush tarzi ham yoqmas, bularning barini yigit o'zining hayotiy qarashlariga zid, deb hisoblardi. Ayniqsa, u savdo idorasida ishlash desa, asabi taranglashib, peshonasi tirishardi. Otasining ishxonasida o'tirib, hisob-kitob daftarini titkilashni esa o'lguday yomon ko'rardi.

Ammo ota kasbiga bo'lgan loqaydlik yigitning xulq-atvoridagi nuqson yoki dangasaligidan emas, balki qandaydir tug'ma xislat edi, xolos. Aslida u zehni o'tkir, uddaburon va aqli teran shaxs edi. Yigitning qiziqish doirasi ham ancha keng bo'lib, u musiqani jon-dilidan sevar va bu sohada u o'zini favqulodda iste'dod egasi deb bilardi. Jorj Vinsent xorijiy tillarni zavqlanib o'rganish borasida ham chakki emas va hatto, binoyiday rasmlar ham chiza olardi. Qisqasi, u tabiatan ijod ahliga xos qiziqqon ta'b egasi bo'lgani uchun ham uning fe'lida tajanglik va beqarorlik xislatlari ustuvorroq edi. Basharti Jorj Vinsent Londonda yashaganida bormi, u hayotga bo'lgan o'ziga xos tashnaligi bois serqirra ijodiy faoliyatiga mos keladigan yuzlab insonlar bilan do'st tutinar, boz ustiga, allaqachon adabiy tanqidchilik, yo badiiy ijod deysizmi, yoki shunga o'xshash yana boshqa bir hunar sohasida hammani qoyil qoldirgan bo'lardi. Ammo poytaxtdan uzoq bo'lgan bu shaharda, ayniqsa savdogar ahli orasida, Vinsent o'zini tamomila yolg'iz sezardi. Farzandining har bir qadamini kuzatib turgan



Parkerning yakka-yu yagona merosxo'rining ota kasbiga bo'lgan befarqligidan afsuslangancha, xo'rsinib bosh silkib qo'yishdan boshqa chorasi yo'q edi.

Jorj Vinsent garchi kattalar bilan muomalada o'zini o'ta vazmin va sipo tutsa-da, ammo yaqin do'stlari bilan birga bo'lganida u o'ta quvnoq, so'zamol va dilcash suhbatdoshga aylanardi. Illo, yosh merosxo'r tabiatan yuvosh bo'lsa-da, adolatsizlikka toqat qilmaydigan va arzimagani nohaqlikka duch kelganda jahli chiqqanidan qoni qaynab, tutoqib ketadigan odati bor edi.

Bir so'z bilan aytganda, beozor va nozik did sohibi Jorj Vinsent Parker ishbilarmon, mol-dunyo ketidan quvgan odamlar ko'zi bilan qaraganda hech narsaga yaroqsiz bir landavur shaxs edi, xolos.

Biroq bizga ma'lumki, ayollar xususan Jorj Vinsent toifasidagi nozik ta'b va shoirona hissiyot sohiblariga ko'proq navozish ila munosabatda bo'lishadi. Sababi, farishtaday beozor ijod ahlining qalb to'rda allaqanday bir ichki ojizlik va ro'yxushlikka ehtiyoj nidosi borki, aynan shu undovga javoban ayol zoti vujudida mehr hissi tovlansa kerak. Ushbu ajib holning eng e'tiborli tomoni shundaki, ayolning irodasi qanchalik kuchli va fe'li jo'shqin bo'lsa, u shuncha tez ana shu mungli nidoga taskin berish uchun talpinadi.

Ayollar bobida hali unchalik uquvi bo'lmagan bu xushro'y er yigitning nidoyi zorlariga qancha ayol taskin berganligi va umuman Jorj Vinsentning hayotida unga taskin-u tasalli beruvchi ayollar yoki ishqida oh tortgan nozaninlar umuman bo'lganmi, yo'qmi bilmadik-ku, ammo uning bir muhabbati tarixi quyidagi barcha tafsilotlari ila ma'lum edi.

Kunlardan bir kun Jorj Vinsent bir shifokor do'stining uyida bo'lib o'tgan musiqa kechasida Meri Grovz ismli dilbar qiz bilan tasodifan uchrashib qolgandi. Miss Grovz shifokorga xolavachcha bo'lib, shaharda birmuncha vaqt mehmon bo'lib turgandi. Aslida qiz shahardan uncha uzoq bo'lmagan qishloqda sakson yoshdan oshgan zamindor bobosi bilan birga yashardi. Grovzning bobosi ulug' yoshda bo'lishiga qaramay, hali

ham bardam-baquvvat va favqulodda g'ayratli bo'lib, daladagi ishlari bilan birga sudyalik faoliyatini ham yuritardi.

Shu choqqacha o'zi yashagan xilvat qishloqning sokin turmush tarzidan diqqinafas bo'lgan bu latofatli va zarifa qizga shaharning jo'shqin hayoti nihoyatda yoqib qoldi. Hammaga musiqachi yigit sifatida tanilgan Vinsent o'ktamligi va muloyim ahloq-odobi bilan miss Merining qalbidan munosib joy egallashga muvaffaq bo'ldi. Nainki tashqi ko'rki, balki tavozeli muomalasida qandaydir xayoliy jozibasi bo'lgan didi nozik yigitlar yosh xonimlarga tez yoqib qolishi tabiiy hol, albatta. Merining qishloq qizlariga xos soddaligi va husni-jamoli, qolaversa, did-farosatli ekani, iymanib qarashlari Jorj Vinsentni ham maftun etdi. Oqibatda, bu ikki qalb orasida avvaliga yalt etib yongan do'stlik va mehr tuyg'ulari qiz qishloqqa ketib ulgurmay, eng samimiy hislarga, ya'ni otashin muhabbatga aylandi...

Xullas ko'p o'tmay, Jorj Vinsent Parker va miss Meri Grovz rasmiy unashtiruv tantanalarida sadoqat va ahdi vafo ontini iroda etib, oila degan rishta bilan bog'lanishga qaror qilishdi. Ammo baxtga qarshi bu unashuv ikki yoshning qarindoshlariga xush yoqmadi. Bu vaqtda kekxa Parker allaqachon dorilfanodan dorilbaqoga rihlat qilgan bo'lib, u katta mol-dunyasini xotiniga vasiyat qilib ketgandi. Vasiyatnomada qayd etilishi bo'yicha Jorj Vinsent otasining merosi qanchaligidan qat'i nazar ishlab o'zini-o'zi boqishi lozim edi. Shu meros tufayli o'g'il va ona o'rtasida tez-tez mojaro bo'lib turardi.

Meri Grovz aslzodalardan edi. Merining kekxa zamindor bobosi va qarindoshlari qizning Jorjdek g'alati didli va g'ayrioddiy xulq-atvor sohibi bo'lmish yigitga turmushga chiqishiga rozilik bermay, oyoq tirab turib olishdi. Bu ko'ngilsiz gap-so'zlar oz emas, ko'p emas roppa-rosa to'rt yil davom etdi. Shu yillar davomida sevishtganlar o'zaro tez-tez xat yozishib turishsa-da, ammo juda kam uchrashishardi. Jorj Vinsent yigirma beshga, uning qallig'i yigirma uch yoshga to'lganda ham to'ydari darak yo'q edi. Oxir-oqibatda qarindoshlar qarshiligiga doxt berishga





qizning irodasi yetmadi. Miss Grovzning Vinsentga bo'lgan otashin tuyg'ulari asta-sekin so'na boshladi va nihoyat u kuyov bo'lmish bilan aloqani batamom uzishga qaror qildi. Merining xatlaridagi iliqlik va samimiyat tafti asta-sekin kamayib borib, endi ular o'rmini behis iboralar va o'z qismatidan zorlanib bitilgan o'kinchlar egallagan edi. Vinsent esa sevgan yorining maktublarini qo'lidan qo'ymay qayta-qayta o'qir va nima uchun mahbubasining nomalarida toleyiga yozg'irishlar, alam-u anduhlar salmog'i ko'payib borayotganini tushuna olmasdi. Shunday bo'lsa-da, yigit o'zini qandaydir mash'um bir xabar kutayotganini qalban his qilayotgandi. Yigirmanchi avgust kuni u qallig'i Vinsentga qandaydir ruhoni yigit bilan tanishgani haqida yozib yubordi. Meri o'z nomasida bu pastor yigitga o'xshagan odob-axloq bobida benazir va dilkash insonni shu choqqacha sira uchratmaganligini alohida qistirib o'tdi.

«U uyimizda mehmon bo'ldi, — deb yozgan edi qiz xatida. — Sezishimcha, bobom shu yigitga turmushga chiqishimni istayapti, shekilli. Menimcha, bu taklifga rozi bo'lishim dargumon».

Garchi so'nggi jumla, xavotirdan xalos etib, yaxshi umid bag'ishlovchi so'zlardan iborat bo'lsa-da, negadir Jorj Vinsentning ko'nglini mavhum bir tashvish chulg'ab oldi. Keyinchalik Jorjning onasi, o'g'li aynan o'sha maktubni olgandan so'ng nihoyatda ma'yus tortib qolganini va oxir-oqibatda uni aynan shu g'am ado qilganini alohida ta'kidlab o'tgandi. Shunday bo'lsa-da, uning yaqinlari yigitning bunday holatiga e'tibor berishmadi, negaki Jorj yoshligidan dilgirlikka moyil bo'lib, sal narsaga tushkunlikka tushib qolardi.

Ertasi kuni kelin bo'lmishdan yana boshqa bir maktub keldi. Nomada xiyla qat'iy ohang ila quyidagi satrlar bor edi:

«Xudo shohid, sizga aytmoqchi bo'lgan gaplarim juda ko'p, shu boisdan dilimga tugib qo'ygan so'zlarimni ushbu noma orqali havola etishni lozim topdim. Bobom xatlarimizni topib olib, meni qattiq koyidilar. U pastor yigit bilan bo'lajak nikohimga

ikkimiz o'rtamizdagi munosabatlar to'siq bo'lib turganligidan nihoyatda norozi. Meni tushuning, uning amriga monelik qilolmayman. Shu boisdan ham siz bilan qilgan ahdi paymonimni buzishimga ijozat berishingizni so'rardim. Shafqat aylab, iltijoimni qabul etasiz, degan umiddaman. Bu bobomga inon-ixtiyorim o'zimda, deb aytishim uchun zarur. Na iloj, taqdir bizni siylamadi. Azizim Jorj, bilaman siz ham qiynalib ketdingiz. Ammo men bechorani chindan sevsangiz, qarorimdan ranjimaysiz, deb o'ylayman. Men ruhoniy yigitga turmushga chiqmaslik uchun qo'limdan kelgancha harakat qilaman».

Har qanday oshiq yigit qalbini pora-pora qilib tashlaydigan ushbu noma Vinsent uchun ham qattiq zarba bo'ldi. G'ururi toptalgan oshiqning qaddi bukilib, ikki ko'zi jiqqa yoshga to'ldi. U shu darajada ayanchli holatga tushib qolgandi-ki, oqibatda onasi kechalari uning yonida holidan boxabar bo'lib o'tirish uchun do'stlaridan birini chaqirishga majbur bo'ldi. Asablari qaqshagan Jorj Vinsent o'z xonasidan chiqmasdan tuni bilan tinmay xonaning u burchagidan bu burchagiga devonaday yurib chiqdi. Axiyri, uni bir amallab yotib uxlashga ko'ndirishganda, uning oyoq-qo'llari asabdan titray boshlardi. Unga kuchli tinchlantiruvchi dori berib ko'rishdi, ammo bu ham hech qanday natija bermadi. U ovqat yeyishdan butunlay bosh tortdi. Ayniqsa, u qizning maktubiga qanday javob berishini bilolmay, butkul adoyi tamom bo'ldi. Javob xatini u faqat ertasi kuni unga tunda hamdardlik qilayotgan do'stining yordamida yozdi. Xat nihoyatda xushmuomalalik va mulohaza bilan yozilgandi.

«Yolg'izim Meri, — deb yozgan edi u nomada, — siz men uchun doim suyuqli inson bo'lib qolasiz. Xatingizni olib qalbim vayron bo'lmadi, desam yolg'on aytgan bo'laman. Nima bo'lgan taqdirda ham, sizga yuk bo'lishni istamayman: bilingki, siz erkinsiz, inon-ixtiyoringiz o'zingizda. Biroq shunday bo'lsa-da, xatingizda so'ragan iltimosingizga hali xo'p deganimcha yo'q.



Sizning bu o'tinchingizga, diydoringizni ko'rib, maktubingizda yozgan so'zlaringizni o'z og'zingizdan eshitganimdan so'nggina rizolik berishga qaror qildim.

Azizam Meri, meni yaxshi bilasiz, Jorjningiz hissiyotga berilib janjal ko'taradigan yoki boshqa bir beadabchilik qiladigan insonlardan emas. Men Angliyadan bosh olib chiqib ketaman, ammo ketishimdan avval jamolingizni loaqal yana bir marotaba ko'rishni istardim. Yo, Parvardigor! Sizni so'nggi bor ko'rsama! Bu qanday baxtiqarolik bo'ldi! Tushuning, sizni ko'rish istagida ekanim tabiiy hol. Mendek xokisorga rahm aylab, uchrashuv joyimizni o'zingiz belgilaysiz, degan umiddaman.

Uchrashguncha xayr, azizam Meri. Sizga ilhaq va intizoringiz Jorj Vinsent».

Ertasi kuni u Meridan uchrashuv haqida o'tinib so'rab, Standvel qishlog'ining unga qulay biror joyida uchrashishga tayyor ekani haqidagi boshqa bir maktub yo'lladi:

«Mening sog'lig'im juda yomon va yuragimga qil ham sig'mayapti, — deb yozgan edi u navbatdagi maktubida. — O'ylaymanki, siz ham xuddi shunday holatda bo'lsangiz kerak. Bir lahzalik diydor ikkimizga jinday bo'lsa-da taskin berardi. Beg'ubor nigohingiz va nozik ovozingiz ila dardmand qalbimga huzur va halovat baxsh etasiz, degan umiddaman. Uchrashuvga men albatta kelaman.

Umrbod sizni suyib qoluvchi, Jorj Vinsentingiz».

Chamasi bu maktubga qizdan javob xati olingan shekilli, boisi — chorshanba, ya'ni oyning o'n to'qqizinchi kuni Jorj Vinsent unga quyidagi maktubni yo'llagandi:

«Azizam Meri!

Duoyi salom ila ma'lum qilamanki, siz aytgan poyezdda albatta kelaman. Xudo haqqi, jonginam, ko'p xijolat chekib, o'zingizni aslo azobga qo'ymang! Iltimos, menga rahmingiz



kelmasin. Siz bilan faqat shikasta qalbimga taskin berish uchungina uchrashmoqchiman, xolos. Buning uchun meni xudbinlikda ayblamaysiz, degan umiddaman. Shunday bo'lsa-da, yana takror aytaman: tilagingizni o'z og'zingizdan eshitishni xohlayman va barcha istaklaringizni bajo keltirishga tayyorman. Menda, fransuzlarning ta'biri bilan aytganda, «vaziyatga to'g'ri baho bera olish qobiliyati» bor. Ya'ni men yuz berishi muqarrar bo'lgan voqealardan ko'pam kuyinib, hasrat chekib o'tirmayman. Qolaversa, men uchun judolik alami qanchalik achchiq



bo'lmasin, meni deb bobongiz bilan orangizda nizo paydo bo'lishini aslo istamayman.

Farishtam, basharti mehmonxonada uchrashishimizga qarshi bo'lmasangiz, men sizni o'sha yerda kutaman. Ammo yana o'zingiz bilasiz, siz nima desangiz — shunga roziman».

Biroq endi miss Grovz yigitni xufiyona uchrashuvga taklif etgani-
dan afsuslana boshlagandi. Balki u bir yostiqa bosh qo'ymoqchi
bo'lgan yigitning tabiatidagi ba'zi bir g'ayrioddiy xislatlari esiga tushgani
uchun undan hayiqqandir? Xatining javobini ham kutib o'tirmay, unga
shu mazmundagi maktub yo'lladi:

«Azizim Jorj!

*Sizga shuni shoshilinch xabar qilishim lozimki, uchrashuvga
kelib ovora bo'lib yurmang. Sababi, men bugun bir zarur yumush
yuzasidan jo'nab ketyapman va qachon qaytishim ham noma'-
lum. Siz bilan uchrashishni xohlamayman va qolaversa, ko'rish-
maganimiz durust, deb o'ylayman. Maktub orqali xayrlasha
qolganimiz ma'qul. Ojizona iltimosimni qabul eting. Shu so'z-
larni ming istihola ila sizga aytishni lozim topdim. Tushuning,
siz bilan uchrashish men uchun juda og'ir. Menga yana xat
yozish istagingiz bo'lsa, xatni uch kundan kechiktirmay yuboring.
Bilsangiz, meni kuzatishyapti va xatlarigizni menga sezdirmay
ochib o'qishyapti.*

Sizning Meringiz».

Ushbu maktub ikki yoshning ishqiy munosabatlariga nuqta
qo'yishi lozim edi. Shu yo'sindagi xotimani qalban tuyib yurgan
yigitning xayolida balki avvallari qandaydir noaniq rejalar gujg'on
o'ynab yurgan bo'lgan bo'lsa, endi o'sha rejalar aniq qarorga
aylangandi.

«Meri menga uch kun muddat bergan bo'lsa, demak, vaqtni pay-
salga solib bo'lmaydi», — dedi o'ziga o'zi Vinsent. Yigitning qalb
tuyg'ulari tug'yon urib, o'sha kuniyoq yo'lga otlandi. Ammo yarim

yo'lga yetganda ancha kech bo'lgani tufayli Standvelga bormay, mehmonxonada tunab qolishiga to'g'ri keldi.



Mehmonxona xizmatkori o'zini qo'yarga joy topa olmayotgan yigitning g'ayrioddiy yurish-turishiga hayron bo'lganday tikilib qoldi. Ko'rinishidan u juda parishon edi va mehmonxona foyesida u yoqdan bu yoqqa yurib, o'zicha allanimalar deb g'uldurardi. Choy va qiyma go'sht buyurtirishga buyurtirdi-yu, ammo ovqatga qo'l ham tekkizmay, nuqul aroq ichdi, xolos. Ertasiga ertalab, ya'ni 25 avgust kuni u Standvelgacha boradigan poyezdga o'tirib, u yerga soat 11.30 atrofida yetib keldi. Standveldan Meri Grovz yashaydigan yergacha bo'lgan masofa ikki milcha edi. Jorj Vinsent temir yo'l stansiyasining shundoq yonginasidagi «Buqa Boshi» nomli mehmonxonaga kirib, o'ziga aroq buyurtirdi va «Mening nomimga xat bormi?» — deya so'radi. «Xat yo'q», degan javobni eshitib, qattiq xafa bo'ldi. 12 dan 15 daqiqa o'tganda u mehmonxonadan chiqib, mahbubasi yashaydigan hovli to-monga yo'l oldi.

Ammo u avval qizning hovlisiga emas, undan qariyb ikki milyacha berida joylashgan maktabga kirib o'tishga qaror qildi. Zero maktab muallimi Grovzlar xonadoni bilan juda qalin munosabatda bo'lib, Jorj Parker haqida ham uncha-muncha xabardor edi. Maktabga u sevgilisi Meri haqida so'nggi yangiliklarni bilish maqsadida yo'l olgandi va u yerga soat 13.30 da kirib bordi. Muallim kiyimlari bir ahvol, rangi zahil va aroq hidi anqib turgan yosh janobni ko'rib, juda hayron bo'ldi va uning savollariga vazminlik bilan javob berishga harakat qildi.

— Men huzuringizga miss Grovzning do'sti bo'lganingiz uchun keldim. Siz bizning Meri bilan fotiha qilinganimiz haqida albatta eshitgan bo'lsangiz kerak?

— Ha, xabarim bor, janob. Ammo bilishimcha, o'sha fotiha buzilgan.

— Afsus shunday, — deb javob berdi Jorj Parker. — U ichgan ontini qaytarib berishimni so'rab, menga maktub yubordi. Biroq endi



esa o'zi men bilan uchrashishdan bosh tortyapti. Modomiki, uchrashuvdan voz kechgan ekan, unda ne sababdan bu maktubni yuborganligini bilmoqchi edim.

— Taassuflar bo'lsinki, bu haqda hech narsa bilmayman.

— Ammo, men ertami-kechmi buning sababini albatta bilib olaman, — dedi Parker alamzadalik bilan.

So'ngra u Grovzlar hovlisida mehmonda bo'lgan pastor yigit haqida surishtirdi. Muallim uning savoliga javoban haqiqatan u yerda bir pastor mehmon bo'lgani haqida aytib, uning ismini oshkor etmaslikni ma'qul ko'rdi.

Shunda Parker: «Miss Grovz shu uydami va agar shu xonadonda yashayotgan bo'lsa, qarindoshlari unga zulm o'tkazmayaptilarmi?», — deya so'radi. Muallim qizning shu hovlida yashayotganligini aytib, hech kim hech kimga jabr o'tkazmayotganligini ta'kidladi.

— Bugunmi yo ertagami, qachon bo'lsa ham Merini albatta ko'rishim kerak, — dedi u hazin ovozda. — Men javob maktubimda uni ichgan ontidan forig' qilaman, deb va'da bergandim. Ammo ne sababdan mendan yuz o'g'irganligini uning o'zidan bilmoqchi edim. Meri balog'at yoshida va ixtiyori ham o'z qo'lida. Men unga munosib qalliq emasligimni ham bilaman va shu boisdan uning erkin hayotiga to'sqinlik qilishni istamayman.

Muallim uzr so'rab, darsga shoshayotganligini aytdi va gapining orasida darsi soat to'rt yarimda tugashini hamda mabodo Parker u bilan yana gaplashish niyatida bo'lsa, kelishi mumkinligini qistirib o'tdi. Parker ham yana albatta qaytib kelishini aytib, maktabdan chiqib ketdi. Shundan keyingi ikki soatni u qayerda va qanday tarzda o'tkazganligi noma'lum. Ehtimol u biron-bir qo'shni mehmonxonada vaqt o'tishini kutib o'tirgandir, balki bu vaqtni tamaddi qilishga sarflagandir. Biroq ne bo'lganda ham soat to'rtidan o'ttiz daqiqa o'tganda u maktabga qaytib kelib, endi bu yog'iga nima qilishi kerakligi haqida muallimdan



maslahat so'radi. Muallim unga miss Grovzga noma yozib, ertasi kuni ertalab uchrashuvga taklif qilishni maslahat berdi.

— Ammo menimcha, — deb qo'shib qo'ydi oqko'ngil muallim ketini o'ylamay, yaxshisi miss Grovzning yoniga shaxsan o'zingiz borganingiz ma'qul. Nima bo'lganda ham u sizni qabul qiladi.

— Gapingiz to'g'ri, — javob berdi Parker, — bu mojaroni tezroq bir yoqlik qilishim kerak.

Soat besh atrofida u maktabdan chiqib ketadi; shu chog'da u vazmin va aqli-hushi joyida edi.

Qirq daqiqacha vaqt o'tgach, muhabbati rad etilgan yigit qallig'i-ning uyiga kelib, oqsoch qizdan miss Grovzga o'zining kelgani haqida xabar berishni iltimos qildi. Ammo miss Meri uni xiyobon oralab kelayotgan paytda derazadan ko'rib bo'lgan edi. U Jorj Vinsentga peshvoz chiqib, uni boqqa taklif etdi. Albatta, bu daqiqada miss xijolatdan o'zini qo'yarga joy topa olmayotgandi. Chunki boyoqish qiz bobosi sobiq qallig'i Jorjni ko'rib qolgudek bo'lsa, katta janjal bo'lishidan juda qo'rqardi. Shuning uchun ham u Parkerni bexavotirroq va kimsasiz xiyobonga taklif qildi. Shunday qilib, ikki yosh xiyobondagi o'rindiqlardan birida yarim soatcha bamaylixotir gaplashib o'tirishdi.

Shundan so'ng boqqa oqsoch qiz kelib, miss Grovzga choy tayyor ekanligini ma'lum qildi. Qiz choy ichishga bir o'zi boradi, bundan mazkur xonadon sohiblari Jorj Vinsentga qanday munosabatda ekanliklari ko'rinib turardi. Ular uni hatto choyga ham taklif qilishni xohlashmadi. So'ng miss yana boqqa qaytib kelib, uzoq vaqt Jorj bilan suhbatlashib o'tirdi; nihoyat ular o'rinlaridan turishdi. Aftidan ikkalasi uy atrofida biroz sayr qilishmoqchi bo'lishgan. Ular aylanib yurishganini ko'rgan odamlar bo'lsa-da, sayr vaqtida Jorj Vinsent va Meri Grovz o'rtaida nima gaplar bo'lib o'tganligi endi barcha uchun sir bo'lib qoladi. Balki u ahdidan qaytganini qizning yuziga solgandir, qiz esa achchiq gaplar bilan ters javob bergandir. Afsuski buni hech kim, hech qachon bila olmaydi, bu yolg'iz Parvardigorgagina ayon.



Kechqurun soat sakkiz yarimlarda Ruvim Konvey ismli xizmatkor zamindorning uyi va katta yo'l o'rtasidagi maysazor oralab o'tayotib, u tomonga bir yigit va qizning kelayotganiga ko'zi tushgan ekan. Qorong'i bo'lishiga qaramay xizmatkor qiz zamindorning nabirasi miss Grovz ekanligini tanigan. Ularning yonidan o'tib ketaturib, xizmatkor orqasiga o'girilib qaraganda ikkovi bir yerda turib olib, allanimalar haqida gaplashib turishgandi. Ko'p o'tmay Ruvim Konvey yana shu yerdan qayta o'tib ketayotsa, unga kimningdir zo'rg'a ingrayotgan tovushi eshitildi. U to'xtab, mungli ovoz kelayotgan tomonga quloq solib turdi. Kecha sokin edi, xizmatkorga kimningdir zorlanib ingragan tovushi go'yo yanada yaqinroq eshitalayotgandek tuyuldi. Shunda u atrofga yaxshilab razm solib, devorni ushlab zo'rg'a yurayotgan allakimning sharpasini ko'rdi.

Avvaliga xizmatkor biror-bir jonivor devor yonida maysa chimdib yurgan bo'lsa kerak, deb xayolidan o'tkazdi. Biroq yaqinroq kelib qarasa, bu ayol kishi edi. U oyog'ida zo'rg'a turib, devorga tayangan-cha uy tomon ketayotgandi. Qorong'i g'ira-shirada rangi dokadek oqarib ketgan Meri Grovzning yuzi ko'rindi. Ruvim Konvey dahshatdan qichqirib yubordi.

— Meni uyga olib boring! Meni uyga olib boring! — deya zo'rg'a pichirlardi bechora qiz. — Menga anavi janob pichoq urdi.

Qo'rqib ketgan Ruvim uni ko'tarib, uy tomon o'ttiz qadamcha yurgach, nafasini rostlab olish uchun to'xtadi.

— Maysazorda hech kim ko'rinmayaptimi? — bo'g'iq ovozda arang bosh ko'tarib so'radi Meri.

Xizmatkor orqasiga o'girilib qaradi. Ularning ketidan daraxtzor oralab sekin-asta kelayotgan odamning jussasi ko'rindi. Xizmatkor qizning tushib ketayotgan boshini ko'targancha, o'sha odamning yaqinroq keli-shini kutib turdi. Nihoyat Vinsent Parker ularning yoniga yetib keldi.

— Miss Grovzni kim pichoqladi? — so'radi xizmatkor Parkerdan.

— Uni men o'ldirdim! — deya javob berdi Vinsent Parker o'ta sovuqqonlik bilan.

— Unda qizni uyiga olib borishda menga yordam bering, — dedi Ruvim Konvey.

Qorong'i maysazor bo'ylab uy tomon xizmatkor va qotil oshiq birgalashib jon berayotgan qizni ko'tarib ketishdi.

— Bechora Meri! Bechora Meri! Nimaga meni aldading? — deya o'zicha to'ng'illardi Vinsent Parker.

Ular hovli darvozasiga yaqinlashgach, Vinsent Parker Ruvimga qonni to'xtatish uchun biror narsa olib kelishni buyurdi. Ruvim narsa qidirib ketdi va ikki baxtiqaro sevishganlar yana bir bor, oxirgi marotaba yolg'iz qolishdi. Ruvim qaytib kelib Parker qizning tomog'idan oqayotgan qonni to'xtatishga harakat qilayotganligini ko'rdi.

— U tirikmi? — so'radi xizmatkor.

— Tirik, — javob berdi Vinsent Parker.

— Oh, jonim og'riyapti... Meni uyga eltib qo'yinglar! — deya bazo'r gapirdi sho'rlik qiz.

Yana sal yurishgach, ularning yoniga ikki dehqon yugurib keldi.

— Bu vahshiylik kimning ishi? — so'radi ulardan biri.

— Buni kim qilganligini Meri ham, men ham bilamiz, — javob berdi Parker xo'mraygancha. Bu qotillikka men qo'l urdim, endi dorga osilishimni ham bilaman. Ha, buni men qildim, boshqa gapga hojat yo'q.

Hayron qolarlisi shu ediki, Vinsent Parker bu taxlit qo'rs javoblari uchun na haqorat qilindi va na kaltaklandi. Fojiaiy holatning o'ta og'irligi hammaga ayon, birorta odam churq etmay turardi.

— Men... o'lyapman! — yana bir bor ingradi bechora Meri. Bu uning so'nggi nafasida aytgan vido so'zi edi. Hovli ichkarisidan keksa zamindor egniga kamzulini naridan-beri tashlagancha «Bu baxtsizlik qanday yuz berdi ekan?», deya hovliqib yugurib chiqdi. Ko'rinishidan uni nevarasi falokatga yo'liqqani haqida xabardor qilishgan edi.

Cholning halloslab kelayotganini ko'rib, qizning jasadini olib kelayotganlar bir zum to'xtab qolishdi.



— Ey, Xudoyim! Nima bo'ldi? — deya baqirigancha keldi u.

— Nabirangiz Merini chavaqlashdi, — bamaylixotir javob berdi Vinsent Parker.

— Buni qaysi nomard qildi?! — qichqirdi jonholatda qariya.

— Men.

— Sen kimsan?

— Mening ismim Jorj Vinsent Parker.

— Nega bu ishni qilding, ablah?

— Nabirangiz menga bevafoqlik qildi, umidimni puchga chiqargan ayolning esa yashashga haqqi yo'q!

Vinsent Parker hayron qolarlik darajada xotirjam edi.

Cholning ortidan uyga kirib borarkan, Parker istehzo ila dedi:

— U men uni o'ldirishimni bilardi. Bu haqda uni ogohlantirgandim. Meri fe'lim qanaqaligini ham yaxshi bilardi.

Ma'suma qizning jasadini uyning oshxonasiga olib kirib, stol ustiga yotqizishdi. Nabira dog'ida qalbi ado bo'layozgan qariyaning tili kalimaga ham kelmay, nabirasining hali sovib ulgurmagan jasadi tepasida bir muddat haykalday qotib qoldi. So'ng boshiga tushgan kulfatdan esankiragancha indamay mehmonxonaga kirib ketdi. Vinsent Parker ham uning ortidan kirdi. U cho'ntagidan pul solingan kartmon, soat va boshqa mayda-chuyda narsalarini olib cholga uzatdi va ularni onasiga berib qo'yishini so'radi. Zamindor jiqqa yoshga to'lgan ko'zlarini unga tikkancha, bu iltimosni inkor etdi. Shunda Parker cho'ntagidan ikki dasta xat: muhabbat tarixidan qolgan ayanchli esdaliklarni chiqardi.

— Unday bo'lsa, mana bu maktublarni oling! — dedi u. — Xohlang ularni o'qing, xohlang yoqib tashlang. Men bu xatlarni sudda ashyoviy dalil sifatida ishlatishlarini istamayman.

Meri Grovzning bobosi maktublarni olib, kaminda lovullab turgan olovga irg'itib yubordi.

Shu orada har qanday uyga jinoyat ketidan darhol yetib keladigan doktor va politsiyachi uyga kirib keldi. Bechora Merining jasadi hamon





oshxona stolida yotardi, uch marotaba urilgan pichoq izi bo'ynida yaqqol ko'rinib turardi. Uning asosiy qon tomiri, tibbiyotchilar tili bilan aytganda — arteriyasi kesilgan edi. Baxtiqaro Merining shunday og'ir jarohatdan keyin ham birmuncha vaqt yashay olgani hayratlanarli edi. Politsiya zobitining jinoyatchini ortiqcha qidirib yurishiga hojat qolmadi. Zobit xonaga kirib kelishi bilanoq, uning yoniga Vinsent Parkerning o'zi keldi.

— Bu yosh xonimni men o'ldirdim va o'zimni qonun qo'liga topshiraman, — dedi u. — Meni qanday jazo kutayotganligini ham yaxshi bilaman. Ortingizdan aytgan joyingizga borishga roziman. Faqat marhuma bilan oxirgi marotaba xayrlashishga ijozat bering.

— Jinoyat quroli bo'lgan pichoq qani? — so'radi politsiya zobiti.

Parker cho'ntagidan pichoqni chiqarib, zobitga topshirdi. U oddiy buklama pichoq edi. Eng qizig'i, tintuv vaqtida Parkerning cho'ntagidan yana ikkita pichoq topildi.

Shundan so'ng Parkerni oshxonaga olib kirishdi va u o'z qo'li bilan o'ldirgan suyuqli mahbubasining yuziga so'nggi bor ma'yus tikilib turib, hammaning nafratini qo'zg'aydigan g'ayriinsoniy bir gapni aytdi:

— Mana endi, uni o'ldirgach, o'zimni avvalgidan ham baxtiyor his qilyapman. Umid qilamanki, Meri ham o'zini baxtli, deb hisoblaydi.

Jorj Vinsent Parker va miss Meri Grovz o'rtasidagi muhabbatning fojiali intihosi mana shulardan iborat edi. Mehr bilan qahr orasi bir qadam, deganlaricha bor ekan. Bu qotillikda o'ta beshafqat mantiqsizlik ila qandaydir qayg'uli va noxush tabiiylik alomatlari ko'rinib ham turardi. Taassufki, hayot aynan shu jihati bilan to'qima voqealardan farq qiladi. Biz yozuvchilar biron-bir badiiy asar yozar ekanmiz, qahramonimizni albatta biz uning o'rnida nima qilishimiz kerak, deya hisoblasak, o'sha harakatlarni sodir etishga va xayolimizda kechgan fikrlarni gapirishga majbur qilamiz. Ammo aslida jinoyatchi nihoyatda noodatiy so'zlarni gapirishga va siz-u bizning hatto xayolimizga ham kelmaydigan, avvaldan payqash tugul yetti uxlab tushingizga kirmaydigan harakatlar sodir etishga qodir.



Men siz aziz kitobxonlarni Parkerning maktublari bilan tanishtirdim. Mazkur nomalar mazmunida qotillik alomatlar sal bo'lsa-da mavjud edi-mi? Albatta yo'q. Jinoyatchi qotillikni sodir etgandan so'ng qanday xatti-harakatlar qiladi? Parker o'z qurbonining qonini to'xtatishga harakat qildi, boshiga tushgan kulfatdan adoyi tamom bo'lgan keksa odamga o'ta telbanamo gap aytdi. Ajabo, buni qanday tushunish kerak? Yozuvchi ahli o'ta kuchli xayolot olamiga, ya'ni fantaziyaga ega bo'lganda ham inson zotining bu qadar tuban harakatlarini o'ylab topa olishi mumkinmi?

Parkerning maktublarini yana bir bor diqqat bilan o'qib chiqing, voqeaning bari tafsilotlarini tahlil qiling, ana shunda siz mavjud va ma'lum dalillarga tayangan holda yigitning o'z qallig'ini avvaldan reja qilib o'ldirish uchun Standvelga atayin kelmaganligining guvohi bo'lasiz.

Ne sababki, ushbu muhabbat mojarosi qotillik sodir bo'lishiga olib keldi? Vodarig'! Nahotki xudbinlik deya atalmish tuban tuyg'u ezgulikdan ustun kelsa? Nechun yaxshi-yomon kunlarda doim birga yashashga ont ichgan inson qotillikka qo'l urdi? Bu qadar yovuz va qabih niyat Parkerning ko'nglida avval ham bo'lganmi yoki maysazorda mahbubasi bilan gaplashayotgan lahzalarda uning biror-bir so'zidan g'azablangani bois qo'qqisdan paydo bo'ldimi? Bu savollarning javobi endi biz uchun umrbod sirigicha qoladi. Ammo nima bo'lganda ham qiz qallig'ining o'ziga nisbatan mash'um niyati borligini sezmaganligi aniq edi. Bunga aminman, aks holda u maysazorda uchratib qolgan xizmatkor Ruvim Konveyini yordamga chaqirgan bo'lardi.

Bu shafqatsiz qotillik butun Angliyada katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Parker sudya baron Martin raisligida sud qilindi. Sudlanuvchining aybini isbot qilishning zarurati yo'q edi, chunki u gunohini tan olibgina qolmasdan, balki bu jirkanch qilmishidan uyalmay-netmay oshkora maqtandi ham. Shu bois ham Parkerning aqli rasoligi xususida qizg'in bahs ketdi. Baxs-u munozaralar, muhokamalar natijasi jinoyat sohasidagi qonunchilikni qayta ko'rib chiqish zaruratiga borib taqaldi.



Sud majlisiga Jorj Vinsent Parkerning barcha qarindosh-urug'lari chaqirtirildi va surishtiruv jarayonida aqli noqislik dardi Parkerlar sulolasi qonida borligi ma'lum bo'ldi. Bir mahallar Parkerning o'nta amakivachchasi va xolavachchalaridan to'rttasi aqldan ozgan ekan. Guvoh sifatida Parkerning onasi ham chaqirtirildi, u nihoyatda ishonchli dalillar yordamida o'g'li g'irt jinni ekanini isbotlay ketdi. Darvoqe, missis Parkerning aytishiga qaraganda, ota-onasi undan kasalmand farzand tug'ilishini bilishgani tufayli uzoq vaqt uni hatto turmushga berishni ham istashmagan ekan. Barcha guvohlar bergan ko'rsatmalaridan ma'lum bo'ldiki, sudlanuvchi bema'ni yoki yovuz inson emas, balki ta'sirchan, nozik tabiatli va yaxshi tarbiya ko'rgan oddiy bir yigit edi. Nima bo'lganda ham, unda ruhiy tushkunlikka kuchli moyillik borligi hammaga ayon edi. Qamoqxona rohibi Jorj Vinsent bilan bir necha bor suhbatda bo'lib, ayblanuvchida ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni idrok etish hissi umuman yo'qligini, u ezgulik va yomonlikni bir-biridan farqlay olmasligini aytdi. Parkerning ruhiy holatini tekshirib ko'rgan ikki shifokor ham u aqli noraso odam ekan, degan xulosaga kelishdi. Bu fikrga kelishga sudlanuvchining so'nggi bayonotida u qilgan qotillik yovuzlikdan o'zga narsa emas ekanini tan olishdan bosh tortgani asos bo'ldi.

— Miss Grovz menga turmushga chiqaman, deb va'da bergan edi, — deya qayta-qayta takrorlardi u. — Meri faqat meniki edi va men u bilan xohlagan ishimni qilishga haqli edim. Mening fikrim qat'iy va faqat mo'jizagina ushbu fikrimdan qaytishga majbur qilishi mumkin, xolos. Shifokor sudlanuvchining gunohni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash maqsadida u bilan munozara qilishga ham harakat qilib ko'rdi:

— Tasavvur qilib ko'ring, sizda bir surat bor edi. Uni sizdan o'g'irlab qo'yishsa, siz uni qaytarib olish uchun nima qilgan bo'lar edingiz?

— O'g'ridan mulkimni qaytarib berishini talab qilardim, agar u talabimni qondirishdan bosh tortsa, hech o'ylab o'tirmay uni o'ldirgan bo'lardim.



Shifokor unga bunday fikrda bo'lishi mutlaq noto'g'ri ekanini aytdi. «Nima uchun qotillikka qo'l urish kerak? Uning o'rniga muammoni hal etishning qonuniy choralari ko'rish zarur emasmi?» — deya savol berdi u Vinsent Parkerga.

Ammo Parker shifokorning fikriga qo'shilmadi.

— Bu dunyoga kelishni xohlaymanmi yoki yo'qmi, buni mendan hech kim so'ramagan. Dunyoda birorta ham odamning meni ayblashga haqqi yo'q. Bu gaplardan so'ng doktor quyidagi xulosaga keldi: aniq ko'rinib turibdiki, Parkerning axloqiy me'yorlarga rioya qilish hissi haddan ziyod g'ayriodatiydir. Ammo bunday fikr-mulohaza qilish mutlaqo noto'g'ri. Agarda biz shu tariqa fikr yuritadigan bo'lsak, unda ma'naviy axloq qadriyatlarini tan olmaydigan toifadagi kimsalar o'z yovuzliklari uchun mas'ul emas, deb hisoblagan bo'lib qolamiz. Basharti u kabi tuban odamlarni aqldan ozgan deb tan olguday bo'lsak, undaylarni javobgarlikdan va adolatli jazodan ozod qilishimizga to'g'ri keladi.

Baron Martin sud majlisi raisi sifatida qilgan yakuniy xulosasida «Qonun hamma uchun barobar», degan nuqtayi nazarga asoslangan to'xtamga kelish zarurligini eslatib, qisqacha shunday dedi:

«Baxtga qarshi jamiyatimizda ovsar-u savdoyi va bemuohaza odamlar keragidan ham ko'proq, — deya qayd etdi baron Martin. — Basharti shunday nusxalarni, ya'ni o'zlarining g'ayrushuriy harakatlari ila o'zgalar hayotiga zomin bo'lganlarni odamiylik aqidalarini uyatsizlarcha inkor etuvchilarni aqldan ozganlar, ya'ni irodasi ojizlar toifasiga kiritib, qilinishiga yarasha jazolamasak, adolat tanazzulga uchrab, butun jamiyat ma'naviy parokandalikka yuz tutishi mumkin. Qonun bo'yicha jinnilik g'ayrushuriy holat bilan barobar. Shuursiz inson deb o'zini nima qilayotganini bilmaydigan holatda bo'lgan jinoyatchini atash mumkin. Ammo Parker nima qilayotganini aniq bilgan va qilgan jinoyati uchun uni dor kutayotganligini o'z og'zi bilan yuzsizlarcha tasdiqlab turibdi. Bemulohazalik — zinhor aqli norasolik emas! Faqat so'qirgina bu haqiqatni ko'ra olmaydi».

Baron sud maslahatchilarining ayblov hukmiga qo'shildi va Jorj Vinsent Parkerni o'lim jazosiga hukm qildi. Basharti sud raisi Baron Martinni vijdon azobi qiynamaganda, balki jinoiy ish shu yo'sinda nihoya topgan bo'lishi ham mumkin edi. Biroq sudlanuvchining aybdorligiga ishonchi komil bo'lgan baron sud jarayonini o'ta qattiqqo'llik bilan olib borgan bo'lsa-da, ruhshunos shifokorlarning yozma ko'rsatmalaridan so'ng uning ko'nglida «Aqli noraso odamga o'lim jazosi berib xato qilmadimmikan?» degan shubha paydo bo'ldi.

Baron aynan shu andisha-yu gumonlar bilan tun bo'yi uxlamay chiqqani ehtimoldan holi emas edi, negaki u ertasi kuni ertalab davlat kotibiga yo'llagan maktubida o'z shubhalarni bayon etib, jinoiy ishni qayta ko'rib chiqishni so'ragandi.

Davlat kotibi mazkur jinoiy ishga tegishli bo'lgan hujjatlarni diqqat bilan o'rganib chiqib, sud qarorini tasdiqlashga hozirlik ko'rib turgan paytda, o'lim jazosini ijro etilishi arafasida tibbiyotdan umuman xabari yo'q allaqanday odamlar Parkerni qamoqxonada tibbiy ko'rikdan o'tkazib kelib, sud idorasiga o'linga mahkum etilgan shaxsda jinnilik alomatlari yaqqol ko'rinibdi, deya yozma ma'lumot taqdim etdilar. Shundan so'ng davlat kotibi o'lim jazosi ijrosini to'xtatib turishga qaror qilib, ruhiy kasalliklar bo'yicha to'rtta eng malakali shifokordan iborat qo'shimcha tibbiy komissiya tayinladi. To'rttala shifokor bir ovozdan Parker mutlaq sog' ekanini qayd etishdi. Ammo shunday yozilmagan qonunlar ham bor-ki, unga ko'ra o'lim jazosining ijrosini keyinga qoldirish jinoyatchini afv etish bilan barobar bo'ladi. Shu boisdan Parker uchun chiqarilgan o'lim jazosi umrbod surgun etish jazosi bilan almashtirildi. Nima bo'lganda ham ushbu holatda hukmning yumshatilishi va qotilning ayanchli qismatiga marhamat qilinganligi jamoatchilik vijdoniga taskin bera oldi, deb aytishimiz mumkin.





QORA DOKTOR

(Detektiv hikoya)

Sizga hikoya qilayotganimiz ushbu voqea Liverpoolning janubig'arbiy tomonida, ya'ni undan o'n milcha narida joylashgan bir ovloq qishloq — Bishop-Krossingda sodir bo'lgandi.

Ming sakkiz yuz yetmishinchi yillarning boshida bu yerga Aloiz Lana ismli bir doktor ko'chib kelib, shifokorlik amaliyoti bilan shug'ullana boshladi. Qishloq ahliga doktorning o'tmish hayoti va Lankashir grafligining eng chekka hududlaridan biriga kelib yashashga uni nima majbur qilganligi haqida hech narsa ma'lum emasdi. U haqda faqat



ikki narsa ma'lum edi, xolos: birinchisi uning Glazgodagi tibbiyot tahsilgohini a'lo baholar bilan bitirganligi to'g'risidagi diplomi borligi bo'lsa, ikkinchisi doktorning, shak-shubhasiz, janubiy mintaqa irqiga mansub ekanligi edi. Zero u qoramag'izdan kelgan bo'lib, ko'rinishidan ko'proq hindlarga o'xshab ketardi. Ammo shunday bo'lsa-da, doktorning yuz qiyofasida yevropaliklarga xos xislatlar ustuvor bo'lib, xushaxloqi va davralarda o'zini tuta bilishi uning tomirida ispan qoni ham bo'lsa kerak, degan taxminga asos bo'lardi.

Zohiran qorachadan kelgan, qarg'aning qanotidek tim qora sochli, quyuq qoshlar ostida qora ko'zlari chaqnab turgan doktor mallasoch va xiyla dag'al muomalali mahalliy erkaklar orasida keskin ajralib turardi. Qishloqdagilar tez orada yangi shifokorga «Bishop-Krossinglik qora doktor» deb laqab qo'yishdi. Avvaliga bu laqab kesatiqday, ya'ni doktorga nisbatan bir ma'noda past nazar bilan qarash yoki uni mazax qilishdek ko'ringan bo'lsa-da, ammo yillar o'tib, bu nom faxriy unvondek g'urur bilan tilga olinadigan bo'ldi. Doktorni endi nafaqat qishloqda hurmat qilishar, balki uning dovrug'i butun Lankashir grafligiga ham tarqalgandi.

Yangi doktor favqulodda iqtidorli inson: malakali jarroh va qo'li yengil shifokor bo'lib chiqdi. Qora doktordan avval bu xilvat qishloqda liverpullik yurist-maslahatchi ser Uilyam Rauning arzandasi Edvard Rau shifokorlik qilardi. Afsuski, u otasiga o'xshab kasbiga qunt bilan yondashmadi, qolaversa, Edvard iste'doddan ancha yiroq odam edi. Shu sabab bo'lsa kerak, doktor Lana nafaqat malakasi, balki o'zining yaxshi xulq-odobi bilan raqibini tezda siqib chiqara oldi.

Doktor Lana mahalliy jamoatchilik orasida juda tez obro'-e'tibor qozondi. U oliy hurmat va ehtirom sohibi Jeyms Laurani, ya'ni kimsan lord Beltonning yolg'iz merosxo'rini jarrohlik yo'li bilan muvaffaqiyatli davolaganidan so'ng, sobiq bemori ko'magida mahalliy aslzodalar bilan yaqindan tanishish sharafiga muyassar bo'la oldi. Ko'p o'tmay «qora



doktor» nainki kelishgan bo'y-basti, istarasi issiqligi, balki xushaxloqligi bilan ham har bir xonadonning aziz va muhtaram mehmoniga aylanib bordi. Gohida taniqli yoki nufuzli qarindoshning yo'qligi va kishi o'tmishining aytarli hech kimga ma'lum emasligi ham jamiyatda yutuq va obro'ga erishishda xalaqit emas, bil'aks, juda qo'l kelishi mumkinligini hamma tushunib yetavermaydi.

Shunday qilib, «qora doktor»ning iste'dod sohibi ekanligi, ko'rki, o'ktamligi va jozibasi unga eng yaxshi tavsiya o'rnini bosa oldi. Axloq-odobda benazir bo'lgan doktor Lananing bemorlari undan atigi bitta kamchilik topishgandi, u ham bo'lsa, uning hanuzgacha bo'ydoqligi edi. Aloiz Lananing dang'illama uyda turishga qurbi yetishi va ayniqsa, havas qilguday darajada olib borayotgan doktorlik amaliyoti unga katta mol-davlat orttirish imkoniyatini berayotganiga qaramay, uylanishni xayoliga ham keltirmayotgani qishloq ahlini yanada ko'proq taajjubga solardi. Oldiniga qishloqdagi sovchi xotinlar doktorning «boshini ikkita» qilib qo'yish maqsadida bir necha oyimqizlarni unga ro'para qilib ko'rishdi. Ammo yillar o'tsa ham doktor Lana uylanmadi.

Shundan so'ng odamlar «Biror noma'qul sababi bordir-ki, u uylanishdan qochib yuribdi», degan gap chiqardi. Tili yomon beandishalar esa: «Yo'q, doktor avval uylangan, ammo u ijtimoiy mavqeyiga ko'ra xotinining tengi bo'lmagani sababli, vaqti kelib oilada paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz oqibatlardan qochib, chekka qishloqda umrguzaronlik qilishga ahd qilgan», degan mish-mish tarqatib yuborishdi. Sovchi xotinlar doktorni uylantirish umididan tamoman qo'l siltagan bir paytda, qo'qqisdan uning Ley Xollda istiqomat qiluvchi miss Frensis Morton bilan unashtiruv marosimi e'lon qilinib qoldi.

Miss Morton graflikda hamma taniydigan yosh xonim edi. Uning padari buzrukvori — hurmatli janob Jeyms Xolden Morton Bishop-Krossingdagi katta yer-mulk egalaridan bo'lgan. Ammo hozirda miss



Frensisning ota-onasi qazo qilgan bo'lib, u akasi Artur Morton, ya'ni yakka-yu yagona merosxo'r bilan birga yashardi. Miss Frensis Morton shamshoddek tik qomat va har qanday erkakni o'ziga mahliyo qila oladigan latofat sohibasi bo'lishi bilan birga, nihoyatda xushro' va o'z obro'si, qadr-qimmatini biladigan did-farosatli qiz edi. U tabiatan nozik ta'bli va jo'shqin fe'l, kuchli irodaga ega shaxs edi.

Miss Frensis Morton va doktor Lana bir-biri bilan Lankashir grafligidagi bir obro'li zotning hovli-bog'ida uyushtirilgan ziyofatda tasodifan tanishib qolgan bo'lib, o'shanda bu ikki qalb sohiblari orasida paydo bo'lgan mehr hislari tezda muhabbatga aylangandi. Frensis va Lananing sof va samimiy tuyg'ulari har qanday maqto'v, olqish-u tahsinlardan balandroq edi. Sevishganlarning yoshi o'rtasida sezilarli farq bo'lib, doktor o'ttiz yetti yoshda bo'lsa, miss atigi yigirma to'rt yoshda edi. Ammo ikkovining baxtli oila qurishlari uchun bundan bo'lak to'siq yo'q edi. Unashtiruv marosimi fevral oyida bo'lib o'tdi, to'yni esa avgust oyida o'tkazishga kelishib olindi.

Uchinchi iyun kuni doktor Lanaga chet eldan allaqanday maktub keldi. Odatda, qishloqning pochta bo'limi boshlig'i g'iybat tarqatish vazifasini ham bajarishi hammaga ma'lum. Bishop-Krossingdagi pochta bo'limi boshlig'i janob Benki ham har bir qishloqdoshining sirlaridan voqif edi. Doktor Lanaga kelgan noma haqida u atrofidagilarga quyidagi gaplarni ma'lum qildi: maktub jildi o'ta g'ayrioddiy bo'lib, undagi yozuv erkak kishining qo'li bilan yozilgan. Xat Argentina-dan jo'natilgan, zero, uning markasi aynan shu mamlakatga tegishlidir. Janob Benkining aytishicha, bu maktub doktor Lanaga chet eldan kelgan yagona maktub edi. Pochta bo'limi boshlig'ining nomani pochtachiga berishdan avval uni o'ta sinchkovlik bilan o'rganib, bilib olgan ma'lumotlari mana shulardan iborat edi. Qolaversa, maktub o'sha kuniyoq ega-siga, ya'ni shaxsan doktorga topshirilgandi.

Ertasiga ertalab, aniqrog'i, to'rtinchi iyun kuni doktor Lana qaylig'i miss Mortonni ko'rgani borib, uzoq vaqt suhbatlashib qoldi. Doktor



uyiga benihoya xafa holda qaytib keldi va u nimadandir qattiq tashvishda ekanini ko'pchilik bildi. Miss Morton esa kuni bo'yi xonasidan chiqmadi; oqsoch qiz missning ko'zyosh qilib o'tirganligini bir necha marotaba ko'rib qolgani ham tezda ovoza bo'ldi. Bir haftadan so'ng esa qishloqda kelin-kuyovning fотиhasi buzilgani haqida turli gap tarqaldi. Aytishlaricha, mister Lana yosh qaylig'i bilan «nomunosib muomalada» bo'lgani uchun, qizning akasi, ya'ni yosh eskvayr¹ — Artur Morton doktorni qamchi bilan savalayman, deb do'q-po'pisa qilgan emish.

Doktor sharm-u odob bobida benazir bo'lgan qaylig'iga nisbatan aynan qay tarzda «nomunosib muomalada» bo'lgani esa hech kimga ma'lum emasdi. Odamlar: «Bu sirli jumboqning tagida nima gap bor ekan», deya toza bosh qotirib, turlicha fikr-mulohazalarni muhokama qilish imkoniyatiga ham muyassar bo'lishdi.

Doktor Aloiz Lana uyga kirmay, Ley-Xoll atrofida g'amnok holda soatlab aylanib yurdi. Qishloq ahli doktorning bunday dilgir holatini: «U, hoynahoy, vijdon azobida qiynalib, o'zini qo'yarga joy topa olmay yuribdi», — deb izohlay ketdi. Aloiz Lana yakshanba kungi ibodatga ham bormay qo'ygandi, negaki, yosh ledi aynan shu kunlari cherkovdagi ibodatini kanda qilmay, qatnab turardi. Ko'p o'tmay «Lanset» jurnalida shifokorlik amaliyotiga huquq beruvchi vasiqani sotish haqida egasi kimligi noma'lum bo'lgan e'lon paydo bo'ldi. E'londa biron kimsaning nomi qayd etilmagan bo'lsa-da, odamlar gap Bishop-Krossing haqida ketyapti, deb o'ylab, «Doktor Lana qishloqdan bosh olib ketmoqchi ekan», degan ovoza tarqatishdi.

Dushanba, ya'ni 21-iyun kuni kech kirgunga qadar bo'lgan voqealar tafsiloti shulardan iborat edi. Ammo aynan 21-iyun kuni tunda sodir bo'lgan bir hodisa qishloqda shu choqqacha kechayotgan oddiy maishiy mojaroni fojia darajasiga ko'tarishga va jamiki Angliya ahlining diqqa-

¹ *Eskvayr* — Angliyada yer mulkdori ism-sharifiga qo'shib aytiladigan nasliy faxriy unvon.



tini o'ziga qaratishga sabab bo'ldi. Binobarin, o'sha tunda bo'lib o'tgan hodisani to'la-to'kis tasavvur qilish uchun avval unga sabab bo'lguchi voqealarning ba'zi tafsilotlari haqida aytib o'tish lozim bo'ladi.

Xullas, doktor Lananing uyida o'zidan boshqa yana ikki odam yashardi, ya'ni ish yurituvchi kotiba — bu tabarruk yoshdagi missis Marta Vudz va oqsoch qiz — miss Meri Pollint. Izvoshchi va jarrohlik muolajalari paytida yordam berib turadigan yugurdak bola o'z uyida yashardi.

Doktor ish kabinetida kechalari xoli qolib ishlashga odatlangan bo'lib, kabinet binoning chap qanotida, ya'ni qabulxona bilan yonmayon joylashgandi. Bemorlar uchun qulay bo'lsin deya kabinetning yonidan qabulxonaga kirish uchun alohida yana bir eshik ochilgandi. Shu bois doktor Lananing oldiga kim kelib, kim ketganini hamma ham bilavermasdi. Oqsoch qiz va kotiba ayolning yotog'i ancha narida bo'lgani sababli tunda kelgan bemorlarga eshikni doktorning shaxsan o'zi ochardi.

Fojia sodir bo'lgan kechasi Marta Vudz soat 21.30 da doktorning kabinetiga kirib, allanimalarni yozib o'tirgan Aloiz Lanaga xayrli tun tilab chiqib ketdi. So'ng Missis Vudz oqsoch qizga uxlashga ruxsat berib, o'zi soat 22.45 ga qadar uy yumushlari bilan mashg'ul bo'ldi. Missis o'z xonasiga kirganida, devor soati 23.00 ga bong urgan edi. Chamasi o'n besh yoki yigirma daqiqa o'tgach, unga kimningdir dahshatli baqirig'i eshitildi. U nima bo'lganini tushuna olmay, biroz ovoz kelgan tomonga quloq solib turdi, ammo boshqa hech narsa eshitilmadi. Marta Vudz qichqiriq g'ayrioddiy va qo'qqisdan yuz berganidan xavotirga tushdi va shosha-pisha egniga xalatini tashlagancha doktorning kabinetiga kelib, eshikni taqillata boshladi.

— Kim u!? — degan badjahl ovoz eshitildi.

— Bu men, ser! Missis Vudzman.

— O'tinaman, meni tinch qo'ying, xonim! Xonangizga qaytib boring-da, yotib uxlang! — dedi kimdir do'q qilib.



Missis Vudz bu aynan janobining ovozi ekanini tanidi. Ammo unga qo'pol tarzda aytilgan gapdan va doktorning odatiy muomalasiga o'xshamaganidan taajjublanib, qattiq xafa bo'ldi.

— Meni yo'qladingiz deb o'ylabman, ser! — deya uni bezovta qilganining sababini izohlashga harakat qildi.

Biroq boshqa javob bo'lmadi. Missis Vudz doktorning bu taxlitdagi javobidan ranjib, yotog'iga qaytib ketdi. Kotiba xonim yo'lakdagi soatga qaraganida, o'sha payt uning millari 23.30 ni ko'rsatayotgan edi.

Soat 23 va 24 oralig'ida (xo'jalik ishlarini yurituvchi kotiba xonim aniq vaqtni ayta olmadi) doktor qabuliga davolanuvchi bir ayol keldi. U qabulxona eshigini qancha taqillatmasin, hech kim javob bermadi. Bu ayol bemor emas, balki terlama kasalining og'ir xili bilan og'rigan qishloq baqqolining xotini — missis Medding edi. Bundan bir necha kun avval doktor Lana missis Meddingdan kechqurun kelib bemor erining holidan xabardor qilib qo'yishni so'ragandi. Baqqolning xotini doktorning kabinetida chiroq yoniqligini ko'rib, uning yonidan qabulxonaga kirish uchun alohida ochilgan eshikni ham taqillatib ko'rdi, ammo javob bo'lavermagach, janob Lana biror-bir bemorni ko'rgani ketgan bo'lsa kerak, degan xayolda uyiga qaytib ketadi.

Doktorning hovlisidagi xiyobondan o'tgan ilon izi yo'lak to'g'ri katta ko'chaga olib chiqardi. Yo'lak oxiridagi ustunda fonus yonib turardi. Missis Medding xiyobon oralab ko'chaga chiqib ketayotlsa, yo'lakda allaqanday bir erkak kishiga ko'zi tushadi. Bu bemorning uyidan qaytayotgan doktor Lana bo'lsa kerak, deb o'ylab, uni kutib turadi. Ammo u odam doktor emas, balki yosh eskvayr ekanligini ko'rib hayron qoladi. Qo'lida ovchilar gavronini ushlab kelayotgan Morton o'ta asabiylashgan holatda edi. Buni sezgan baqqolning xotini yigitga: — Doktor uyda yo'qlar, ser! — deydi.

— Siz Lananing uyda bor-yo'qligini qayerdan bilasiz? — deb so'raydi u qo'pol ohangda.



- Men qabulxona eshigi yonidan hozirgina qaytib kelyapman.
- Ammo chiroq yoniq-ku, — deydi yosh eskvayr, uy tomonga ishora qilib. — Chirog'i yoniq xona uning kabineti, shunday emasmi?
- Xuddi shunday, ser. Lekin doktor kabinetida yo'q, eshikni rosa taqillatib ko'rdim, ammo hech kim javob bermadi.
- Mayli, biroz kutay-chi, zora qaytib kelib qolsa, — deb javob beradi kichik Morton. Missis Medding esa shoshganicha o'z uyiga qarab ketadi.

Tong-sahar, chamasi soat uchlar... Baqqolning kasali yanada zo'rayib, o'zini juda yomon his qila boshladi. Missis Medding erining og'ir ahvolidan xavotirga tushib, doktorni chaqirib kelish uchun uning uyiga keladi. U darvozadan kirib doktor Lananing uyi tomon ketayotgan mahalda xiyobondagi dafnazor orasida kimdir yashirilib turganini sezib, ajablanganday bo'ldi. U odam erkak kishiligiga va u aynan Artur Morton ekaniga Missis Meddingning ishonchi komil edi. Biroq bunga ortiqcha e'tibor berib o'tirmay, shoshgancha yo'lida davom etdi.

Doktorning uyiga kelgach, kabinetidagi chiroq hali ham yoniq turganini ko'rib juda hayron bo'ldi. Missis Medding qabulxonaga kiradigan eshikni taqillata boshladi, lekin javob bo'lmadi. U tag'in bir necha marotaba eshikni taqillatib ko'rdi, ammo ichkaridan hech qanday ovoz eshitilmadi. Doktorning lampani o'chirmay, qanday qilib uyquga yotishi yoki uyidan chiqib ketishi mumkin, deya ajablangan missis Medding «Balki u charchab, kresloda uxlab qolgandir», degan fikr keldi. Missis kabinet derazasini ham qattiq taqillatib ko'rdi, ammo bu ham foyda bermadi. Shunda u deraza pardasi va romi orasidan tor oraliqdan kabinet ichiga mo'raladi.

Stol ustidagi katta lampa xonani yaxshi yoritib turar, kitoblar va davolash asboblari ayqashib yotardi, ammo biror kimsa ko'rinmasdi. Missis Medding stol soyasida gilamda kir oq qo'lqopdan tashqari hech qanday g'ayrioddiy narsani ham payqamadi. Biroq qorong'ilikdan so'ng



ko'zi yorug'likka sal moslashgach, to'satdan nazari oyoq kiyimga tushdi. Shunda u qo'lqop, deb o'ylagani polda cho'zilib yotgan odamning qo'li ekanini anglab, dahshatga tushdi. Qandaydir o'ta mudhish falokat yuz berganini tushunib yetgach, u uyning asosiy eshigi yoniga kelib, jon-jahdi bilan qo'ng'iroqni chalgancha ish yurituvchi Vudz xonimni uyg'otdi. Ikki ayol avval oqsoch qizni politsiyani chaqirishga yuborib, so'ng doktorning kabinetiga chopib kelishdi.

Kabinetni ochib qarashganda deraza va stol oralig'idagi burchakda chalganchasiga doktor Lananing jonsiz jasadı yotgandi. Doktorning yuz qismidagi jarohatlardan uni kimdir yovuzlarcha o'ldirgani shundoq ko'rinib turardi: murdaning bir qovog'i momataloq, yuz va bo'yin qismlarida qontalash izlar bor edi. Afti shishib ketgan va odatdagidan kattaroq edi. Bu esa, u bo'g'ib o'ldirilgan, deb taxmin qilishga asos bo'lardi. Doktorning egnida bemorlar qabuli vaqtida kiyadigan kiyimi, oyog'ida esa latta shippak bo'lib, u mutlaqo toza edi. Gilam ustida, ayniqsa, eshik tomonda loy bo'lgan boshmoq izlari bor edi. Bu izlar qotil tomonidan qoldirilgan bo'lsa kerak, degan taxminga asos bo'la olardi. Shu narsa aniq ediki, allakim bemorlarni qabul qilish xonasi eshigi orqali pinhona kirib, doktorni shafqatsizlarcha o'ldirgan va uydan kishi bilmas chiqib ketgan. Qotil erkak kishi ekani ravshan edi, zero, u qoldirilgan boshmoq izining kattaligi va marhumga kuchli zarb bilan yetkazilgan jarohat ham bu taxminni isbotlab turardi.

Ammo yuz bergan falokat politsiya tomonidan rasman o'rganilgandan so'ng juda ko'p jumboqli savollar paydo bo'la boshladi. Avvaliga jinoyat o'g'rilik vajidan sodir etilgan, deb taxmin qilingandi, biroq jinoyatchi doktorning hatto tilla cho'ntak soatiga ham tegmagan edi. Kabinetda temir seyf bo'lib, unda doktor pullarini saqlardi. Seyf qulflog'liq bo'lsa-da, ichida hatto bir chaqa ham yo'q edi. Kotiba xonim esa doktor unda katta miqdorda pul saqlasa kerak, deb o'ylardi. Ammo aynan o'sha kuni ertalab doktor Lana bug'doy uchun katta



miqdordagi haqni naqd pul bilan hisob-kitob qilgani aniqlangach, seyfda pul yo'qligiga qotilning daxli yo'q, degan xulosaga kelindi.

Xonada faqat bir narsa yetishmasdi, ya'ni miss Mortonning doimo stol chetida turadigan surati gardishdan sug'urib olingan edi. Bu holat esa o'z-o'zidan bir necha xulosalar qilishga asos bo'lib xizmat qildi. Yo'qolgan surat xo'jayinning xonasiga kirib, unga xayrli tun tilagan vaqtda aynan stol ustida turganligini missis Vudz o'z ko'rsatmasida qayd etib o'tganidan so'ng, tergov surishtiruv jarayonida surat o'ta muhim ashyoviy dalil bo'lib xizmat qilishi mumkin, degan xulosaga kelindi.

Pol ustida ko'z boylash uchun mo'ljallangan ko'k tusli g'alati bog'ich yotgan bo'lib, ish yurituvchi Vudz xonim uni ilgari hech ko'rmagandi. Ammo bunaqa narsalar shifokorning xonasida bo'lishi tabiiy holliigi uchun bog'ichni jinoyatga daxldor ashyoviy dalil sifatida ishga tikishning hojati yo'q, deb topildi.

Barcha dalil va shubhalar bir shaxsga kelib taqalgani vajidan yosh eskvayr Artur Morton darhol hibsga olindi. Garchi dalillar Mortonning qotillikka daxldor ekanini faqat bilvosita ko'rsatib turgan bo'lsa-da, ular yetarli darajada jiddiy edi. Ko'pchilikning tergovga bergan ma'lumotiga qaraganda, miss Morton va doktor Lananing fotihasi buzilgach, singlisi uchun jonini ham berishga tayyor aka bir necha bor: «Singlim uchun doktordan, albatta, qasd olaman», — deb do'q qilgan ekan.

Arturning o'sha kuni kechasi soat o'n birlarda ovchilar gavronini ushlab, bog' oralab doktorning uyi tomon yurib ketganligi ham o'z isbotini topdi.

Shundan so'ng politsiya qotillik holati bo'yicha o'zining quyidagi rasmiy gumonini bildirdi: Artur Morton doktorning hayotiga tajovuz qilish maqsadida kabinetiga bostirib kirgan daqiqalarda missis Vudz yo qo'rquv, yo g'azablanish tufayli sodir bo'lgan qattiq qichqiriq ovozini eshitgan. Kotiba xonim doktorning eshigini taqillatganida, marhum kel-



gan odam bilan holi gaplashib olay, degan niyatda kotibasiga o'z xonasiga qaytib ketishni buyurgan. Bu mojaroli suhbat anchagacha davom etgan va u bora-bora keskin tus olib, axiyr mushtlashish va doktor Lananing ayanchli o'limi bilan yakun topgan.

Murda yorib ko'rilganida, doktorning yuragi nosog' ekanligi ma'lum bo'ldi. Tirikligida uning yuragi xasta ekanligini shu choqqacha hech kim loaqal sezmagan ham ekan. Shifokorlar: «Doktor Lananing joni yuragi xastaligi tufayli o'linga sabab bo'la olmaydigan darajada yetkazilgan tan jarohatlari oqibatida uzilgan bo'lishi ham mumkin», deb faraz qilishdi.

Politsiya aybnomasida esa, Artur Morton doktorni o'ldirganidan keyin singlisining suratini gardishdan sug'urib olib, uydan shoshilinch chiqib ketgan, ammo yo'lda to'satdan missis Meddingni ko'rib qolgani sababli dafnazor orasiga yashirinib olgan, degan fikr rasman qayd etildi.

Qisqasi, yosh eskvayrga nisbatan qo'zg'atilgan jinoiy ishdagi ayblov xulosalari yuqorida qayd etilgan bilvosita gumonlardan iborat edi. Nima bo'lganda ham ayblov tomonidan keltirilgan asoslar hamda jinoyat belgilari yetarli darajada jiddiy edi.

Garchi shunday bo'lsa-da, oqlovchining ham ayblovga qarshi asosli dalillari bor edi. Morton tabiatan ta'sirchan va salga qizishib ketadigan odam ekanini ko'pchilik yaxshi bilardi. Ammo shunga qaramay, yosh eskvayr oqko'ngil inson bo'lgani uchun uni graflikda hamma hurmat qilar va yoqtirardi. Qalban pok yigitning samimiy chehrasi ham uning bunday qabihlikka borishi mumkin emasligini aniq aytib turganday edi.

Qotillikda gumon qilinayotgan Artur Mortonning shaxsan o'zi bo'lib o'tgan voqeani quyidagicha izohlab berdi:

— Ha, — deb tasdiqladi u. — Men doktor Aloiz Lana bilan muhim oilaviy masalalar haqida erkakchasiga gaplashib olish niyatida bo'lganman va bundan tonmayman ham (bu yerda u oila sha'nini



saqlab, singlisining ismini tilga olishdan o'zini tiyganligini qayd etib o'tamiz). Orani ochiq qilish natijasi balki rostdan ham noxush bo'lishi mumkinligini inkor etmayman.

Ayblanuvchining aytishicha, yo'lda u doktor Lananing qabuliga kelgan ayolni uchratib qolib, singlisini xafa qilgan odamning uyda yo'qligidan xabardor bo'ladi va uni sahar soat uchga qadar kutib turadi. Doktor Lana kelavermagach, o'ylagan niyatidan voz kechib, uyiga qaytib ketadi. Doktorning fojiali o'limi haqidagi tafsilotlar uni hibsga olgan konstebelga qanchalik ma'lum bo'lsa, yosh eskvayrga ham faqatgina shular ma'lum ekanligini ta'kidlab o'tdi. Artur Morton ilgari marhum bilan ko'zdek do'st bo'lganini, ammo bo'lib o'tgan voqeadan so'ng, aynan qanday voqea ro'y berganligini aytmalikni ma'qul ko'rgan holda, endilikda o'zining doktorga bo'lgan samimiy tuyg'ulari barham topganini ham tan oldi.

Biroq ikkinchi tomondan, tekshirish jarayonida ayon bo'lgan bir necha aniq mantiqiy dalillar uning qotillikka daxli yo'qligini ko'rsatayotgan edi, ya'ni kechqurun soat 23.30 da doktor Lana o'z kabinetida sog'-salomat ishlab o'tirgan bo'lgan. Missis Vudz ham aynan shu vaqtda doktorning ovozini shaxsan eshitganini yana bir bor ont ichib tasdiqlashga tayyor edi.

Ayblanuvchining oqlovchisi «Demak, o'sha paytda doktor Lana, ehtimol, yakka o'zi bo'lmagan bo'lishi kerak», degan farazni ham ilgari surib o'tdi. Sababi, kotibaning e'tiborini tortgan qichqiriq, doktorning g'ayrioddiy qo'rs muomalasi va o'zini tinch qo'yishlari haqidagi istagi go'yo aynan shu fikrni tasdiqlab turganday edi. Modomiki, shunday ekan, unda doktor Lananing o'ldirilishi kotibaning qichqiriq ovozini eshitgan vaqti bilan missis Meddingning doktorni birinchi bor yo'qlab kelib, eshik qoqqan va javob ololmay ketgan vaqti oralig'ida sodir bo'lgan bo'lishi mumkinligini isbotlovchi taxmin bo'lib hisoblanishi lozim edi. Agar qotillik aynan shu vaqt orasida sodir etilgan bo'lsa, u holda doktorning o'limiga mister Mortonning hech qanday daxli yo'qligi oydek



ravshan; sababi — missis Medding xonim yosh eskvayrni hovlida ancha keyin uchratgan.

Basharti oqlovchi tomonning farazi haqiqat deb topilgudek bo'lsa, demak, missis Medding yo'lida janob Artur Mortonni uchratishidan avval doktor Lananing oldida allaqanday boshqa bir shaxs bo'lgan. Xo'sh, o'sha boshqa noma'lum kimsa kim bo'ldi ekan? U nima sababdan doktorning joniga qasd qilgan? O'sha qotilning qanday alarni bo'lganki, doktorni vahshiylarcha o'ldirgan? Qotillikda ayblanayotgan Artur Mortonning himoyachilari shu muham savollarga aniq javob topib bera olsalargina, uning begunoh ekanligini isbotlashga muvaffaq bo'lishlarini hamma tushunib turardi.

Ammo savollarga javob topilavermagach, beandisha odamlar: «Doktor Lananing xonasida Artur Mortondan bo'lak hech zog' bo'lmagan», — deb gap tarqata boshladilar. Bu gaplar asossiz va shunchaki g'iybat uchun aytilgan bo'lsa-da, boshqa tomondan, bir qator guvohlar o'z ko'rsatmalarida doktorning uyiga yosh eskvayr yaxshi niyat bilan kelmaganini tasdiqlab turgan edilar. Missis Medding kelgan paytda doktor, ehtimol, uydan chiqib ketgan-u, keyinroq qaytib kelib, uni kutib turgan Artur Morton bilan uchrashgan bo'lishi mumkin, degan farazlar ham ayblanuvchi foydasiga emas edi.

Mortonning ba'zi tarafdorlari: «Doktorning kabinetidan yo'qolgan miss Frensisning rasmi janob Mortonning uyi tintuv qilinganida topilmaganiga alohida e'tibor berilishi kerak», — deb turib oldilar. Ammo bu dalil sud tomonidan e'tiborga olinmadi. Boisi, bunda gap ayblanuvchining hibsga olinguniga qadar mazkur rasmni yoqib tashlashi yoki boshqa bir yo'l bilan yo'qotib yuborishi uchun yetarli vaqti bo'lganida edi.

Mazkur jinoiy ishdagi yagona va ishonchli dalil hisoblanmish kabinetdagi iflos boshmoq izlari haqida shuni aytish mumkinki, u gilarnda chaplanib ketgani tufayli, izlarga asoslanib biror-bir jiddiyroq xulosaga kelishning imkoni bo'lmadi. To'g'ri, izlarni Morton qoldirgan bo'lishi mumkin, chunki surishtiruv jarayonida uning ham boshmoqlari

o'sha kechasi loy bo'lgani aniqlangandi. Bunday taxmin qilinadigan bo'lsa, fojia yuz bergan kuni qattiq jala quygan bo'lib, qishloqdagi barcha odamlarning boshmoqlari ham xuddi shunday loy bo'lganligi aniq edi.



Lankashir ahlining fikr-u zikrini butkul chulg'ab olgan va hayotda kamdan-kam uchraydigan voqealarning tafsiloti mana shulardan iborat edi. Doktorning majhul nasl-nasabi, g'alati va g'ayrioddiy shaxs ekanligi; qotillikda ayblanayotgan yosh eskvayrning oliy nasabi; bir odamning o'limiga sabab bo'lgan ishq-muhabbat mojarosi — bularning barchasi bir-biriga shu qadar chigal bog'lanib ketgan ediki, ko'rilayotgan jinoiy ish hatto butun boshli xalqning e'tiborini o'ziga tortadigan o'ta fojiaiy voqeaga aylanib ketdi.

Bishop-Krossinglik «Qora doktor ishi» deb nom olgan jinoiy ish har uchala graflikda elning og'zida edi. Aniqlangan dalillarni izohlash maqsadida juda ko'p taxminlar bildirildi. Ammo shuni aniq aytish mumkin ediki, ularning ichida birortasi ham sud majlisining birinchi kunida bildirilgan asosiy fikrlar va uning ikkinchi kunida yanada avjiga chiqqan tortishuvlar mazmunini keskin o'zgartirishga mutlaq ta'sir eta olmasdi.

Hozir shu satrlarni qog'ozga tushirar ekanman, stolimda yotgan bir to'p «Lankaster Uikli» gazetasining sahifalarida sud jarayonining batafsil hisoboti berilgan. Ammo kamina tafsilotlarga ortiqcha berilmay, sud majlisining faqat birinchi kuni haqida, ya'ni miss Frensisning mazkur o'ta chigal jinoiy ishga aniqlik kiritgan ko'rsatmasigacha bo'lib o'tgan voqealarning qisqacha bayoni bilan cheklanmoqchiman.

Shunday qilib, sud majlisida janob Porlok Karr — bosh qoralovchi aniqlangan barcha dalil va vajlarni bittama-bitta asoslab, jinoyatni Artur Morton sodir etganini isbotlaganday bo'ldi. Sud majlisining birinchi kuni yakuniga yetib borgan sari janob Xamfrining, ya'ni ayblanuvchining advokati oldida o'ta murakkab vazifa turganligi yanada aniqroq bo'ldi. Bir necha guvohlar Injilga kaftlarini qo'yib qasam ichishga olib kelindi.



Guvohlar bir ovozdan: «Ayblanuvchi haddan ziyod quyushqondan chiqib, doktor haqida xunuk gaplar aytdi», — deb tasdiqlab o'tishdi.

Medding xonim ayblanuvchini kechasi doktorning uyi yonida uchratib qolgani haqidagi guvohlik ko'rsatmasini sud majlisining ikkinchi kuni ham takroran tasdiqladi. Yana bir guvoh esa doktorning o'z kabinetida kechalari yolg'iz qolib ishlash odati borligini ayblanuvchi avvaldan bilgani haqida ko'rsatma berdi. «Aynan shu sababli, — deb ta'kidladi guvoh, — ayblanuvchi o'z jinoiy rejalarini amalga oshirish uchun tunni tanlagan. Zero, bu paytda qurbon yakka o'zi va tamomila himoyasiz bo'lgan».

Eskvayming qaroli: «Yosh janob uyga erta sahar soat uchlar atrofida keldi», — deb to'g'risini aytishga majbur bo'ldi. Qarolning bu iqrori esa, o'z navbatida, missis Meddingning dafnazor orqasida aynan Mortonni ko'rganligi haqida bergan ko'rsatmalarini bevosita tasdiqlovchi yana bir dalil bo'ldi.

Loy boshmoqdan qolgan iz va uning Artur Morton oyoq iziga o'xshashligi masalasi ham batafsil muhokama qilindi. Ayblov xulosalaridan qoralovchi tomon ancha-muncha mehnat qilgani yaqqol ko'rinib turardi. Dalillarning o'z tasdig'ini topishi nisbatan tasodifiy bo'lishiga qaramay, go'yo ish yakuniga yetganday va ayblanuvchining taqdiri hal bo'lganday edi. Faqat mo'jiza yuz berib, kutilmagan qarshi dalil topilsagina, sud ishi boshqacha tus olishi mumkin edi, xolos.

Qoralovchi tomonidan barcha guvohlar gapirib bo'lganida soat uch edi. Soat 16.30 da, ya'ni tanaffusdan so'ng, sud yana o'z ishini davom ettira boshlaganda, hammani benihoya hayratda qoldira oladigan o'ta favqulodda voqea yuz berdi. Men hali nomini aytib o'tgan gazetadan sud binosi tasvirlangan joyini olib tashlab, voqeaning hech kimning hatto xayoliga ham kelmagan tafsilotlari haqidagi qismidan quyidagi iqtiboslarni keltiraman:

«Odamlar bilan liq to'la sud zaliga ayblanuvchining singlisi miss Frensis Morton guvoh sifatida chaqirilishi haqiqiy shov-shuvga sabab

bo'ladigan voqeaga aylandi. Mushtariylarimizga ma'lumki, yosh ledi doktor Lana bilan unashtirilgan edi va foti haning qandaydir sirli sabab bilan qo'qqis dan buzilishi izzat-nafsi toptalgan, deb hisoblagan yosh ledining akasi g'azabini junbishga keltirib, jinoyat sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. Ammo nima bo'lganda ham miss Mortonning bu ishga aslo aralashmagan va uning nomi tergov harakatlarida ham, sud ishida ham qayd etib o'tilmaganligi, shuningdek, uning zalda bosh guvoh sifatida paydo bo'lib qolishi hamma uchun kutilmagan voqea bo'ldi.

Miss Frensis Morton — baland bo'yli, qora sochli dilbar ayol o'z ko'rsatmalarini past ovozda, ammo aniq-aniq qilib bayon eta boshladi. Yosh ledining juda hayajonda ekani ham yaqqol sezilib turardi. Uning ta'kidlashicha, foti haning bekor qilinishi doktorning oilasi bilan bog'liq shaxsiy sabablarga ko'ra sodir bo'lgan. Shu sababdan akasining achchiqlanishini u doim bema'nilik va yengiltaklikdan o'zga narsa emas, deb hisoblaganligini aytib, hammani hayron qoldirdi.

Sudyaning savoliga javoban miss Morton doktor Lanadan aslo xafa emasligi va gina saqlamaganini aytib, doktor o'ta tushkun holatda bo'lishiga qaramay, o'zini har tomonlama benuqson tutganligini alohida ta'kidlab o'tdi. Yosh ledining aytishicha, akasi masalaning asl mohiyatini tushunmay-bilmay turib, butunlay boshqa fikrda bo'lgan va miss undan qancha o'tinib so'ramasin, u rostdan ham doktorni ochiqchasiga haqoratlab: «Undan, albatta, o'ch olaman!» — deb do'q qilgan. Aka-singil o'rta-sidagi bu gaplar ayni qotillik sodir etilgan kuni bo'lib o'tgani va akasini bu shashtidan qaytarish uchun yosh ledi qo'lidan kelgan hamma ishni qilganini yashirmay aytib berdi. «Ammo Artur his-tuyg'ulari va o'z or-nomusini himoya qilish borasida o'ta qaysar va cho'rtkesar edi», — dedi miss so'zining yakunida xo'rsinib.

O'z ko'rsatmasining shu yerigacha yosh ledi ayblanuvchining foydasiga emas, aksincha, go'yo ziyoniga gapirgandek bo'lib ko'rindi. Biroq advokatning savollari va u hech kim kutmaganda qo'llagan himoya usuli ko'rilayotgan jinoiy ishga tamoman boshqa tus berib yubordi.



Janob Xamfri: Ayting-chi, miss, siz akangizning shu qotillikni sodir eta olishiga ishonasizmi?

Sudya: Men norozilik bidiraman, janob Xamfri! Savolingiz mutlaq noo'rin. Shuni bilingki, biz bu yerga fikrlar muhokamasi uchun emas, balki aniq dalillarga tayanib ish ko'rish uchun yig'ilganmiz.

Janob Xamfri: Uzi, zoti oliylari! Miss Morton, siz akangiz doktor Lananing o'limida aybdor emas, deb hisoblaysizmi?

Miss Morton: Ha, u aybdor emas, men buni bilaman!

Janob Xamfri: Bilaman?! Nimani bilasiz? Aniqroq ayting!

Miss Morton: Shuni bilamanki, janob Lana tirik!

Sud zalidagilar birdan oyoqqa turib ketdi va qattiq g'alg'ovur boshlandi. Shu tufayli guvohni so'roq qilish vaqtincha to'xtatildi.

Janob Xamfri: Nimaga asoslanib siz doktor Lana tirik deb hisoblaysiz?

Miss Morton: Negaki, men doktorning o'lgani haqida gap tarqalgan kunning ertasiga undan maktub olganman!

Janob Xamfri: O'sha maktub yoningizdami?

Miss Morton: Ha, ammo uni ko'rsatmaslikni ma'qul ko'rardim.

Janob Xamfri: Maktub jildi saqlanib qolganmi?

Miss Morton: Ha, mana u.

Janob Xamfri: Xatjild ustiga qaysi manzilning pochta tamg'asi bosilgan?

Miss Morton: Liverpul manzili.

Janob Xamfri: Qaysi sana bilan?

Miss Morton: 22-iyun kuni bilan.

Janob Xamfri: Demak, doktor o'ldirildi deyilgan kunning ertasi sanasi bilan, shundaymi? Miss Morton, konvert ustidagi yozuv aynan doktorning qo'li bilan yozilgan, deb qasam ichib ayta olasizmi?



Miss Morton: Ha, albatta!

Janob Xamfri: Zoti oliylari! Men ijozatingiz bilan yana oltita guvoh chaqirtirganman. Ular maktub aynan doktor Lananing qo'li bilan yozilganini tasdiqlab berishlari mumkin.

Sudya: Unday bo'lsa, guvohlarni ertaga bo'ladigan sud majlisiga chaqirtirishingiz mumkin.

Janob Porlok Karr (bosh qoralovchi): Zoti oliylari! Basharti shunday ekan, u holda dalil sifatida keltirilgan maktubni bizga taqdim etilishini talab qilamiz va, zero, o'ldirilgani aniq bo'lgan janobning qo'li bilan yozilgan, deb ta'kidlanayotgan xat qalbaki ekaniga dalil va isbotlar keltirishga tayyormiz.

Aminmanki, o'ta kutilmagan tasodif bilan paydo bo'lib qolgan ushbu taxminiy dalil ayblanuvchining tarafdorlari tomonidan tergov ishini chalg'itish uchun atayin uyushtirilgani va yaqqol ko'rinib turgan hiyla ekanini sud hay'atiga eslatib o'tishning hojati yo'q.

Muhtaram sudya janoblari! Men e'tiboringizni quyidagi jihatga qaratishingizni so'rardim, ya'ni yosh ledining iqroriga ko'ra, go'yoki doktor Lana tomonidan yozilgan xat dastlabki tergov ishlari boshlangan paytdayoq mavjud bo'lgan. Ammo u shu choqqacha sud ishining qanday yo'sinda ketishi kerak bo'lsa, shunday ketishiga indamay imkoniyat yaratib berib, bir daqiqa ichida barcha ayblovga chek qo'ya olishi mumkin bo'lgan dalilni nima uchun ilgariroq emas, aynan bugun ko'rsatyapti? Nima maqsadda bu tasodifiy dalilga bizni ishontirmoqchi bo'lyapti?

Janob Xamfri: Miss Morton, buning sababini sud hay'atiga tushuntirib bera olasizmi?

Miss Morton: Doktor Lana maktubida o'zining siri oshkor qilinmasligini istagan edi.

Janob Porlok Karr: Xo'sh, nega unda doktorning sirini ochdingiz?

Miss Morton: Akamni qutqarish maqsadida.



Sud zalida shivir-shivir gaplar eshitildi. Ularning aksariyati miss Mortonga qalban xayrixoh bo'lganlarning ovozi edi. Ammo sudya ularni tezda tinchlantirdi.

Sudya: Nazarimda, oqlovchi tomonning, ya'ni janob Xamfrining navbatdagi vazifasi o'lgan odamning aynan kim ekanligini isbot qilib bera olishi, to'g'rirog'i, barcha tanish-bilishlari va bemorlari doktor Lananing jasad, deb yurgan kimsaning asl shaxsini aniqlab berishdan iborat bo'ladi.

Sud maslahatchisi: Bu borada kimdir shubhaga borganmi, yo'qmi?

Janob Porlok Karr: Mening bilishimcha, hech kimda bunday shubha bo'lmagan.

Sudya: Shunday qilib, sud majlisi ertangi kunga qoldiriladi.

Sud jarayonining tamomila yangicha tus olishi hammaning qiziqishini uyg'otdi. Sud jarayoni hali o'z yakuniga yetmagani tufayli matbuot bu holatni sharhlashdan o'zini vaqtincha tiyib turdi. Miss Mortonning ko'rsatmalari qay darajada haqiqat yoki yolg'on ekanini hamma qizg'in muhokama qila boshladi. Ko'pchilik yosh ledi akasini jazodan qutqarib qolish niyatida nayrang ishlatmadimikan, degan fikrni ham o'rta tashlab ko'rdi.

Ammo qandaydir favqulodda holat yuz berib, doktor Lana, aslida, tirik bo'lib chiqqanida ham, baribir, uning kabinetidan topilgan noma'lum odamning o'limida yosh eskvayr, albatta, jazoga tortilishi muqarrar ekanligi hammaga kundek ravshan edi. Miss Morton ko'rsatishdan bosh tortgan maktubda balki kimningdir ushbu qotillikni bo'yniga olgan iqrori bayon etilgandir. Aftidan, yosh ledi ikki o't orasida edi, ya'ni u sevgan kishisini qurbon qilibgina akasini dordan qutqarib qolishi mumkin edi, xolos.

Ertasiga sud zali odam bilan liq to'ldi. Janob Xamfri sud zaliga kirib kelganida, zal hayajonlana boshladi. Oqlovchining o'ta ko'tarinki ruhda ekanligi, uning odatiy vazminligiga qaramay, yaqqol sezilib turardi. U qoralovchi yoniga kelib, unga sekin bir necha

luqma gap aytishi bilanoq, janob Porlok Karr hayratdan dong qotib qoldi.



Mister Xamfri sudyaga o'tgan sud majlisida qoralovchi tomonning roziligi bilan ko'rsatma bergan yosh ledi bugungi sud majlisida ishtirok etmasligini tavoze bilan ma'lum qildi.

Sudya: Unday bo'lsa, ish oqlovchi tomon uchun bag'oyat salbiy tus olishi mumkinligini sizga eslatib o'tishim lozim bo'ladi, muhtaram Xamfri.

Janob Xamfri: Zoti oliylari, ammo himoyaning navbatdagi guvohi bu chigal holatga oz bo'lsa-da, aniqlik kiritadi, deb hisoblayman.

Sudya: Nima ham der edik, mayli, sud zaliga navbatdagi guvohni chaqirishingiz mumkin.

Janob Xamfri: Men sud zaliga doktor Aloiz Lanani taklif etaman!

O'z kasbining piri bo'lgan advokat ko'p yillik faoliyati davomida sanoqsiz otashin nutqlar so'zlab hammani lol qoldirib kelgan bo'lsa-da, lekin bugungidek atigi bir jumla bilan juda katta shov-shuvga sabab bo'ladigan ishni hanuzgacha qilmagani aniq edi.

Shuncha paytgacha fojiali taqdiri qizg'in bahs va tortishuvlarga sabab bo'lgan odam guvohlik ko'rsatmalarini berish uchun o'z oyog'i bilan sud zaliga kirib kelganida, sudya janoblari ham, zalda o'tirganlar ham bir nafasga haykaldek qotib qoldilar. Zaldagilarning aksariyati doktorni yaxshi tanishardi, shu bois u ko'rinishidan ancha ozib, ko'zlari kirtaygan va yuzlarida chuqur ajin izlari paydo bo'lib qolganini darrov payqashdi. Ammo doktor horg'in qiyofada bo'lsa-da, u bilan avval tanish bo'lmaganlarning ko'pchiligi bunday favqulodda ko'rkam erkakni ilk marotaba ko'rayotganliklarini e'tirof etishdi.

Doktor sudya janoblariga ta'zim qilib, bayonot berishga rozilik so'raganday unga qarab qo'ydi. Qoidaga muvofiq, doktorga: «Barcha aytgan gaplaringiz priovardida o'zingizga qarshi dalil sifatida ishlatilishi mumkin», — deb eslatib qo'yildi. Doktor Aloiz Lana yana



bir bor barcha yig'ilganlarga qarab ta'zim qilib, o'z bayonotini boshladi.

— Mening yagona istagim, — dedi u so'zining boshida, — 21-iyunda bo'lib o'tgan hodisa bilan bog'liq bor haqiqatni chin yurakdan sizlarga aytib berish. Basharti, men tufayli bir begunoh insonning jazolanishi mumkinligini va men uchun nihoyatda aziz-u ardoqli bo'lgan odamlarni shu qadar og'ir tashvishga solib qo'yishimni bilganimda edi, allaqachon ushbu sud zalida hozir bo'lgan bo'lardim. Ammo bo'lib o'tayotgan voqealar haqidagi xabar menga yetib kelmaganining ham muayyan sabablari bor edi. Ha, to'g'ri, men dastlab o'zim kabi bir baxtiqaroning uni bilgan insonlar uchun umrbod yo'q bo'lib ketishini xohlادim. Biroq afsuslar bo'lsinkim, qilib qo'ygan ishim tufayli boshqa begunoh insonlarning azob chekishi mumkinligini e'tiborga olmabman. Ishoning, bundan bag'oyat pushaymonman va xatoimni qo'limdan kelgunicha tuzatishga imkon berishingizni o'tinib so'rayman.

Argentina Respublikasi tarixini oz bo'lsa-da bilgan odamga Lana familiyasi yaxshi tanish bo'lishi kerak. Mening otam qadimiy ispan oilasiga mansub bo'lib, bu oiladan ko'plab atoqli davlat arboblari yetishib chiqqan. Padari buzrukvorim San-Xuandagi isyonda halok bo'lmaganida, u, shubhasiz, bugun mamlakat prezidenti etib saylangan bo'lardi. Men va egizak akam Ernestga porloq istiqbol kulib boqayotgan bir paytda, kutilmaganda moliyaviy inqirozga duch kelib, bor davlatimizdan ayrildik. Oqibatda o'z kuchimiz bilan tirikchilik qilishimizga to'g'ri keldi.

Ser, bu gaplarning ko'rilayotgan ishga aslo daxli yo'q, deb hisoblasangiz, uzr so'rayman. Lekin muqaddima sifatida aytayotgan gaplarim bo'lib o'tgan voqeaning tub sababini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, deb o'ylayman.

Boya aytganimdek, Ernest ismli egizak akam bor edi. U menga shu qadar o'xshar ediki, mabodo ikkimiz yonma-yon turgudek bo'lsak, odamlar bizni bir-birimizdan ikki tomchi suvdek ajrata olishmasdi.





Yillar o'tgani sari qiyofamizda fe'l-atvorimizga xos farq qiluvchi belgilar paydo bo'la boshladi. Ammo shunday bo'lsa-da bizni farqlash juda mushkul edi.

O'lganlar haqida, ayniqsa, u tug'ishgan jigaring bo'lsa, yomon gapirish — gunoh. Akam haqida uni yaxshi bilganlardan so'raganingiz ma'qul. Ammo so'zim avvalida shuni aytib qo'yay-ki, bolaligimdan akamdan o'lgudek qo'rqardim, binobarin, undan nafratlanish uchun asoslar ham yetarli edi.

Uning ahmoqona qiliqlaridan doim obro'imga putur yetardi, chunki ikkimiz o'xshash bo'lganimiz sababli Ernestning qilgan nojo'ya ishlarini ko'pincha menga to'nkashardi. Axiyri, akam qilgan nihoyatda uyatli bir ishdan so'ng hamma isnod-la'natlar mening nomimga aytilgach, Argentinadan bosh olib chiqib ketishga majbur bo'lib, Yevropada baxtimni sinab ko'rishga qaror qildim.

Ona yurtimni qanchalik qo'msamayin, akamning jirkanch ishlari-dan nari yurganimdan o'zimni baxtiyor his qilardim. Ehtiyojimga yarasha mablag'im bor edi. Men Glazgodagi oliy tibbiy tahsilgohda ta'lim oldim, so'ng, bilganingizdek, Bishop-Krossingga kelib uy-joy qilib, shifokorlik amaliyoti bilan shug'ullana boshladim. Men bu xilvat qishloqqa kelib, endi akam Ernest meni hech qachon topa olmaydi, deb umid qilgandim.

Bir necha yillar davomida hayotim o'zim o'ylaganday osoyishta o'tdi, ammo shunga qaramay, akam baribir meni qidirib topishga muvaffaq bo'ldi. Liverpoollik bir janob Buenos-Ayresga borganida meni tanishi haqida akamga gapirib bergan ekan. Billsam, Ernest o'zining bor mol-mulk va pullarini sovurib bo'lgach, boyligim evaziga o'z ahvolini o'nglab olish niyatida meni qidirib topgan ekan. Undan qo'rqishimni bilib, ukam nima qilib bo'lsa ham mendan qutulishi evaziga pul beradi, deb mo'ljal qilganini keyinroq tushundim. Afsuski, akamning mo'ljali to'g'ri edi, haqiqatan, undan qutulish uchun bor-yo'g'imni berishga ham tayyor edim.



Shunday qilib, akamning yaqin orada kelishi haqida uning o'zi yozgan maktubini oldim. Bu esa men uchun batamom badnomlikka uchramoqlik va orzu-umidlarimning barbod bo'lishi bilan barobar edi. Negaki Ernestning bu yerlarga kelishi birtalay ko'ngilsizliklar keltirib chiqarishi, meni nomusga qo'yishi bilan birga, hatto umr bo'yi avaylab-ardoqlamoqni niyat qilgan insonlarimga ham isnod keltirishi shubhasiz edi. Shularni o'ylab taqdirning kulfatlari faqat o'zimning boshimga yog'ilishi choralarini ko'rishga ahd qildim.

Aynan shu maqsad, — deb gapida davom etdi doktor ayblanuvchi Artur Morton tomonga qarab, — ya'ni keyinchalik sudda o'ta shoshqaloqlik bilan muhokama qilinishiga sabab bo'lgan niyatlarimgina o'sha mash'um tunda sodir etgan xatti-harakatlarimga asos bo'ldi. Yagona istagim bu — qalbimga yaqin aziz odamlarni yuz berishi mumkin bo'lgan janjal va sharmandalikdan asrab qolishdan iborat edi, xolos. Chunki uchiga chiqqan qallob nomi bilan dong taratgan Ernest bu yerga kelishi bilanoq, boshimga og'ir kunlarni solishi muqarrar edi.

Bir kun uyimga akamning o'zi keldi. Kech kirganiga ancha bo'lgan, xizmatkor ayollar yotog'iga kirib ketgan payt edi. Men esa kabinetimda ishlab o'tirgandim. Birdan allakimning tosh yo'lak bo'ylab kelayotgani eshitildi. Bir daqiqa o'tar-o'tmas, u deraza ortidan menga tikilib qarab turardi. Uning soqoli menikiga o'xshab qirtishlab olingan edi. Biz bir-birimizga o'xshaganimiz bois, avval uni o'zimning deraza oynasidagi aksim bo'lsa kerak, deb o'yladim. Uning bir ko'zi bog'ich bilan bog'langan edi. Ammo yuz tuzilishimiz mutlaq bir xil edi.

Akam derazadan qarab, zaharxandalik bilan tirjaydi. Oh, nimasini aytasiz, uning masxaraomuz tirjayishi bolaligimdan beri esimda! Men ro'paramda nomimni bulg'ab isnodga qoldirgan, ona yurtimni tashlab, begona o'lkalarda sarson bo'lishimga majbur qilgan o'sha manfur odam turganini darhol angladim. Eshikni ochib, uni ichkariga kiritdim. O'shanda chamamda kech soat 23 lar atrofida edi.



Ernest kabinetimga kirib chiroqqa yaqinroq kelganida, uning yuziga qarab, hayotda ancha-muncha qiyinchilik ko'rganini fahmladim. U Liverpuldand piyoda kelgan, ko'rinishidan kasalmand va nihoyatda horg'in edi. Akamning abgor ahvolini ko'rib, ichkilikka ruju qo'yganidan jiddiy kasal bo'lsa kerak, degan fikrga bordim. U mast holda dengizchilar bilan mushtlashib yuz-ko'zi ko'kargan va momataloq bo'lgan bir ko'zini boylab, yashirib olgan edi.

Xonaga kirgach, ko'zidagi bog'ichini yechib tashladi. Egnida jun ko'ylak va dengizchilar paxtaligi bo'lib, yirtiq va iflos boshmog'idan barmoqlari chiqib turardi. Muhtojlik akamni menga nisbatan yanada kuchliroq qayrab, uni avvalgidan ham shafqatsiz qilib qo'ygandi. U: «Men Janubiy Amerikada ochlikdan tirishib o'lay degan chog'imda ukam bu yerda rohat-farog'atda yashayapti, cho'ntagi to'la pul», — deb o'ylardi. Akamning qilgan do'q-po'pisa va haqoratlarini hatto aytishga tilim bormaydi. Chamamda, muttasil araqxo'rlilik va yo'qchilik uni eshushidan ayirib qo'ygandek edi. U go'yo vahshiy hayvondek xonaning u yog'idan bu yog'iga yurib, kurakda turmaydigan haqoratlar bilan pul talab qila boshladi.

Men ham, aslida, qiziqqonman, lekin shukr-ki, bu gal o'zimni og'ir tutib, unga qo'l ko'tarmadim. Ammo o'zimni bu tarzda beparvo va vazmin tutishim akamning jahlini battarroq chiqardi. U azbaroyi quturganidan og'ziga ko'pik kelgunicha so'kindi va qo'lini musht qilib tumshug'imga olib keluvdi hamki, birdaniga rang-quti o'zgarib, a'zoyi badani titrab-qaqshay boshladi, yuragini changallab bir qattiq chinqirdi-yu, oh urib, oyog'im tagiga quladi. Men akamni ko'tarib divanga yotqizdim.

U tildan qolgan, qo'li sovuq terlagan edi. Haddan tashqari g'azablanish natijasida xasta yuragi qo'qqisdan urishdan to'xtagan edi.

Uzoq vaqt o'zimni yo'qotib, jigarimning jasadida haykalday qotib o'tirdim. Uning o'lim talvasasidagi g'ayritabiyy qichqirig'idan ko'ngli betinch bo'lib, xonam eshigi yoniga kelgan missis Vudzning



eshikni zo'r berib taqillatishidan hushimga keldim va jahl ustida unga xonasiga borib yotaverishini buyurdim. Ko'p o'tmay, qabulxona eshigini qandaydir bemor taqillata boshladi, ammo uning erkak yoki ayol ekaniga e'tibor bermadim.

Xonada o'zimni bilmay o'tirar ekanman, beixtiyor miyamga bir fikr keldi. Ehtimol, bu xildagi g'oya va rejalar inson xayolida men tushgan vaziyatdagi kabi o'ta favqulodda holatlarda paydo bo'lsa kerak. Men stuldan turganimdan so'ng qilgan barcha xatti-harakatlarim g'ayriixtiyoriy ravishda bo'ldi, bu yerda aql-idrokim mutlaqo ishtirok etmadi. O'sha ayanchli daqiqada, nazarimda, meni faqat himoyalaniish instinkti boshqarayotgandi.

Men hozir sizlarga hikoya qilib berayotgan voqealar hayotimni butunlay barbod qilib tashladi va o'sha daqiqadan boshlab Bishop-Krossing men uchun jahannamga aylandi. Chunki barcha orzu va rejalarim bir lahzada chippakka chiqqan edi. Baxtimni topaman, deb niyat qilgan va ne-ne umidlar bog'lagan maskan o'ylamay-netmay qilingan qaror va yaramas munosabat tufayli endi men uchun begona bo'lgan edi. To'g'ri, akam kelgach sodir bo'lishi mumkin bo'lgan janjal xavfi yo'qoldi, sababi — u o'lgan edi.

Biroq o'tgan orzuli damlar haqidagi o'y-xayollar menga faqat ruhiy azob berardi, xolos; avvalgi tinch va ezgu umidlarga to'la hayotim endi hech qachon qaytib kelmaydigandek tuyuldi. Ehtimol, haddan ziyod ta'sirchan bo'lgandirman, yoki bo'lmasa, atrofimdagi odamlar taqdiri qanday kechishi haqida yetarli darajada o'ylamagandirman, ammo ishonimga, o'sha daqiqalarda aynan shunday tushkun tuyg'ular changalida edim. Bishop-Krossingdan bosh olib chiqib ketish uchun bo'lgan zig'ircha imkoniyat, uning odamlarini boshqa hech qachon ko'rmaslik men uchun go'yo baxtdek tuyuldi. Menda aynan o'sha daqiqalarda ilgari bu haqda tasavvurimga ham kelmagan vaziyat, ya'ni o'tmishim bilan bir umrga vidolashish imkoni paydo bo'lgan edi.



Kabinetimdagi divanda yotgan insonning yuz tuzilishi menikiga nisbatan kattaroq va qo‘polroq bo‘lsa-da, quyib qo‘ygandek menga o‘xshar va arzimagan shu farq e‘tiborga olinmasa, bizni bir-birimizdan mutlaqo ajratib bo‘lmasdi.

Akam Ernestning uyimga kelganini hech zog‘ ko‘rmadi, yo‘lda ham unga hech kim tasodifan yo‘liqmadi. Soqoli xuddi menikidek top-toza qilib olingan, sochlari xuddi mening sochimdek edi. Agar ust-boshimiz almashtirib qo‘yilsa, bas, ertasiga doktor Lana o‘z xonasida jonsiz holda topilar va shu bilan uning baxtsiz hayoti nihoya topardi.

Men yetarli darajada mablag‘ jamg‘argandim, boshqa yurtga ketib, o‘sha yerda baxtimni yana bir bor sinab ko‘rish imkoniyatim bor edi. Akamning kiyimini kiyib olib, o‘sha tuniyoq Liverpulgacha yetib olishim mumkin edi, chunki ayni Liverpooldek yirik bandargoh orqali Angliyadan kishi bilmas chiqib ketishning qulay imkoni bor edi.

Orzu-umidlarim poymol bo‘lgani tufayli meni hech kim tanimaydigan yerda, Bishop-Krossingda xotirjam hayot kechirganim kabi, kamtarona umrguzaronlik qilishni afzal bildim, ya‘ni kutilmaganda yuzaga kelgan holatdan foydalanmoqqa qaror qildim.

Xullas, o‘ylagan rejamni amalga oshirdim. Mayda-chuyda tafsilotlar ustida to‘xtalib o‘tmoqchi emasman, sababini tushunasiz, deb o‘ylayman, illo, bu haqdagi xotiralarni eslash qalbimni tirnab, ruhiy ozor beradi. Bir soat o‘tar-o‘tmas Ernest mening kiyimimda yerda chalqancha yotardi. Men esa qabulxona eshigi orqali o‘g‘rincha chiqib ketdim.

Odamlar yuradigan so‘qmoq yo‘llarni aylanib o‘tib, ekinzorlar orqali to‘g‘ri Liverpulga yo‘l oldim. Tong sahardayoq bandargohda edim. Pullarim solingan sakvoyaj va bir surat — o‘zim bilan olgan narsalar faqat shular edi, xolos. Akamning jandapo‘shlarini olibman-u, shoshganimdan ko‘zini boylagan bog‘ichini unutib qoldiribman.

Chin so'zim, ser! Ishoning, akamning o'limini yovuz qotillik oqibati, deb hisoblashlarini mutlaqo o'ylamabman. Kuchli ruhiy hayajon oqibatida qilgan qarorimdan kimdir jabr ko'rishi mumkinligini o'ylamabman. Aslida niyatim — o'zim tufayli kimgadir zahmat yetishining oldini olish edi.

Shu kuni Liverpuldan Koruda portiga yelkanli kema jo'nab ketishini bilib, unga chipta oldim. Yo'lda fikrimni jamlab olib, kelajak rejalarimni tuzishni o'yladim. Biroq kema jo'nab ketishidan avval o'z qarorimdan ikkilandim, chunki qalbimning bir chetida qandaydir g'ashlikni his qilganday bo'ldim.

Miss Frensis hayotim mazmuni bo'lgani boisidan ham unga zarracha zahmat yetishini aslo istamas edim. Qalban pok va ibo sohibasi bo'lmish bu ayol bag'ritosh jigarlariga bildirmasa-da, men uchun ich-ichida aza tutishini yaxshi anglardim. Zero u meni tushuna bildi, unashtiruvning bekor qilinishiga sabab bo'lgan vajlarimga to'g'ri baho bera oldi. Boshqalar meni qoralagan taqdirda ham, u hanuz meni sevishini va hech qachon esidan chiqarmasligini bilardim. Shuning uchun azizam Frensisga maktub yozishga qaror qildim va nomamda sirimni oshkor etmaslikni so'radim. Bu bilan uni ortiqcha g'am-g'ussadan xalos etmoqchi bo'ldim. Garchi miss Morton yuzaga kelgan jiddiy vaziyat bosimi ostida ontini buzgan bo'lsa-da, uni tushunaman va chin dildan kechiraman.

Angliyaga kechagina keldim. Bu mamlakatga qaytgunimga qadar na o'zimning o'limimga aloqador shov-shuv haqida va na Artur Mortonga nisbatan qo'zg'atilgan jinoiy ish haqida hech narsa eshitgan emasman. Faqat kechagina oqshomgi gazetada sud ishining hisobotini o'qib qolib, haqiqatni qaror toptirish niyatida ertalabki ekspress bilan bu yerga kelishga shoshildim.

Doktor Aloiz Lananing bayonoti shulardan iborat edi. Uning ko'rsatmalari sudda jinoiy ishni ko'rib chiqishni to'xtatish va yosh eskvayrni hibsdan sud zalining o'zidayoq ozod qilish uchun asos bo'ldi.





Qo'shimcha tekshiruvlar davomida marhum Ernest Lananing haqiqatan ham Janubiy Amerikadan kelganligi aniqlandi. Kema shifokori safar davomida u bir necha bor yurak xastaligidan shikoyat qilganiga guvohlik berdi. Ernest Lananing o'limi yurak xuruji tufayli yuz berganligi tasdiqlandi.

«Qora doktor» Aloiz Lanaga kelsak, u qo'qqisdan g'oyib bo'lgan qishloqqa yana qaytib kelib, yashay boshladi. Doktor va yosh eskvayr batamom yarashdi. Qiziqqon Artur Morton unashtiruvning nima sababdan bekor bo'lganini bilmay turib qilgan beadabligi uchun uzur so'rab, o'zining nohaq ekanligini tan oldi.

«Morning post» gazetasi eng ko'rinarli joyida e'lon qilingan quyidagi xabardan bo'lib o'tgan noxushliklar ketidan ikki sevishgan qalblar o'rtasida yana bir boshqa quvonchli kelishuv sodir bo'lgani ma'lum bo'ldi.

«19 sentyabr kuni Bishop-Krossing cherkovida ruhoniylar ota Stefan Jonson guvohligida nikoh marosimi bo'lib o'tadi. Nikohdan o'tuvchilar: Argentina Respublikasining sobiq tashqi ishlar vaziri Don Alfred Lananing o'g'li Aloiz Ksaver Lana va Ley Holl sudyasi, marhum Jeyms Mortonning qizi Frensis Morton. Bishop-Krossing, Lankashir grafligi».

1898-yil, oktyabr





MUNDARIJA

Buyuk ummon sirlari

Dengiz qaroqchisi Sharkining qismati.....	5
---	---

Birinchi qism

Muqaddas Kitts oroli gubernatorining Londonga safari.....	5
---	---

Ikkinchi qism

Hiylakor qaroqchi Jon Sharkiga qo'yilgan tuzoq.....	29
---	----

Uchinchi qism

Qaroqchi Jon Sharki bilan so'nggi to'qnashuv.....	52
---	----

Sesassa vodiysining siri.....	72
-------------------------------	----

«Bo'ysunmas Sarra» ke masining qismati.....	93
---	----

Bir muhabbat qissasi.....	110
---------------------------	-----

Qora doktor.....	130
------------------	-----





Jahon adabiyoti kutubxonasi

ARTUR KONAN DOYL

DENGIZ QAROQCHISI SHARKINING QISMATI

To'rtinchi yosh guruh

Sarguzasht-detektiv qissa va hikoyalar

Muharrir Umida SODIQ QIZI

Badiiy muharrir Jahongir BADALOV

Texnik muharrir Yelena TOLOCHKO

Musahhih Umida RAJABOVA

Matn teruvchi Gulchehra AZIZOVA

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2016-yil 4-mayda ruxsat etildi.
Bichimi 70×90¹/₁₆. Ofset qog'ozi. School gamituras. Shartli bosma tabog'i 11,70+0,58
zarvaraq. Nashr tabog'i 8,74 +1,1 zarvaraq. Adadi 5000 nusxa. Shartnoma № 94–2016.
Buyurtma № 16-91.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy
uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.



O'zbekiston matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida
bosildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



Cholpon

NMIU

Cho'lpon

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

ISBN 978-9943-11-784-5



9 789943 1057845